





ONA TILI

6



**Z. Mo'minjonova, K. Ziyayeva,
Sh. Karimova, G. Halilova**

ONA TILI

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab va maktab-internatlarning 6-sinfi uchun darslik*

2-nashr

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tomonidan tasdiqlagan

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2015

811.512.133(075,3) *Yzdek Tudu*

UO'K 372.881.512.133(075)

0-58

KBK 81.2 O'zb

O-58

Taqrizchilar: **V. S. Raxmanova**, Nizomiy nomidagi TDPU maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi professori.
S. Turdiyeva, Toshkent shahar 25-sonli maxsus maktab o'qituvchisi.


Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi

Ona tili. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining 6-sinfi uchun darslik. 2-nashr/Z. Mo'minjonova, K. Ziyayeva, Sh. Karimova, G. Halilova – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015. – 208 b.

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.2 O'zb

ISBN 978-9943-4543-6-1



© «Arnaprint» MChJ, 2007-y.

© Sh. Karimova va boshq., 2015-y.

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015-y.

1044192
391



Ifodali o'qing.

Muhammad Yusuf

HECH KIMGA BERMAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni,
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

Qalqoning bor kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o'g'loningga,
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lolmagay qo'rg'oningga.
Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

TAKRORLASH

NUTQ VA GAP

Gaplarning fikr bildirish maqsadiga ko'ra turlari

1-mashq. *O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.*

Orziqib kutilgan sentabr tongi yetib keldi. O'quvchilar maktab hovlisiga to'plandilar. Ular bir-birlarini yangi o'quv yili bilan tabrikladilar. Qo'ng'iroq chalindi. Birinchi dars boshlandi. Bu dars Mustaqillik darsi bo'ldi.

2-mashq. *Gaplarning boshlanishi va oxirini aniqlang. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'yib ko'chiring. Gapning birinchi so'zini bosh harf bilan yozishni unutmang.*

OROMGOHDA

Yozda oromgohda dam oldik oromgoh tog' etagida joylashgan uning atrofida ko'm-ko'k daraxtlar bor oromgoh yonidan katta anhor oqib o'tadi oromgohda turli mashg'ulotlar bilan shug'ullandik ertalab badantarbiya mashqlarini bajardik qiziq-qiziq kitoblar o'qidik va yangi o'yinlar o'rgandik.

Esda tuting.

Gap tugallangan mazmunni bildiradi. Gap so'zlardan tuziladi.

3-mashq. *She'rni o'qing. Maqsadiga ko'ra qanday gaplar borligini aniqlang.*

Q. Muhammadiy

Maktab, kutubxonalar
Kitobni olar qaydan?
Kitobga ketgan sarflar
Unadi qaysi joydan?

Ishchi, xizmatchi, dehqon
Peshona terisidan,
O'z ota-onangizning
Mehnatining izidan.

4-mashq. *Berilgan so'zlardan foydalanib gap tuzing va yozing. Gaplarning qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

1. Boshladilar, o'quv, yilini, yangi, o'quvchilar.
2. So'qmog'ini, sen, chumolilar, ko'rganmisan?
3. Toshkentim, go'zal, yashna, gulla!

Esda tuting.

Har bir gap biror maqsad bilan aytiladi. Gaplar xabar, so'roq, his-hayajon mazmunini bildiradi.

Xabar mazmunini bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Yozuvda darak gap oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

So'roq mazmunini bildirgan gap so'roq gap deyiladi. So'roq gap oxiriga so'roq belgisi (?) qo'yiladi.

Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan qaplar **buyruq qap** deyiladi. Buyruq qapning oxiriga nuqta qo'yiladi.

Kuchi his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **his-hayajon gap** deyiladi. His-hayajon gapning oxiriga **undov(!)** belgisi qo'yiladi.

5-mashq. *O'qing. Har bir gap qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

1. Biz o'z Vatanimizni astoydil sevamiz. 2. Bolalar, sizlar yozda qanday dam oldingiz? 3. Sen O'zbekistondagi qaysi shaharlarni bilasan? 4. Yashasin bizning mustaqil O'zbekistonimiz!

6-mashq. *O'qing. Gaplarni quyidagi tartibda yozing: Darak gap, so'roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap.*

1. Yashasin dunyoda tinchlik! 2. Tejamkorlik oilaga qut-baraka olib keladi. 3. Sen qaysi hunarni o'rganishga qiziqasan? 4. Hunarli kishi xor bo'lmaydi. 5. Kuzdan keyin qaysi fasl keladi? 6. G'olib sportchilarga shon-sharaflar bo'lsin!

GAP BO'LAKLARI

Gapning bosh bo'laklari

7-mashq. *O'qing.*

Akmal duradgorlik to'garagiga qatnaydi. To'garakda bolalar yog'ochdan turli buyumlar yasashni o'rganadilar. Akmal kursicha, xontaxta yasashni biladi. Hozir bolalar javon yasashni o'rganishyapti.

Ko'chiring. Birinchi gapni o'qing. Gap kim haqida aytilayapti? Shu so'zning tagiga bir chiziq chizing.

Akmal haqida nima deyilgan? Shu so'zning tagiga ikki chiziq chizing. Keyingi gaplarni ham shu tartibda tahlil qiling.

8-mashq. Chiziqalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

(Kim?) _____ mashinani haydadi. (Nima?) _____ bekatda to'xtadi. (Kim?) _____ kasallarni davolaydi. (Kim?) _____ maktabda o'qiydi. (Nima?) _____ chiqdi olamga.

Qo'yish uchun so'zlar: *haydovchi, shifokor, o'quvchi, avtobus, oftob.*

Esda tuting.

Ega va kesim gapning bosh bo'lagidir. Ega gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiradi. Ega kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Masalan: *Rustam* keldi. *O'quvchilar* sinfga kirdilar.

Kesim ega haqida nima deyilganini bildiradi. Kesim nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Shamol *esdi*. *Tikuvchi ko'ylak tikyapti*. *Nodir muzeyga bormoqchi*.

9-mashq. Chiziqalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Kesimning tagiga chizing.

1. Qushlar yoqimli _____.
2. Sobir daraxt tagini _____.
3. Duradgor taxtani _____.
4. Abror musobaqada _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *yumshatdi, sayradilar, qatnashmoqchi, randalayapti.*

10-mashq. *So'zlardan gaplar tuzing.*

Sevadi, juda, yer, mehnatni.

Baxt, kishilarga, keltiradi, mehnat.

Tuzgan gaplaringizni yozing va bosh bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari

11-mashq. *O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.*

Do'lana tog'larda o'sadi olimlar do'lanada darmondori borligini aniqlaganlar hozir uning mevasi va gulidan shifobaxsh dorilar tayyorlanadi.

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Bosh bo'laklarning tagiga chizing. Bosh bo'laklardan boshqa so'zlar gapda qanday vazifani bajarishini ayting.

Esda tuting.

Gapda biror so'roqqa javob bo'lib, gapning bosh bo'laklarini izohlab, aniqlab yoki to'ldirib kelgan so'zlar gapning **ikkinchi darajali bo'laklari** deyiladi. Masalan: *Shabada nozik gullarni sekin tebratdi.*

12-mashq. *Matnni o'qing. Ko'chiring. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang.*

Kuzda tokzorlarda bog'bonning ishlari ko'payadi. Toklarning ortiqcha novdalari qirqiladi. Qoldirilgan novdalar birlashtirilib, qo'ndoqlanadi. Qo'ndoqlar tuproqqa ko'miladi. Hosilli kurtaklar sovuqdan saqlanadi.

13-mashq. *Ko'chiring. Gap bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.*

KITOBNI SEVING

O'quvchi kitobni sevadi. Kitob bizni yer yuzidagi hayot bilan tanishtiradi. Kitob bilim beradi. Siz kitobni ko'p o'qing.

14-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chirib, ega va kesimning tagiga chizing.*

Qo'ng'iroq chalindi. O'quvchilar o'tirdilar. Dars boshlandi. O'qituvchi tushuntirdi.

15-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.*

Darsga qo'ng'iroq chalindi. O'quvchilar joylariga o'tirdilar. Birinchi dars boshlandi. O'qituvchi darsni tushuntirdi.

16-mashq. *Gaplarni kengaytirib yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga tegishlicha chizing.*

N a m u n a : Shaharda ko'rkam, baland binolar qurildi.

Binolar qurildi. Sigir o'tladi. G'allakor yig'di. O'quvchilar tingladilar. Biz sevamiz.

17-mashq. *Qavs ichidagi so'roqlarga mos so'z qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

N a m u n a : Karima kecha muzeyga bordi.

1. Karima (q a y e r g a ?) bordi. 2. Men (n i m a n i ?) o'qib bo'ldim. 3. Rustam (q a n d a y ?) so'zladi. 4. O'quvchilar

(qanday?) tayyorlandilar. 5. (Qachon?) ota-onalar yig'ilishi bo'ladi. 6. Biz (kimlarga?) yordam beramiz.

yig'ilish

GAPDA SO'ZLARNING BOG'LANISHI

18-mashq. O'qing.

Yozda quyosh yerni qattiq qizdiradi. Issiqdan yerdagi namlik kamayadi. G'o'zalarning bargi so'liydi. Tajribali suvchi g'o'zalarni tunda sug'oradi. Chanqagan g'o'zalar sekin-asta jonlanadi.

Birinchi gapni ko'chiring. Undagi bosh bo'laklarning tagiga chizing. Ega va kesimga so'roq bering. Bu bo'laklarga bog'lanib kelayotgan so'zlarni namunadagidek yozing.

Namuna: Yozda quyosh yerni qattiq qizdirdi.

Nima qizdirdi? – quyosh qizdirdi.

Quyosh nima qildi? – quyosh qizdirdi.

Nimani qizdirdi? – yerni qizdirdi.

Qanday qizdirdi? – qattiq qizdirdi.

Qachon qizdirdi? – yozda qizdirdi.

Ikkinchi gapni ko'chiring. Undagi bosh bo'laklarning tagiga chizing va ular bilan ma'no jihatdan bog'langan so'zlarni yuqoridagidek yozing.

19-mashq. O'qing. So'roqlar yordamida o'zaro bog'langan so'zlarni aniqlang. Gaplarni ko'chiring.

Kuchli shamol qo'zg'aldi. Daraxtlar qattiq silkindi. Sarg'aygan barglar yerga to'kildi.

Bilib oling.

Gapda soʻzlar oʻzaro bogʻlanib keladi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi soʻroqlar yordamida aniqlanadi.

20-mashq. Chiziqlar oʻrniga berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni toʻldiring va yozing.

Oʻquvchilar (kimlarga?) _____ sovgʻa tayyorlashdi.
Qizlar (qanday?) _____ qoʻgʻirchoqlar yasadilar.
Bolalar (nimadan?) _____ uychalar yasadilar.

Qoʻyish uchun soʻzlar: *chiroyli, qogʻozlardan, kichkintoylarga.*

Har bir gapdagi oʻzaro bogʻlangan soʻzlarni toping. Bir soʻzdan ikkinchisiga qarata soʻroq bering.

21-mashq. Oʻqing. Har bir qatordagi ajratilgan soʻzlardan boshlab gap tuzib yozing. Hosil boʻlgan gapning mazmunini tushuntiring.

Bilagi

birni

yiqar

zoʻr

zoʻr

mingni

Bilimi

yiqar

bilim

Kitob

bulogʻi

bilim

manbai

Kitob

22-mashq. *O'qing. Har bir gapning kesimini aniqlang. So'roqlar yordamida kesimga bog'lanib kelgan so'zni toping. So'roqlarni qavs ichida yozib qo'ying.*

Odil ota qishlog'imizda ko'rkam bog' yaratdilar. Sohibkor bog'bon daraxtlarni yaxshi parvarishladi. Mevali daraxtlar tezda hosilga kirdi.

TOVUSH VA HARFLAR

Undosh tovushlar

23-mashq. *O'qing. Quyidagi so'zlarni alifbo tartibida yozing.*

Hosil, olma, yulduz, pona, fabrika, xalq, o'tloq, soya, shakar, yalpiz, echki, tosh, uy, choy, quyon, g'oz, rom.

Bilib oling.

O'zbek tilida 23 ta undosh tovush bor: **b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.**

24-mashq. *Quyidagi so'zlarni alifbo tartibida ko'chirib yozing.*

Ko'z, maysa, an'ana, doston, tok, oyoq, bedana, kutubxona, ertak, fasl, non, voqea, zanjir, quyosh, jasur, ildam, yil, g'o'za, choynak, harf.

Unli tovushlar. Bo'g'in

25-mashq. *Avval a, o, i, e, u, o' unli tovushlarini, keyin b, r, d, m, t undosh tovushlarini talaffuz qiling. Qaysi tovushlarni aytganingizda, havo og'izda to'siqqa uchramay, erkin o'tadi?*

26-mashq. O'qing.

Osmon, baxt, vergul, anor, o'rmon, qishloq, choynak, oltin, shabada, ulug', fabrika, etik.

fabrika

shabada

So'zlarni ikki ustunga bo'lib ko'chiring. Chap tomondagi ustunga unli tovush bilan boshlanuvchi so'zlarni, o'ng tomondagi ustunga undosh tovush bilan boshlanuvchi so'zlarni yozing.

Bilib oling.

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda, havo og'izda to'siqqa uchramay, erkin o'tadi.

Unli tovushlar faqat ovozdan tashkil topadi. Unli tovush **bo'g'in** hosil qiladi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi: *mam-la-kat, go'-zal, dav-lat.*

27-mashq. O'qing. Unli tovushlarni ayting.

Anor, olma, kapalak, yalpiz, yong'oq, maktab, sakkiz, yumshoq, uzum, o'rtoq, egat, yoz, ona, oromgoh, traktor.

So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga muvofiq bo'g'inlarga bo'lib yozing.

28-mashq. Nuqtalar o'rniga *a, o* unlilaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

V...zifa, bug'd...y, d...volamoq, oh...k, sh...ftoli, t...mom, hayvon...t, n...vbatchi, v...kzal, d...vlat, p...midor, j...hon, t...mosha, l...vlagi.

Esda tuting.

O'zbek tilida oltita unli tovush bor: *a, o, i, e, u, o'*.
Unli harflar ham oltita: *a, o, i, e, u, o'*.

So'z bir yo'ldan ikkinchi yo'lga **bo'g'inga** bo'lib ko'chiriladi: *meh-nat, gul-zor*. Bo'g'in ko'chirishda bir harfni bir yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi. Masalan: *o-na-miz* emas *ona-miz*, *o'qi-di* emas *o'qi-di*.

29-mashq. Nuqtalar o'rniga *i, u* unlilaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

O'qit...vchi, o't...n, ur...g', un...m, qud...q, sov...n, bur...n, to'l...q, uz...m, hov...z, qorov...l, burg...t, kut...bxona, ar...za.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga muvofiq bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Tutuq (') belgisi

30-mashq. O'qing. So'zlarning ma'nosini tushuntiring.

She'r – sher	Da'vo – davo	Sur'at – surat
Ta'na – tana	Sa'va – sava	Qal'a – qala

Tutuq belgisi bor so'zlarni yodda tuting, shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi yoki gaplar tuzing va yozing, tutuq belgili so'zlarning tagiga chizing.

31-mashq. O'qing. Tutuq belgili so'zlarning o'qilishiga diqqat qiling.

Toshkentda to'qimachilik korxonasi bor. Ra'noning onasi shu korxonada ishlaydi. U ilg'or jamoaning a'zosi. Ma'mura

va Ma'rifatning onasi ham shu korxonada ishlaydi. Ular rejani ortig'i bilan bajarishga va'da berganlar.

reja

Ko'chiring. Tutuq belgili so'zlarning tagiga chizing. U qaysi harfdan keyin kelganini ayting.

Esda tuting.

Tutuq belgisi tovush bildirmaydi. Tutuq belgisi unidan so'ng kelganda, shu unlining cho'ziqroq aytilishini bildiradi: *sa'va, e'lon, Ma'ruf.*

Tutuq belgisi undosh tovushdan so'ng kelganda, uning keyingi unidan ajratib talaffuz qilinishini bildiradi: *san'at, sur'at, Tal'at.*

32-mashq. *Tutuq belgisidan oldin kelgan unlini cho'ziqro'q talaffuz qilib, matnni o'qing.*

Ne'mat hikoyani o'qidi. Ma'ruf tushunganini so'zlab berdi. Jur'at va'da, Ma'mur so'zlarining ma'nosini aytdi. Sa'di hikoyaning ikkinchi qismini o'qidi. Ma'mura so'zlab berdi. O'qituvchi ularga a'lo baho qo'ydi.

Tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarni eshitib yozishga tayyorlaning.

Esda tuting.

Tutuq belgili so'zlarni bir yo'ldan ikkinchisiga ko'chirishda tutuq belgisi oldingi yo'lda qoldiriladi: *ta'-sir, ta'-lim.*

33-mashq. *So'zlarni bo'g'inlab o'qing.*

An'ana, a'zo, ma'rifat, ma'qul, ta'na, ta'ziya, ta'lim, qat'iy, ma'ruza.

Ko'chiring. Tutuq belgili bo'g'inlarning tagiga chizing.

34-mashq. *O'qing. So'zlarni bo'g'inga ajratib ko'chiring.*

Da'vo, ma'no, ta'sir, ne'mat, sun'iy, jur'at, mas'ul, qal'a, mash'al, ma'lum, qat'iy, va'da, ba'zi, San'at, sa'va.

Shu so'zlardan qatnashtirib ikkita gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.

Jarangli va jarangsiz undoshlar, ularning imlosi

35-mashq. *So'zlarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan harflarning tagiga chizing.*

Kitob-kitobi, barg-bargi, maqsad-maqsadi, odob-odobi, maktab-maktabi, hisob-hisobi, daromad-daromadi.

So'zlarni juftlab o'qing. Aytilishi va yozilishi jihatdan farq qiladigan undoshlarni aniqlang.

Bilib oling.

Ayrim so'zlarning oxirida kelgan jarangli undosh o'rniga uning jarangsiz jufti eshitiladi: *ozod – ozot, tartib – tartip.*

Bunday so'zlar oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu so'zdan so'ng unli qo'shib o'qiladi: *mard – mardona, kitob – kitobi.*

36-mashq. *Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni ko'chiring.*

Makta...dosh, kito...xon, tala...chan, saba...li, Muhi...din, Zayni...din, Fazli...din, Muro...jon, odo...li.

Shu so'zlardan qatnashtirib to'rtta gap tuzing.

37-mashq. *Nuqtalar o'rniga undosh harflardan mosni qo'yib, matnni ko'chiring.*

Tong ot...i. Quyosh to...lar orqasidan ko'tarildi. Muro... o'rnidan turdi. Muzdek suvda yaxshila... yuvindi. Kiyimlarini kiydi. Choy ich...i va makta...ga ketdi. Makta... hovlisida o'rtoqlarini uchratdi.

38-mashq. *So'zlar oxiridagi unli harfni tushirib o'qing va ko'chirib yozing.*

Oftobi, javobi, kabobi, mag'izi, ahdi, kitobi, yulduzi, odobi, parvozi.

Shu so'zlarning yozilishini yodda saqlang.

39-mashq. *O'qing. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib ko'chiring.*

Makta... – bilim bog'i. Kito... – bilim manbai. Odo...li bola elga manzur.

40-mashq. *Nuqtalar o'rniga d, t undoshlaridan mosini qo'yib ko'chiring.*


Xursan..., farzan..., balan..., darax..., pas..., do's..., sus..., payvan..., ros..., g'ish..., go'sh..., Toshken..., Samarqan... .

Shu so'zlarning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?

41-mashq. *O'qing. Qaysi so'zning oxiridagi undosh tovush talaffuz qilinmayotganini ayting.*

Po'lat Mo'min

Farzand bo'lib maqtayman,
Xursand bo'lib maqtayman,
Shu o'lka suvin ichdim,
Dilband bo'lib maqtayman.
Onajon O'zbekiston,
Mehribon O'zbekiston.



Ko'chiring. Oxiridagi undosh talaffuz qilinmaydigan so'zlarning tagiga chizing.

Esda tuting.

Ayrim so'zlar oxirida kelgan **d** va **t** undoshlari talaffuz qilinmaydi, lekin yoziladi: payvand, go'sht, do'st.

42-mashq. *Maqollarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning aytilishi va yozilishidagi farqni tushuntiring.*

1. **Mard** maydonda bilinadi. 2. **Do'st** so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama. 3. Odobli **farzand** – elga manzur. 4. **Daraxt** bir yerda ko'karadi.

Yoddan yozing. Talaffuzda tushib qolayotgan undoshlarni aniqlab, tagiga chizing.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar, ularning imlosi

43-mashq. *Maqollarni o'qing. Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni ayting.*

1. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq. 2. Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan. 3. Avval o'yla, keyin so'zla. 4. Odamlarning qimmati qilgan ishi bilan belgilanadi. 5. Halol ish – lazzatli yemish. 6. Bilim boylikdan qimmat. 7. Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni ko'chiring va shu undoshlarning tagiga chizing.

Esda tuting.

Ba'zi so'zlarda ikkita bir xil undosh harflar ketma-ket keladi: *g'alla, do'ppi, izzat.*

Bo'g'in ko'chirishda bunday so'zlardagi ketma-ket kelgan bir xil undoshning biri oldingi yo'lda qoldirilib, ikkinchisi keyingi yo'lga o'tkaziladi: *ar-ra, op-poq, ach-chiq.*

44-mashq. *So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing.*

Bitta, dovuchcha, issiq, oppoq, labbay, marra, qattiq, hamma, jizza, alla, katta.

So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga muvofiq ko'chirib yozing.

45-mashq. *O'qing. So'zlarning yozilishini yodda saqlang.*

Hammom, ukki, tonna, xokkey, murakkab, arra, varrak, tabassum, tilla, issiq, pilla, ummon.

So'zlarni quyidagi tartibda ko'chiring:

kk: *ukki*,

mm:

nn:

ll:

rr:

46-mashq. *O'qing. So'zlarning yozilishini yodda saqlang.*

Achchiq, balli, barakalla, **gripp**, tabassum, **tabarruk**, tashabbus, pashsha, yalla, **jizza**, novvot, **alla**, quvvat, **mahalla**.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.

47-mashq. *Tushirib qoldirilgan ketma-ket undosh harflarni qo'yib o'qing.*

ma...a

mi...ioner

qa...iq

to...a

a...iq

tana...us

muka...al

ji...a

o...oq

gra...

to'...iz

so...a

So'zlarni yozing, imlosini yodda tuting.

Topshiriq

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlarni ayting.
2. So'z oxirida jarangsiz jufti eshitiladigan jarangli undoshli so'zlarga misol ayting, ularning yozilishini tushuntiring. Bunday so'zlarni qanday tekshiramiz?
3. Talaffuzda undosh tovush tushib qoladigan so'zlarga misollar ayting.
4. Bo'g'in ko'chirish haqida nimalarni bilasiz?

SO‘Z TARKIBI

O‘zak va o‘zakkdosh so‘zlar

1-mashq. O‘qing.

1. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. (*Maqol*).
2. Otam ishchi. U zavodda ishlaydi.
3. Bolalar, har doim ishchan bo‘ling.
4. Ishi borning ishi bitar, ishsizning kuni o‘tar. (*Maqol*).

Gaplarni ko‘chiring. Umumiy qismi bir xil bo‘lgan so‘zlarni ayting.

Ishchan, ishli, ishla, ishsiz so‘zlari ma‘no jihatidan bir xil o‘zakli – o‘zakkdosh so‘zlardir. O‘zakkdosh so‘zlarning umumiy qismi – ish.

2-mashq. *Bir xil o‘zakli so‘zlarni ikki ustunga ajratib ko‘chirib, o‘zaklarni namunadagidek ko‘rsating.*

N a m u n a: *shoxli*.

Shox, shoxli, shoxsiz, shoxdor, sershox.

Harakat, harakatchan, harakatsiz, serharakat.

O‘zakni mana bunday belgilang: *gulzor*

3-mashq. *Quyidagi bir xil o'zakli so'zlarni alohida-alohida ko'chiring.*

Gul, gulli, gulla, gulzor, gulsiz, ter, terim, terimchi, baxt, baxtli, baxtsiz, baxtsizlik, daraxt, daraxtzor, daraxtli, daraxtsiz, serdaraxt.

Umumiy qism – o'zakni aniqlab, tegishlicha belgilang.

Bilib oling.

Bir xil o'zakli so'zlarning umumiy qismi **o'zak** deyiladi.

O'zaklari bir xil bo'lgan so'zlar **o'zakdosh so'zlar** deyiladi. Masalan: *bog' – o'zak; bog'bon, bog'cha – o'zakdosh.*

4-mashq. *O'qing. Bir xil o'zakli so'zlarni ikki ustunga ajratib ko'chiring, o'zaklarni aniqlab, belgilang.*

Yo'lchi, baliqchi, yo'lboshchi, baliqchilik, yo'lboshchilik.

5-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zagini toping.*

O'. Rashid

KICHKINTOYLAR KELAR

Bog'chadagi ukamni
Katta ko'chada ko'rdim.
Uzoqdan tanib uni
Kelishin kutib turdim.
Kelar kichik **toychalar**,
Bir-biriga ulanib,
Ipga tizilgan har xil
Chiroqlarday tovlanib.

6-mashq. *O'qing. Bir xil o'zakli so'zlarni topib, alohida-alohida ko'chiring, o'zakni belgilang.*

N a m u n a: bosim, bosma... .

Bosim, yozma, mashina, bosma, yozuv, mashinachi, bosqich, mashinali, yozish, bos, mashinasoz, yoz.

7-mashq. *Chiz, bil, gul so'zlaridan bir xil o'zakli so'zlar yasang.*

8-mashq. *Paxta, gul, suv so'zlariga o'zaktosh so'zlarni alohida-alohida ko'chiring, o'zakni belgilang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gap tuzing yoki maqol ayting.*

N a m u n a: Suvsiz – hayot bo'lmas.

Paxtazor, suvchi, gulzor, gulli, suvli, paxtakor, suvsiz.

9-mashq. *Bo'yoq, bo'yoqchi, bo'yoqchilik, bo'yoqli, bo'yoqsiz kabi bir xil o'zakli so'zlar guruhining o'zagini aniqlang. Har bir so'zning ma'nosini ayting.*

10-mashq. *O'qing.*

BOG'

Maktabimiz yonida bog' bor. Bu – maktab bog'i. Bog'da mevali daraxtlar ko'p. Biz bu bog'ning bog'bonimiz. Bog'imizni parvarish qilamiz. Bu ishda bizga o'qituvchilarimiz rahbarlik qiladi. Bahorda bog'chamiz ko'm-ko'k bo'ladi.



Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring, o'zagini aniqlab, belgilang.

11-mashq. *Mashina, ish, ter, bil, o't so'zlariga o'zakdosh so'zlar tanlab, alohida-alohida yozing.*

1. Akam mashinasozlik zavodida ishlaydi. 2. Otam paxta terish mashinasini boshqaradi. 3. O'tloq yam-yashil o'tlar bilan qoplangan. 4. Bilimni yoshlikdan puxta egalla. 5. Terimchilar dalada paxta terdilar. 6. Ko'p o'qigan ko'p biladi. 7. Botir ishchan bola. 8. Ishchanlik – yaxshi odat.

12-mashq. *Nuqtalar o'rniga berilgan o'zakdosh so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Xo'jaligimiz boy xo'jalik. Unda paxta ... mashinasi ko'p. Paxta asosan mashinada Xo'jaligimizda ilg'or ... ham ko'p. Ular paxtani zavq bilan Paxtani tez va toza

Qo'yish uchun so'zlar: ter, terish, teriladi, teradilar, terimchilar.

So'z yasovchi qo'shimchalar

13-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qo'shimchalarini ayting.*

Maktabimiz yaqinida **gulzor** bor. Biz gulzorga tez-tez borib turamiz. **Gulchi** gulzorni yaxshi parvarish qiladi. Gulzorda sariq, qizil, oq gullar bor.

Bilib oling.

O'zakka qo'shilib yangi ma'noli so'z yasaydigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Masalan: *traktorchi, sinfdosh, aqlli, ishla* so'zlaridagi *-chi, -dosh, -li, -la, -loq* qo'shimchalari so'z yasovchi qo'shimchalardir. Ammo tilimizda o'zakning old tomoniga qo'shilib keladigan *be-, ser-, ba-, no-* kabi so'z yasovchi qo'shimchalar ham bor: *beqiyos, sersut, badavlat, noaniq* va boshqalar.

14-mashq. *Quyida berilgan so'zlarga be-, ser-, ba-, no- kabi so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.*

Sut, darak, vosita, hafsala, ma'lum, tartib, umid, unum.

Hosil bo'lgan yangi so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzib yozing.

15-mashq. *Quyidagi so'zlarga -li, -dosh, -la, -chi, -dor, -siz qo'shimchalaridan mosini qo'shib, yangi so'zlar yasang. Shu*

qo'shimchalar bilan yasalgan so'zlar qanday ma'no anglatayotganini ayting.

Namuna: *gul – gulli, gulla, gulchi, guldon, gulsiz.*

Ish, suv, tuz, bosh, aql, unum.

16-mashq. *Ko'chiring. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlab, namunadagidek ko'rsating.*

Namuna: *Sinfdosh.*

1. Sinfdosh, vatandosh, sirdosh.
2. Aqlli, kuchli, gulli, suvli.
3. Tezlik, yaxshilik, balandlik.

So'z yasovchi qo'shimchasini mana bunday belgilang:

gulzor, noaniq

17-mashq. *Berilgan so'zlarga -loq, -iston, -zor qo'shimchalaridan mosini qo'shib, joy nomini bildiruvchi so'zlar yasang.*

O't, qum, tosh, o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, paxta, daraxt, meva, gul, olcha.

-iston qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarni qanday harf bilan yozdingiz?

18-mashq. *Nuqtalar o'rniga -chan, -kor, -bon qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Ish... , xizmat... , bog'... , paxta... , harakat... , sholi... , g'alla... .

Shu so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzib yozing.

19-mashq. Soʻz yasovchi qoʻshimchasi bir xil boʻlgan soʻzlarni guruhlab koʻchiring. Qoʻshimchalarni belgilang.

N a m u n a: terimchi, gulchi.

Aʼlochi, kurashchan, doʻstlik, uyatchan, suvchi, jasurlik, koʻngilchan, traktorchi, balandlik.

20-mashq. Quyidagi otlardan *be-*, *ba-*, *ser-*, *no-* soʻz yasovchi qoʻshimchalari yordamida soʻzlar yasang. Qoʻshimchalarni belgilang.

Gʻubor, xabar, poyon, farq, gunoh, davlat, quvvat, savlat.

Unum, hosil, harakat, maʼlum, loyiq, tanish, aniq.

21-mashq. Nuqtalar oʻrniga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshib, soʻzlarni koʻchiring.

Paxta..., aql..., ...parvo, yaxshi..., bogʻ..., olma..., ...tanish, ...vosita, zamon..., terak....

22-mashq. Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni koʻchirib yozing, oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchani belgilang.

1. Oʻzbekiston Respublikasi oq oltini bilan mashhur.
2. Terimchilar ochilgan paxtalarni terib olmoqdalar.
3. Odobli, bilimdon, ishchan va mehnatsevar farzand oila koʻrkidir.

23-mashq. Koʻchiring. Yasama soʻzlarning oʻzagi va soʻz yasovchi qoʻshimchalarini belgilang.


N a m u n a: daraxtzor

1. Toshsiz togʻ boʻlmas, koʻchatsiz bogʻ boʻlmas. (Maqol).
2. Oʻquvchi kitob oʻqidi.
3. Ishchan bolalar bogʻbonlarga yordam berdilar.
4. Doʻstlik – qudratli kuch.

24-mashq. Quyida berilgan so'zlardan *-chi, -don, -bon, -dosh, -kor, -voy, -paz, -soz, -kash* so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida shaxs otini yasab yozing. Yozgan so'zlaringiz ishtirokida ikkita gap tuzing.

Jang, yozuv, soat, suv, bog', arava, sinf, paxta, osh, somsa, temir, traktor, non, ov.

25-mashq. Rasmni kuzating va hikoya tuzing. *-dor* qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarni yozing, so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.



26-mashq. Gul, tuz o'zaklariga qarshisidagi qo'shimchalarni qo'shib, yangi so'zlar yasang va ularning ma'nosini aytib bering.

	dor		li
gul	li	tuz	siz
	siz		la
	la		don

Gul va tuz o'zagi bilan yasalgan yangi so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzib yozing.

27-mashq. *O'qing. Ko'chirib, ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni belgilang.*

1. Gulchehra mening **sinf**dosh do'stim. 2. Yomg'ir **gul**zor husnini ochadi. 3. Sodiqning otasi – **pax**takor dehqon. 4. **Qo'shi**qchi quvnoq ohangda kuyladi.

28-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Ajratib yozilgan so'zlardagi qo'shimchalarni eslab qoling.*

1. **Temir**chi o'z kasbi haqida so'zlab berdi. 2. Yo'lda **sinf**dosh do'stimni uchratdim. 3. Bahor faslida **bod**omzor juda ko'rkam bo'ladi. 4. **Pax**takor bo'lganligim bilan faxrlanaman.

29-mashq. *O'qing. Ko'chirib, so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlab, belgilang.*

O'yinchi, surnaychi, kutubxonachi, ishchi; musobaqadosh, vatandosh, maktabdosh, zamondosh; binokor, bastakor, sabzavotkor, pillakor; chamanzor, bug'doyzor, olmazor, paxtazor.

30-mashq. *O'qing. Ko'chirib, so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan so'zlarni aniqlang.*

1. Yuk tashuvchi ishchilar,
Dengizchilar yig'ildi,

Barcha ko'zlar begunoh
Baliqchiga tikildi.

2. Lolazorga aylanar
Sohil erta bahordan.
3. Uzoq tunlar osmonga
Yo'ldosh yorug' yulduzlar.

31-mashq. Berilgan otlarga so'z yasovchi *-chi, -kor, -dosh, -zor* qo'shimchalaridan mosini qo'shib, yangi otlar hosil qiling.

N a m u n a: *pilla – pillakor.*

Ijod, ov, sholi, teng, archa, chaman, zamon, bo'yoq, bino.

So'zlarni yonma-yon yozing va yasovchi qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

32-mashq. Nuqtalar o'rniga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni o'qing va yozing.

1. Eng yaqin do'stingni o'zingga sir... tutgin.
2. Sayohat... uzoq yo'l yurib, ko'kalam... bir yerga yetib kelibdi.
3. Sohib... Rizamat ota yangi uzum navlarini yaratgan.
4. Biz paxta... yaqinida yashaymiz.

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar

33-mashq. O'qing. Har bir so'zning o'zagi va qo'shimchasini ayting.

O'zbekistonning poytaxti – Toshkent.
Paxtani begona o'tlardan tozaladilar.

Oromgohga dam olish uchun bordik.
Sayohatdan qaytdik.

Bilib oling.

Gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deyiladi. So'zlarga qo'shiladigan kelishik **-ning, -ni, -ga, -da, -dan,** fe'llarga qo'shiladigan shaxs-son **-m, -man, -ng, -san, -ngiz, -miz, -k** va egalik qo'shimchalari so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardir.

34-mashq. O'qing. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib, so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchani
mana bunday belgilang: ishda

OILAMIZDA

Oilamiz besh kishidan iborat. **Onam maktabda** o'qituvchi. **Otam** shahar markazidagi kasalxonada shifokor. **Akam** oliygohda o'qiydi. U iqtidorli talaba. **Opam maktabning** 9-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Men 6-sinfda **o'qiyman**. Men tabiiy fanlarga juda qiziqaman.

35-mashq. She'rni ko'chirib, so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

Namuna: ustida.

SALOM

Yo'l ustida uchragan
Kishiga bersang salom,

Alik olib avvali,
So'ngra der: – Rahmat, bolam.

Salomsiz o'tsang agar,
Sho'rlik soqov ekan der.
Tiling bo'lgach albatta
Kattalarga salom ber!

36-mashq. *Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Maktab mulki... ko'z qorachig'iday asrang! 2. Chin do'st yurak... so'zlar. (Maqol). 3. Boylik... kaliti ilm. (Maqol). 4. Karimjon do'kon... kitob sotib oldi. 5. Toshkent... zamonaviy binolar ko'p.

37-mashq. *Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Men oltinchi sinf... o'qiy... 2. Sen nechanchi sinf... o'qiy... ? 3. Siz bo'sh vaqtingiz... nima bilan shug'ullana... ? 4. Men bo'sh vaqtimda onam... uy ishlari... yordamlasha... .

38-mashq. *Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib, matnni o'qing.*

KITOB O'QISH QOIDASI

Kitob... toza qo'l bilan ushlab kerak. Kitobni yotib o'qish zararli. Kitobni yorug'lik chap tomon... tushadigan joyda o'qing. Uni ko'z... yaqin ushlab o'qimang. Ko'z... toliqadi. Kitobni buklash yaramaydi. Kitobingiz... hamisha xatcho'p bo'lsin. Kitob... nomi va muallifi... yozib borish foydali.

Matnni ko'chirib, so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

39-mashq. Berilgan savollarga javob yozing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

1. O'quvchilar maktabda nima qiladilar?
2. Siz qushlarni sevasizmi?
3. Paxtakorlar dalada nima qiladilar?
4. Siz bugun nima qildingiz?

40-mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va ularni belgilang.

1. O'quvchilar «Gulxan» jurnali... obuna bo'ldilar.
2. Dehqon bozori... har xil mevalar sotiladi.
3. Oltin o't..., odam mehnat... bilinadi. (Maqol).
4. Saodat adabiyot fani... «5» baho oldi.

41-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi yoki so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring, topishmoqlarning javobini toping.

1. Oyog'i yo'q, ko'zi yo'q,
Osmon... sayr etadi.
Olam... ravshan etib,
Shom manzilga yetadi.

2. Chiziladi ko'kda qalam... ,
Har xil bo'yoq rassom... .



3. O'sadi issiq joy... ,
Eriydi faqat choy... .



42-mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. O'zbek eli ... g'ururi paxta. 2. Men kechagi maqola... o'qib chiqdim. 3. Sinfimizdagi barcha o'quvchilar gazeta... obuna bo'ldilar. 4. Chigirtka ekin... dushmani. 5. Kuz... toklar... mo'l hosil olinadi. 6. Tabiat... muhofaza qilish har bir kishi... ishidir.

Mashqdagi ikkita gapni gap bo'lagi yuzasidan tahlil qiling.

43-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zak va qo'shimchasini aniqlab, qanday qo'shimcha ekanini ayting. Savollarga javob bering.

Traktorchi traktorni bahorgi ishga tayyorladi.

Traktor so'zi nimani bildiradi? Traktorchi so'zi-chi?

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar qanday vazifani bajaryapti?

44-mashq. Quyidagi so'zlarning o'zagini aniqlang.

Binokorlarga, paxtakorlarga, mehnatkashlardan, maktabga, g'allakorlar, hisobchiga, ishchilarning, tinchlik, balandlikda, olchazorda.

45-mashq. Savollarga javob bering va yozing.

1. Siz nechanchi sinfda o'qiysiz?
2. O'qituvchingizning ismi va familiyasi nima?
3. Siz qaysi fanlarni sevib o'qiysiz?
4. Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?
5. Siz maktab kutubxonasiga a'zomisiz?

Javobingizdagi so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar-ning tagiga chizing.

46-mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring.

OROMGOH

Maktabimiz... katta bog'i bor. Bog' ajoyib oromgoh... aylangan. U yer... tush paytida sayr qilish... gashti boshqacha bo'ladi. Qushlar... sayrashi eshitilib turadi. Bulbul navosi kishi... ajoyib orom bag'ishlaydi. Bog'... o'rtasi... ariq o'tgan. Oromgoh... akalarimiz bunyod qilishgan. Biz bog'... parvarish qilish... davom ettirayapmiz.

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

47-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yozilishiga e'tibor berib, gaplarni ko'chiring va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

1. Maktabimiz Toshkent shahar Yunusobod **tumanining** Ahmad Donish ko'chasiga joylashgan. 2. **Respublikamiz** dehqonlari mo'l hosil uchun tinmay mehnat qilmoqdalar. 3. Yozgi **ta'tilda** dehqonlarga yordam bermoqchimiz. 4. Bugun **oynai jahonda** o'quvchilar uchun qiziq ko'rsatuv beriladi. 5. «Bolalik» romanining **muallifi** Oybekdir.

48-mashq. Rasmga qarab to'rtta gap tuzing va yozing.
So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.



So'zning tarkibini tahlil qilish tartibi

Yodda tuting.

1. So'z ovoz bilan o'qiladi va uning o'zagi aytiladi.
2. So'z yasovchi qo'shimcha aniqlanadi va shunday so'z yasovchi qo'shimchasi bo'lgan bir-ikkita so'z aytiladi.
3. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha ko'rsatiladi, uning ma'nosi aniqlanadi.
4. Shu so'zga o'zakdosh so'zlar aytiladi.

N a m u n a: **Ishchining** (dastgohi).


Ishchining: *ish* – o‘zak; *-chi* – so‘z yasovchi qo‘shimcha.

Bu qo‘shimcha *temirchi*, *traktorchi* so‘zlarida ham bor. *-chi* so‘z yasovchi qo‘shimchasi predmet nomidan anglashilgan ish bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasaydi.

Ishchi – o‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchadan tuzilgan; *-ning* – so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha. Gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi.

Ish so‘zi bilan *ishchi*, *ishchan* so‘zlari bir xil o‘zakli so‘zlardir.

49-mashq. Berilgan so‘zlarni so‘z tarkibi jihatidan namunadagidek tahlil qiling.

N a m u n a:  *gulzorga*

Sersuv, sinfdoshimizga, yaxshilikni, tozalik, kitobda, mehnatkash, terimchidan, ishchining.

Shu so‘zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.

50-mashq. Daftaringizga quyidagi jadvalni chizing va *O‘zbekiston*, *toshloqning*, *serhosil* so‘zlarini so‘z tarkibi jihatidan namunagidek tahlil qilib yozing.

N a m u n a:

So‘z	O‘zak	So‘z yasovchi qo‘shimcha	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha
Gulzorda serunum	Gul unum	-zor ser-	-da -

Soʻzning tarkibini yozma tahlil qilganda qoʻllaniladigan belgilar:

Oʻzak	—	⤿	ishchilardan
Soʻz yasovchi qoʻshimcha	—	^	ishchilardan
Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimcha	—	⌋	ishchilardan

Tahlil namunasi:

Ogʻzaki:

Yosh bogʻbonlar nihollarni parvarish qildilar. Bu misolda *bogʻbonlar* – ot; *bogʻ* – oʻzak; *-bon* – soʻz yasovchi qoʻshimcha; *-lar* koʻplik qoʻshimchasi, *bogʻbon*, *bogʻcha*, *bogʻli* – oʻzakdosh soʻzlar.

Topshiriq va savollar

1. Soʻzning qanday qismiga oʻzak deb aytiladi?
2. Oʻzakdosh soʻzlarga misollar ayting.
3. Qoʻshimchalarning turini ayting.
4. Qanday qoʻshimcha soʻz yasovchi qoʻshimcha deyiladi?
5. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar qanday vazifani bajaradi?

SOʻZ TURKUMLARI

Oʻqing. Yodingizda tuting.

Bilib oling.

Bizning nutqimiz **gaplardan**, gaplar **soʻzlardan** tuziladi.

Har bir soʻz maʼlum soʻz turkumiga oid boʻladi.

Ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish – soʻz turkumlari.

51-mashq. *O'qing. Quyidagi tartibda, so'zlarni ko'chiring: ot, sifat, son, olmosh, fe'l.*

O'quvchilar saroyi – o'quvchilarning sevimli joyi hisoblanadi. Saroyda o'n ikkita qiziqarli to'garak ishlaydi. Abbos rasm solish, Rahim rubob chalish to'garagiga qatnashadi. Men ashula to'garagiga qatnashyapman. Dugonam raqs to'garagiga a'zo bo'lmoqchi.

52-mashq. *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, son, fe'llarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.*

O'quvchi, oq, beshta, xavfli, yaproq, yordamlashdi, ishchan, odam, ochildi, keng, bepoyon, o'qiyapti, xabar, oltinchi, tanaffus, yaxshi, telefon, ishlaydi, to'qqizinchi, so'zladi, katta, gazlama, olxo'ri.

Ot	Sifat	Son	Fe'l
Kim? Kimlar? Nima? Nimalar?	Qanday? Qanaqa?	Qancha? Nechta? Nechanchi?	Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti?
<i>o'quvchi, o'quvchilar daftar, daftarlar</i>	<i>oq</i>	<i>beshta uchinchi</i>	<i>ochildi</i>

53-mashq. *So'zlarni o'qing. Ularning har biriga so'roq bering. Ularning qaysi so'z turkumiga tegishlilikini ayting.*

Ixcham, mahkam, erka, to'g'ri, yaxshi, ho'l, yangi, tekis, mayda, oltinchi, so'zladi, tinglayapti, o'ninchi.

54-mashq. *Maqollarni o'qib, mazmunini tushuntiring. So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang.*

Namuna: yetti yil.

1. Yeridan ayrilgan **yetti yil yig'lar**,
Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.
2. Bir tup tok eksang,
Bir tup tol ek!
3. **Bir** kishi ariq qaziydi,
Ming kishi suv ichadi.

Sonlarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga namunadagidek yozing, tagiga to'lqinli chiziq chizing.

55-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Bu so'zlarning qaysi so'z turkumiga oidligini ayting.

1. Navbatchi doskani toza _____
2. Sovuq _____ esdi.
3. Bahodir kutubxonadan _____ kitob oldi.
4. Yigit kishiga _____ hunar oz.

Qo'yish uchun so'zlar: *shamol, qiziq, artdi, yetmish.*

56-mashq. She'rni ifodali o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular qaysi so'z turkumiga tegishli ekanini ayting.

Zafar Diyor

Bir kun senga yangi bir olam –
Fan gulzori eshik ochadi,
Mana maktab, daftar va qalam,
Kelishingga nurlar sochadi.

daftar

OT – SO‘Z TURKUMI

57-mashq. *Narsa va shaxs nomlarini bildirgan so‘zlarni o‘qing va ularga so‘roq bering.*

Shifokor, parta, echki, qalam, chegarachi, kitob, gul, javon, o‘quvchi, daftar, ishchi, daraxt, paxta, quruvchi.

Avval shaxs nomlarini bildirgan so‘zlarni, keyin narsa nomlarini bildirgan so‘zlarni namunadagidek yozing.

N a m u n a: shaxslar: kim? shifokor, _____, _____.
narsalar: nima? parta, _____, _____.

58-mashq. *O‘qing. Har bir guruhga o‘zingiz yana ikkitadan so‘z qo‘yib yozing. Ular qaysi so‘z turkumiga oid ekanini ayting.*

Shaxslar: kim? suvchi, bo‘yoqchi, _____, _____.

O‘simliklar: nima? bug‘doy, sholi, _____, _____.

Hayvonlar: nima? sigir, tuya, _____, _____.

Qushlar: nima? musicha, qaldirg‘och, _____, _____.

Ish qurollari: nima? arra, qaychi, _____, _____.

Bilib oling.

Narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar ot deyiladi.

Shaxs nomlarini, ularning kasbini bildirgan otlar kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Shaxslardan boshqa narsalar nomini bildirgan otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

59-mashq. *O‘qing. Har bir so‘zga so‘roq bering.*

Muhandis, yomg‘ir, odam, avtobus, bo‘ron, bola, shamol, agronom, metro, o‘quvchi, ishchi, qalam, javon.

Avval shaxs nomini bildirgan so'zlarni, keyin narsa nomini bildirgan so'zlarni namunadagidek yozing.

Namuna: *shaxslar*: kim? muhandis, _____, _____.
narsalar: nima? qalam, _____, _____.

60-mashq. *O'qing. So'zlarning har biriga so'roq bering. Ular qaysi so'z turkumiga oid ekanini ayting.*

Binafsha, jo'xori, behi, bug'doy, olxo'ri, mosh, shaftoli, loviya, uzum, lola, olma, chuchmoma, anjir.

loviya

So'zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing.

Gullar: _____, _____, _____,

Mevalar: _____, _____, _____,

Donlar: _____, _____, _____,

61-mashq. *O'qing. Chiziqchalar o'rniga har bir qatordagi otlarning umumiy nomini bildiradigan so'zlarni qo'yib yozing.*

O'roq, xaskash, ketmon, _____, _____.

Choynak, piyola, likopcha, _____, _____.

Do'ppi, to'n, ko'ylak, _____, _____.

Choy, qand, saryog', _____, _____.

Daftar, qalam, chizg'ich, _____, _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *o'quv qurollari, oziq-ovqatlar, idishlar, mehnat qurollari, kiyimlar.*

62-mashq. *Chiziqchalar o'rniga kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. _____ fabrikada chit to'qiydi. 2. _____ o'rmonni zararli hasharotlardan saqlaydi. 3. _____ derazaga rom yasadi. 4. _____ yerni shudgor qildi. 5. _____ ko'lda suzmoqda.

Qo'yish uchun so'zlar: g'oz, to'quvchi, duradgor, chumoli, traktorchi.

63-mashq. *O'qing. Har bir otga -chi qo'shimchasini qo'shib, yangi ot yasang. So'zlarni so'roqlari bilan yonma-yon yozing.*

Bo'yoq, ish, hisob, suv, baliq.

Yasagan otlaringiz qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

Namuna: dengiz – nima? dengizchi – kim?

64-mashq. *Maqollarni ko'chiring. Otlarni topib, tagiga chizing, so'roqlarini ayting.*

Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni. Mehnat baxt keltirar. Kitob – bilim manbai. Odobli bola – elga manzur.

Atoqli va turdosh otlar

65-mashq. *O'qing. Ko'chirib yozing, otlarni so'roq berib aniqlang va tagiga chizing.*

1. Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschisidir.
2. Toshkent ko'rkam va obod shahar. 3. Biz Quddus Muhammadiyning «Aziz ustoz bobom» she'rini o'qidik.
4. Sirdaryo va Amudaryo suvlarida baliqlar juda ko'p.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar nima uchun bosh harf bilan yozilganini ayting.

66-mashq. *O'qing. Ko'chiring va atoqli otlarning yozilishiga diqqat qiling.*

1. Karimjon yangi ekilgan ko'chatlarni sug'ordi.
2. Shokirning To'rtko'z degan iti bor.
3. Muhabbat «Gulxan» jurnaliga obuna bo'ldi.
4. O'zbekiston – yam-yashil diyori.
5. Biz «Shum bola» badiiy filmini tomosha qildik.

Bilib oling.

Otlar ma'no jihatdan ikki turli bo'ladi: **atoqli otlar** va **turdosh otlar**. Biror shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan nomni bildirgan otlar **atoqli otlar** deyiladi.

Atoqli otlar odatda quyidagi nomlarni bildiradi:

1. **Kishilarning ism-familiyasi, taxallusi** (*Dilmurod Xalilov, Alisher Navoiy*).

2. **Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar** (*Mosh, Olapar, Qashqa*).

3. **Shahar, qishloq, daryo, ko'cha nomlari** (*Toshkent, Andijon, Xumson, Vobkent, Sirdaryo, Zarafshon, Navoiy ko'chasi*).

67-mashq. *O'qing. Ko'chiring, atoqli va turdosh otlarning yozilishiga diqqat qiling.*

Men Toshkent shahrining Oltinko'l ko'chasida yashayman. Mening otam – Jo'rayev Obidjon. Onam – Aliyeva Surayyo.

Buvim – Ahmedova Dilbar G'azalkent qishlog'ida yashaydilar.

Quyidagi namunaga qarab, o'zingiz haqingizda yozing.

Mening ismim _____. Men _____ shahrida (qishlog'ida), _____ ko'chasida yashayman. Onamning ismi _____. Otamning ismi _____.

Esda tuting.

Kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, kinoteatr, spektakl, zavod, fabrikalar nomi **bosh harf** bilan yoziladi va qo'shtirnoq ichiga olinadi.

Masalan: «Toshkent oqshomi» gazetasi, «Zumrad va Qimmat» spektakli, «Yulduz» tikuvchilik fabrikasi.

68-mashq. O'qing. Ko'chiring va yozilishini eslab qoling.

1. Biz Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasini o'qidik.
2. Men «Gulxan» jurnaliga obuna bo'ldim.
3. Onam «Kamalak» bolalar bog'chasida ishlaydilar.

69-mashq. O'qing. Gapning mazmuniga mos otlarni qo'yib, ko'chiring.

Singlimning mushugi _____ erkalanib miyovlaydi.

Akam itiga _____ deb nom qo'ygan.

Alisher Hamid Olimjonning _____ ertagini o'qidi.

«Oygul
bilan
Baxtiyor»
Yo'lbars
Momiq

70-mashq. O'qing. Ko'chiring va otlar qaysi so'roqqa javob bo'lishini ayting.

Odam, olma, uyqu, oltin, yomg'ir, paxta, to'quvchi, tinchlik, suv, havo, chittak, quyosh, sholikor, gazeta, qovun, ishchi, qo'y.

Berilgan otlardan to'rtta gap tuzing.

Bilib oling.

Bir turdagi predmetlarning nomini bildirgan otlar **turdosh otlar** deyiladi. Turdosh otlar odatda quyidagi nomlarni bildiradi:

1. Insonga oid nomlarni (*ishchi, o'quvchi*).
2. Har xil jonivorlarning nomlarini (*it, qush, sigir*).
3. Turli narsa, jismlarning nomlarini (*kitob, kumush, piyola*).
4. Tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning nomini (*ob-havo, yomg'ir, tinchlik*).

71-mashq. *O'qing. Har bir so'zga so'roq berib, kishi nomlarini bildirgan so'zlarni bir ustunga, narsa-jism nomlarini ikkinchi ustunga yozing.*

Koptok, dengizchi, xo'roz, shar, ovchi, tramvay, hamshira, kitob, qalamdon, xodim, qaldirg'och.

Berilgan otlar ishtirokida ikkita gap tuzing.

72-mashq. *Berilgan otlarni guruhlarga ajratib yozing.*

Jang, kampir, do'l, tikuvchi, laylak, halokat, paxtakor, qo'zg'olon, zilzila, ishchi, kombayn, temirchi, echki, hakam, yo'lbars, bola, chumchuq, gaz, paxtakor, qurbaqa.

1. Kishilarga oid nomlar:
2. Hayvon-jonivorlar nomi:
3. Narsa-jism nomlari:
4. Voqea-hodisa nomlari:

chumchuq

hakam

73-mashq. Berilgan savollarga yozma ravishda javob bering. Kishilar, daryolar, shaharlar, hayvonlarga qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan yozishni unutmang.

1. Birinchi fazogir uchuvchining nomi nima?
2. O'zbekistondagi qaysi shaharlar nomini bilasiz?
3. O'zbekistondagi qaysi daryolarni bilasiz?
4. Siz mushuk yoki itingizga qanday nom qo'ygan bo'lar edingiz?

74-mashq. Atoqli otlarni bir ustunga, turdosh otlarni ikkinchi ustunga ajratib ko'chirib yozing.

1. Chirchiq, Zarafshon, Norin daryolari, Toshkent, Samarqand, Namangan, Kattaqo'rg'on kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlaydi. 2. Sirk maydonida o'rgatilgan it, mushuk, maymun, ayiq, sher, yo'lbars qiziq tomosha ko'rsatishdi.





Otlarda birlik va ko'plik

75-mashq. Ikki ustunda berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarni jufti bilan o'qing va ko'chirib yozing.

N a m u n a: o'quvchi – o'quvchilar... .

- | | |
|---|--|
| 1. O'quvchi topshiriqni to'g'ri bajardi. | 1. O'quvchilar sayohatga tayyorgarlik ko'rdilar. |
| 2. Bulbul qafasda yashay olmaydi. | 2. Bulbullar gulzorda sayraydi. |
| 3. Ayvonga qaldirg'och uya qurdi. | 3. Qaldirg'ochlar erta bahorda uchib keladi. |
| 4. Men o'qigan kitob juda qiziqarli ekan. | 4. Kutubxonada kitoblar ko'p. |

76-mashq. Quyidagi rasmlar asosida savollarga javob bering.

			
Kim?	Kim?	Kimlar?	Kimlar?
			
Nima?	Nima?	Nimalar?	Nimalar?

Aval kim? kimlar? so'rog'iga, so'ng nima? nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Kim? _____, _____,

Kimlar? _____, _____,

Nima? _____, _____,

Nimalar? _____, _____,

Esda tuting.

Otlar birlik yoki ko'plik shaklda qo'llaniladi. Masalan: *quruvchi* (birlikda), *quruvchilar* (ko'plikda).

Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so'rog'iga, ko'plikdagi otlar kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi. **-lar** qo'shimchasi birlikdagi otdan ko'plikdagi otni hosil qiladi.

77-mashq. *O'qing va ko'chiring. Birlik va ko'plikdagi otlarni savollar orqali aniqlang.*

DEHQON BOZORI

Biz dehqon bozoriga bordik. Bozor – katta. Bu bozorda kartoshka, piyoz, sabzi, pomidor va boshqa sabzavotlar juda ko'p. Dehqon bozorida mevalar ham oz emas. Sabzavot va mevalarni ishchilar, xizmatchilar sotib olyaptilar. Biz ham kerakli mahsulotlarni sotib oldik. Bozorga mahsulotni dehqonlar yetkazib beradilar.

78-mashq. *Birlikdagi otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirib yozing.*

Daraxt, qalam, mashina, uy, ko'cha, bola, o'yinchoq, kitob, do'st, qush.

79-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Birlik va ko'plikdagi otlarni so'roqlar yordamida aniqlang.*

Maktabimizda taniqli shoirlar bilan uchrashuv bo'ldi. Shoirlar qiziqarli she'rlar, hikoyalar o'qib berdilar. Nodira ham shu shoirlarning she'rlaridan o'qib berdi. Uchrashuv juda qiziqarli o'tdi. Bu uchrashuv o'quvchilar xotirasida qoldi.

80-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardan ko'plikdagi otlarni yasab, ularni namunadagidek ikki ustun shaklida yozing.*

Bog' yashnaydi
Bog'bon bilan.
Dala yashnaydi
Dehqon bilan.

Uy yashnaydi
Bola bilan.
Tog' yashnaydi
Lola bilan.

N a m u n a:

Birlikdagi otlar:
bog'

Ko'plikdagi otlar:
bog'lar

81-mashq. *Har bir qatordagi so'zlarni bir-biriga bog'lab, gap tuzib yozing.*

1. Biz, she'rlarni, haqidagi, o'qiymiz, Vatan, sevib.
2. Yordamchisidir, kattalarning, yoshlar.
3. Asrang, bolalar, qushlarni.
4. Do'stimiz, bizning, qushlar.
5. In, yasadilar, qushlarga, o'quvchilar.

82-mashq. *O'qing. Ko'plikdagi otlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Ko'plikdagi otlarni birlik shaklida ayting.*

Kitoblar, qalampirlar, chizg'ichlar, uylar, ko'chalar, bog'lar, daryolar, ko'llar, qushlar.

Birlikdagi otlardan qatnashtirib uchta gap tuzing.

Esda tuting.

Ot tarkibida kelgan **-lar** qo'shimchasi so'zlashuvda ba'zan **-la** tarzida aytiladi, ammo doim **-lar** yoziladi.

83-mashq. *Birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlar hosil qiling.*

Dehqon, ishchi, binokor, ota, ona, aka, singil, lochin, laylak, turna, paxta, tarvuz, olma, qovun.

Ko'plikdagi otlardan qatnashtirib, uchta gap tuzing. Ko'plikdagi otlarning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.

tarvuz

Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi

84-mashq. *Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chiring. Otdagi qo'shimchaning tagiga chizing.*

N a m u n a: Mening ukam.

1. **Mening** ukam rasm chizishga qiziqadi. 2. **Sening** ukang rasm chizishga qiziqadimi? 3. **Rahimning** ukasi ham rasmni chiroyli chizadi. 4. **Bizning** bog'imiz katta. 5. **Sizning** bog'ingiz kattami? 6. **Rahimlarning** bog'i chiroyli.

85-mashq. *O'qing. Ko'chiring, egalik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

1. Mening dugonam raqs to'garagiga qatnashadi. 2. Sinfimiz ozoda va yorug'. 3. Ergashning otasi traktorchi. 4. Maktabimizda musiqa va rasm xonasi bor.

Bilib oling.

Otlarga qo'shiladigan **-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari** qo'shimchalari **egalik qo'shimchalaridir**.

Egalik qo'shimchalari o'zi qo'shilgan otning qaysi shaxsga (I shaxs, II shaxs, III shaxs) qarashli ekanini ko'rsatadi. Masalan: *onam, onamiz* otlaridagi **-m, -miz** qo'shimchalari shu otning I shaxs (*men, biz*)ga qarashli ekanini bildiradi.

86-mashq. *Jadvalda berilgan otlarni o'qing. Ularga qo'shilgan egalik qo'shimchalariga diqqat qiling.*

Shaxslar	Birlik		Ko'plik	
	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
I shaxs	ruchkam	kitobim	ruchkamiz	kitobimiz
II shaxs	ruchkang	kitobing	ruchkangiz	kitobingiz
III shaxs	ruchkasi	kitobi	ruchkalari	kitoblari

87-mashq. *O'qing. Otlarga I, II, III shaxs birlik va ko'plikdagi egalik qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring, qo'shimchalarning tagiga chizing.*

Parta... .	Sinf... .	Parta... .	Sinf... .
Parta... .	Sinf... .	Parta... .	Sinf... .
Parta... .	Sinf... .	Parta... .	Sinf... .

Esda tuting.

-m, -ng, -si, -miz, -ngiz egalik qo'shimchalari unli bilan tugagan otlarga qo'shiladi: *otam, otang, otasi, otamiz, otangiz*; **-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz** qo'shimchalari esa undosh bilan tugagan otlarga qo'shiladi: *qalamim, qalaming, qalami, qalamimiz, qalamingiz*.

88-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalarini qo'yib ko'chiring, shaxs-sonini ayting.

Q. Muhammadiy

Maktab... yonida
Tabiat maydonida
Ajoyib bog'cha... bor.
Unda doimiy bahor
Daraxtlar qarimas,
Hosil berib xorimas.
Meva... asal, qand,
Rang-barang, shakar payvand.
Solijonning gilo... ,
Asl mehnat xirmon...
Qishda ham tokda uzum,
Ertak emas bu so'z... .

89-mashq. O'qing. Ko'chiring, egalik qo'shimchalarini aniqlab, tagiga chizing.

1. Yaxshi do'st – jon ozig'i, yomon do'st – bosh qozig'i. (Maqol). 2. Biz ona Vatanimizni ko'z qorachig'iday saqlaymiz. 3. Buvimning uyida ukam bilan qoldik. 4. Dadang bu terakni senga atab ekkan.

90-mashq. *O'qing. Ko'chiring, ajratib berilgan otlarning yozilishiga diqqat qiling.*

1. Maktabda musiqa to'garagi bor. 2. Siz uchun ilm eshigi har vaqt ochiq. 3. Uning kelajagi porloq. 4. Odiljon o'rtog'i bilan maktabga ketdi. 5. Qishlog'imiz yam-yashil vodiya joylashgan.

91-mashq. *Qavs ichidagi otlarga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'shib ko'chiring.*

1. Kimning o'qish-o'rganishga ishtiyoqi zo'r bo'lsa, uning (kelajak) porloq bo'ladi. 2. Buvimning (ertak) bizni qiziqtirib qo'ydi. 3. Alisherning (qovoq) soliq – edi. 4. Baliqning (tiriklik) suv bilan.

92-mashq. *Otlarga I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini qo'shib yozing.*

1. Ona, maktab, mehnat.
2. Shahar, qishloq, bayroq.
3. Shodlik, tinchlik, tilak.

Yozgan so'zlaringiz ishtirokida uchta gap tuzib yozing.

93-mashq. *Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib o'qing.*

Sochiq, choynak, zavq, ko'ylak, xalq, erk, koptok, qarmoq.

Ajratib ko'rsatilgan otlarni egalik qo'shimchalari bilan turlab yozing. Ularning aytilishi va yozilishini izohlang.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi

94-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z orqali mehnat so'ziga so'roq bering. Har bir gapdagi mehnat so'zini o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga namunadagidek yozing.

Namuna: nima? qadrlanmasdi – mehnat qadrlanmasdi.

1. Burungi zamonda mehnat **qadrlanmasdi**.
2. Biz mehnatning **qadrini** bilamiz.
3. Mehnatni **sevamiz**.
4. Biz mehnatga **qiziqamiz**.
5. Odam mehnatda **sinaladi**.
6. Biz mehnatdan **zavqlanamiz**.

95-mashq. O'qing. *Kim?, kimning?, kimni?, kimga?, kimda?, kimdan?* so'roqlariga javob bo'lgan otlarni topib, ularning qo'shimchasini aniqlang.

Zulfiya 5-sinfda **o'qiydi**. Zulfiyaning **dugonalari** ko'p. Ular Zulfiyani **hurmat qiladilar**. Zulfiya kitob o'qishni sevadi. Zulfiyaga onasi badiiy kitoblar **olib bergan**. Zulfiyada topishmoqlar kitobi ham **bor**. Bolalar, Zulfiyadan **o'rnak oling**.

Har bir qatordagi Zulfiya otini ajratib ko'rsatilgan so'zlar bilan birga ustun shaklida yozing va shu so'zga qo'shilgan qo'shimchalarning tagiga chizing.

Bilib oling.

Otlar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'zlar bilan bog'lanadi. Otlarni boshqa so'zlar bilan bog'laydigan qo'shimchalar (**-ning, -ni, -ga, -da, -dan**) kelishik qo'shimchalaridir.

O'zbek tilida oltita kelishik bo'lib, har bir kelishikning o'z so'rog'i bor. Bosh kelishikdagi ot qo'shimcha olmaydi.

96-mashq. *Kelishiklarning nomlari, so'roqlari, qo'shimchalarini ko'rsatuvchi jadvaldan foydalanib, kitob, Zarifa, Toshkent otlarini turlang.*

Kelishik nomi	So'roqlari	Qo'shimchalar
Bosh kelishik	Kim?, nima?, qayer?	-
Qaratqish kelishigi	Kimning?, nimaning? qayerning?	-ning
Tushum kelishigi	Kimni?, nimani?, qayerni?	-ni
Jo'nalish kelishigi	Kimga?, nimaga?, qayerga?	-ga, -ka, -qa
O'rin-payt kelishigi	Kimda?, nimada?, qayerda?	-da
Chiqish kelishigi	Kimdan?, nimadan?, qayerdan?	-dan

97-mashq. *Chiziqchalar o'rniga Kamola so'zini so'roqlarga mos holda o'zgartirib qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring. Kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

(Kimning?) _____ shirintoy ukasi bor. (Kim?) _____ ukasiga juda mehribon. Ukasi (kimni?) _____ yaxshi ko'radi. U (kimga?) _____ ergashadi. (Kimdan?) _____ sira ajralgisi kelmaydi.

Bosh kelishik

98-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, gaplarni ko'chiring.*

1. Samarqand katta va chiroyli shahar.
2. Toshkent – poytaxtimiz.
3. Ayiq o'rmonda yashaydi.
4. Akrom do'stidan xat oldi.
5. Mehnat – baxt keltirar.

99-mashq. *Chiziqlar o'rniga quyida berilgan otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. _____ juda achchiq ekan.
2. _____ uch kilogramm ekan.
3. _____ bog'chaga boradi.
4. _____ menga juda yoqdi.
5. _____ o'tmoqda soz.

Qo'yish uchun so'zlar: *tarvuz, garmdori, yoz, hikoya, ukam.*

Bilib oling.

Bosh kelishikdagi ot kim?, kimlar?, nima?, nimalar?, qayer?, qayerlar? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda ko'pincha ega vazifasida keladi.

100-mashq. *Bosh kelishikdagi otlarga so'roq berib aniqlang va tagiga chizing. Ular gapda qaysi vazifada kelganini ayting.*

1. Globus yer sharining modeli. 2. Kitob bilim manbaidir. 3. Sayfiddin duradgorlikni tezda o'rganib oldi. 4. Paxta o'zbek xalqining milliy boyligidir.

globus

101-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Kitob, Karim so'zlariga so'roq bering, qaysi kelishikda kelganini ayting.*

1. Kitob – behisob bilimlarga boy. 2. Kitob – o'quvchining eng yaqin do'sti. 3. Karim kitobni sevadi. 4. Karim a'lochi bo'ldi. 5. Karim barcha do'stlariga yordam beradi. 6. Karim akasidan o'rnak olyapti.

102-mashq. *O'qing. Ko'chirib, bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing.*

Z. Diyor

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdek,
Muncha shoshib uhasan,
To'xta, so'zlayin andak.

Uchrataman har kuni
Seni qo'zal bog'chamda,
So'rib gullar sharbatin
O'ltirasan olchamda.

103-mashq. *O'qing. Chiziqchalar o'rniga bosh kelishik shaklida berilgan otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Ilgari suvsiz qaqrab yotgan yerlarga _____ chiqarildi. Qaqroq _____ obod bo'ldi. Bu yerlarga _____ o'tqazildi, uylarga _____ ko'chib kirdilar.

Qo'yish uchun so'zlar: *odamlar, yerlar, daraxtlar, suv.*

Qaratqich kelishigi


104-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling va ularga so'roq berib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring, kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Maktabimizning oshxonasi ozoda.
2. Ovchining iti yugurib ketdi.
3. Suv to'lqinlari daryoning qirg'og'iga urildi.
4. Yigitning mardini maydonda sina. (Maqol).
5. Ishlining ishi bitar, ishsizning kuni o'tar.

105-mashq. O'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chiring.

Uyg'un

Har faslning o'z xislati bor,
Har faslning o'z fazilati.
Kumush qishdan, zumrad bahordan,
Qolishmaydi kuzning ziynati.



Qaratqich kelishigidagi otning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Bilib oling.

Qaratqich kelishigidagi ot kimning?, kimlarning?, nimaning?, nimalarning?, qayerning?, qayerlarning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Qaratqich kelishigidagi ot egalik qo'shimchasini olgan otga bog'lanib keladi: *o'quvchining burchi, Azizning ukasi.*

106-mashq. *Qavs ichida berilgan otlarga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'shib, gaplarni ko'chiring.*

Bu ishlar (xalqimiz) Vatan taraqqiyotiga qo'shgan ulushidir. 2. (Hindiston) xush tabiati insonni sehrlab qo'yadi. 3. (Xitoy) taniqli rassomlari O'zbekistonga keldilar. 4. (Kishi) yuziga boqma, so'ziga boq.

Qaratqich kelishigidagi otlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

107-mashq. *Nuqtalar o'rniga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yib ko'chiring.*

1. Tozalik – sog'lik... garovi! 2. Ergash... akasi teplovoz haydaydi. 3. Yolg'onchi... rost so'zi ham yolg'on. 4. Markaziy xiyobonda bobomiz Amir Temir... ot ustida viqor bilan o'tirgan haykali ochildi. 5. Temirchi... qo'lida temir suvday eriydi.

108-mashq. *Chiziqchalar o'rniga qaratqich kelishigidagi otlardan qo'yib, so'z birikmasi hosil qilib yozing.*

_____ hovlisi, _____ varag'i, _____
muqovasi, _____ kitobi, _____ hurmati.

Tushum kelishigi

109-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Muqaddas doimo **darsni** o'z vaqtida tayyorlaydi.
2. **Teplovozni** mashinist haydaydi.
3. Bepoyon **Vatanimizni** doimo ulug'laymiz.
4. Biz **ko'chatlarni** sug'ordik.
5. Qaynamagan **suvni** ichmang.
6. Qodir **she'rni** ifodali o'qidi.

teplovoz

110-mashq. *Topishmoqlarni o'qing. Javobini ayting. Tushum kelishigidagi otlarni topib, ularga so'roq bering.*

1. Ular ikki qirg'oqni,
Yaqin qilar yiroqni.
2. Sochini tashlasa har yon,
Olam bo'lur charog'on.

Bilib oling.

Tushum kelishigidagi ot **kimni?, kimlarni?, nimani?, nimalarni?, qayerni?, qayerlarni?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Tushum kelishigidagi ot ko'pincha fe'lga bog'lanadi va gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

111-mashq. *O'qing. Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan fe'l bilan birgalikda ko'chiring, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Bobomni qishloqda hamma hurmat qiladi. 2. Ilm-fan Gagarinni fazoga uchirdi. 3. Erkin barcha fanlarni puxta o'zlashtiryapti. 4. Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim. 5. Men hayvonlar haqidagi hikoyani o'qidim.

112-mashq. *Nuqtalar o'rniga tushum kelishigi qo'shimchasini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Biz o'z Vatanimiz... sevamiz. 2. Yoshlar, siz bilimlar... puxta egallangiz. 3. Yotish oldidan tishing... yuv! 4. Men har kungi gazeta... o'qiyman. 5. Otam bog'dagi toklar... parvarish qiladi. 6. Akam bilim yurti... tamomladi.

113-mashq. *Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Quyosh... (-ning, -ni) o'tkir nurlari qorlar... (-ning, -ni) eritdi. 2. Qo'ng'iroq... (-ning, -ni) jaranglagan ovozi o'quvchilar... (-ning, -ni) sinfga chaqirdi. 3. Biz do'stlik... (-ning, -ni) dildan ardoqlaymiz. 4. Tolibjon kitob... (-ning, -ni) qo'lidan qo'ymaydi. U kitob... (-ning, -ni) qadriga yetadi. 5. Dilbar... (-ning, -ni) opasi... (-ning, -ni) ko'rdim. 6. O'qituvchi... (-ning, -ni) izlab yurgan edim. U direktorimiz... (-ning, -ni) xonasida ekan.

114-mashq. *Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, matnni o'qing.*

DILOROMNING BUVISI

Rohila xola juda keksayib qolganiga qaramay, gazeta va jurnal... ko'zoynaksiz o'qiydi. Goho rang-barang ipaklardan

nabirasi Diloromga chiroyli do'ppi tikib beradi. Ayrim bolalar... buvisiga o'xshab og'zida tishi yo'q emas. Uning hamma tishi butun. Shahar... piyoda aylanib chiqsa ham charchamaydi.

Dilorom... oyisi bilan dadasi ishdan qaytguncha, buvisi uyda o'tiradi. Dilorom bilan mazali ovqat tayyorlaydi, issiq non yopadi, kitob o'qiydi. Diloromga ajoyib ertaklar aytib beradi. Dilorom ham aqlli qiz.

Matnni qayta so'zlab bering. O'z buvingiz haqida gapirib bering.

Jo'nalish kelishigi

115-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Oilamiz bilan yozgi ta'til paytida turli shaharlarga boramiz. 2. Har kuni ertalab ota-onangizga salom bering. 3. Farhodga dadasi Amir Temur hayotiga oid kitobcha sovg'a qildi. 4. Ota-ona duosi – o'tga, suvga botirmas. (Maqol).

116-mashq. *O'qing. Jo'nalish kelishigidagi otlarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Tramvay va avtobuslarda o'zingizdan katta kishilarga joy bering. Kattalarning gapiga aralashmang. Ukalaringizga g'amxo'r bo'ling. 2. Sobir qushlarga donxo'rak qo'ydi. Sobir bilan men donxo'rakka don, non ushoqlari sochdik. Qushlar ishtaha bilan terib yedilar.

Bilib oling.

Jo'nalish kelishigidagi ot **kimga?, kimlarga?, nimaga?, nimalarga?, qayerga?, qayerlarga?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Jo'nalish kelishigidagi ot fe'l bilan bog'lanadi, gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

117-mashq. *O'qing. So'roqlar yordamida jo'nalish kelishigidagi otlarni aniqlang. She'rni ko'chirib, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining tagiga chizing.*

Musa Jalil

Qo'g'irchoqqa bog'lagan edim,
Dadam sovg'a qilgan pufakni,
Xayr deganday mayin silkinib,
Uchib ketdi osmon-falakka.

Yana pufak hadya qilsalar,
Qo'g'irchoqni ko'kka uchirsam,
Unutmayman bu safar endi,
Parashutcha bog'lashni hech ham.

118-mashq. *O'qing. Ko'chiring, jo'nalish kelishigidagi otlarni aniqlab, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

A. Obidjon

TUYA

Dosh beraman ochlikka,
Suvsizlikka chidayman,
Dam berishsa cho'kkalab,
Burganlarni hidlayman.

Esda tuting.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi jarangsiz va ba'zi bir jarangli undoshlardan so'ng qo'llanganda, **-ka** tarzida aytiladi, ammo **-ga** shaklida yoziladi: *Shavkatga, kitobga, maktabga.*

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri **k** undoshi bilan tugagan otlarga **-ka**, oxiri **q** bilan tugagan otlarga **-qa** tarzida qo'shiladi: *yurak – yurakka, tilak – tilakka, qishloq – qishloqqa, o'roq – o'roqqa.*

119-mashq. *O'qing. Berilgan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'shib, so'zlarni ko'chiring.*

O'roq, terak, fazo, kasb, buloq, tinchlik, kitob, xashak, quyosh, baliq, qarmoq, avlod, choynak, qirg'oq, suhbat, guruch, shikoyat, yurak, jang, podshoh, bog', tog'.

Yozgan so'zlaringizni o'qing. Ularning aytilishi va yozilishini taqqoslang. Aytilishi va yozilishida farq qiladigan otlarning tagiga chizing.

120-mashq. *Nuqtalar o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring.*

1. Men qishloq... xat yubordim. 2. Biz tog'... chiqdik. 3. Hovlimizdagi terak... chumchuq in qo'ydi. 4. Kapalak barg... qo'ndi. 5. Qari kelsa osh... , yosh kelsa ish... .

Qo'shimchalarning tagiga chizing.

121-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga -ga, -ka, -qa qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring.*

1. O'ylanmay qilingan ish, bosh... keltirar tashvish. 2. Odam doim go'zallik... intiladi. 3. Hosil mo'l bo'ldi,

dalalar... boq. 4. Uyga kelgach, ish... kirishdim. 5. Biz yig'ilish... to'plandik. 6. Olimjon bolalarni qishloq... boshladi.

O'rin-payt kelishigi

122-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, o'rin-payt kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Vohid birinchi **partada** o'tiradi. 2. Akam **Andijonda** o'qiydi. 3. **Sinfimizda** a'lochilar ko'paymoqda. 4. Yakshanba kuni **bog'da** dam oldik. 5. Otam **zavodda** ishlaydi. 6. Oltin **o'tda**, odam **mehnatda** bilinadi.

123-mashq. *O'qing. Ko'chiring, o'rin-payt kelishigidagi otlarni aniqlab, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

OILA

Oilamizda olti kishi bor. Onam maktabda o'qituvchi. Otam esa kasb-hunar kollejida dars beradilar. Katta opam va akam oliygohda o'qishadi. Kichik ukam esa hali bog'chaga boradi. Men o'zim oltinchi sinfda o'qiyman. Bizning oilamizda ahillik, totuvlik, hamjihatlik bor. Men o'z oilamda sevikli farzandman.

O'z oilangiz haqida so'zlab bering.

Bilib oling.

O'rin-payt kelishigidagi ot **kimda?**, **kimlarda?**, **nimada?**, **nimalarda?**, **qayerda?**, **qayerlarda?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan ot ko'pincha fe'lga bog'lanadi va gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

124-mashq. O'qing. O'rin-payt kelishigidagi otlarni topib, topishmoqlarni ko'chiring. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan otlar tagiga chizing. Topishmoqlarning javobini toping.

1. Bir qop un,
Ichida ustun.
2. O'tda yonmaydi,
Suvda cho'kmaydi.
3. Ko'kda qilich yarqiraydi,
Suvda aksi yaltiraydi.

125-mashq. O'qing. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan otlarga diqqat qiling. Gaplarni ko'chiring, qo'shimchalar tagiga chizing.

1. Shavkatda badiiy kitoblar ko'p. 2. Jamshid odobda hammaga o'rnak. 3. Qishloqda ko'p qavatli imoratlar qad ko'tarmoqda. 4. Biz birinchi qavatda yashaymiz. 5. Yaxshini yomon kunda sina. (*Maqol*). 6. Yigitning botirini maydonda sina. (*Maqol*).

Esda tuting.

O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi jarangsiz undoshlardan so'ng va ba'zi bir so'zlar oxirida kelgan jarangli undoshlardan so'ng qo'shilganda -ta tarzida aytilsa ham, har vaqt -da shaklida yoziladi. Masalan: *Oltin o'tda, odam mehnatda bilinar; odob – odobda, maktab – maktabda.*

126-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'yib, ko'chiring.

1. Biz yakshanba kuni sirk... bo'ldik. Sirk... ajoyib hayvonlarni ko'rdik. Arslon, tulki, ayiq kabi hayvonlar qafas... turibdi.

2. Hayvonot bog'i... katta hovuz bor ekan. Bu hovuz... oq ayiqlar mazza qilib cho'milishyapti. Bog'... ishlaydigan xizmatchilar hayvonlardagi har bir o'zgarishni kuzatib turadilar.

127-mashq. *O'qing. Quyidagi otlarga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'shib, ular ishtirokida gaplar tuzing.*

Toshkent, bog', maktab, Xorazm, mamlakat, Asaka.

O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan otlarning aytilishi va yozilishini tushuntiring.

Chiqish kelishigi

128-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni ko'chirib, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

Q. Muhammadiy

Kuzimizning go'zalligin,
Og'aynilar, ko'rganmisiz?
Tokdan husayni, **yerdan** qirqma,
Shohdan behi uzganmisiz?
Paxtazordan uyum-uyum
Oq oltinni yig'ganmisiz?

Y. Sulaymon

Sizga salom **oyimdan**,
Bobom hamda **dadamdan**,
Atrofimda chug'urlab,
Salom aytmoqda Hamdam.

129-mashq. *Maqollarni o'qing va ko'chiring. Chiqish kelishigidagi otlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Odob boshdan, aql yoshdan.
2. Kitobdan yaxshi do'st yo'q.
3. Hosiling kam bo'lsa havodan ko'rma.
4. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.
5. Odob – oltindan qimmat.
6. Yomondan hamma bezor.

Bilib oling.

Chiqish kelishigidagi ot **kimdan?**, **kimlardan?**, **nimadan?**, **nimalardan?**, **qayerdan?**, **qayerlardan?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Chiqish kelishigidagi ot ko'pincha fe'lga bog'lanadi, gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

130-mashq. *Chiziqchalar o'rniga berilgan otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Yoshlar hech qanday _____ qo'rqmaydilar.
2. Men _____ turli kitoblar oldim.
3. Akam _____ ertaga keladi.
4. _____ ip olinadi.
5. Adolat _____ kechirim so'radi.
6. Toshkentga gaz _____ keltiriladi.

Qo'yish uchun so'zlar: *Samarqanddan, dugona-sidan, kutubxonadan, Buxorodan, paxtadan, qiyinchilikdan.*

131-mashq. *Nuqtalar o'rniga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'yib, maqollarni ko'chiring.*

1. Mehnat... kelsa boylik, turmushing ham chiroylik.
2. Harakat, harakat... unar barokat.
3. Yaxshiga yondosh, yomon... qoch.
4. Yaxshi... bog' qolar, yomon... – dog'.

Chiqish kelishigidagi otlarning aytilishi va yozilishini izohlang.

Esda tuting.

Chiqish kelishigi qo'shimchasi jarangsiz va ba'zi bir jarangli undoshlardan so'ng qo'shilganda **-tan** tarzida aytilsa ham, har vaqt **-dan** shaklida yoziladi: *toshdan, shkafdan, qanddan, maktabdan.*

132-mashq. *Berilgan otlarga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'shib yozing.*

Ona, qish, kuz, daraxt, qovoq, quyosh, chizg'ich, sirk, olma, millat, mamlakat.

Shu so'zlardan qatnashtirib to'rtta gap tuzing.

133-mashq. *Nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchalarini qo'yib, so'zlarni bir-biriga bog'lab yozing.*

Maktab... bog'i

Maktab... bordi

Maktab... bo'ldi

Maktab... keldi

Hosil bo'lgan so'z birikmalari ishtirokida to'rtta gap tuzib yozing.

134-mashq. *Nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchalarini qo'yib she'rni o'qing.*

Tursunboy Adashboyev

QO'G'IRCHOG'IN AVAYLAB

Ariq... o'tayotib,

Gulnora toyib ketdi.

«Muncha anqaydim», deya,

O'zi... koyib ketdi.

O'rnidan turib darhol
Ko'ylaklari... qoqdi.
So'ngra qo'g'irchog'i...
Mehr-la kulib boqdi.

– Voy, qattiq yiqildingmi?
Ko'zlari munchoqqinam?,
Boshing tosh... tegdimi?
Yig'lama, oppoqqinam.

Kelishik qo'shimchasini olgan otlarga so'roq bering va qaysi kelishikda ekanini ayting.

135-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlar qanday qo'shimchalar olganini ayting.*

MEHRIBON O'RTOQLAR

Bugun maktabga hamma bolalar keldi. Biroq Anvar kelmadi. **O'rtoqlari** tashvishlandilar. Dars tugadi. O'rtoqlari **Anvarning** uyiga borishdi. **Onasi** Anvar kasal yotganini aytdi. O'rtoqlari **Anvarni** ko'rishdi. Anvar tezda tuzalib ketdi va **maktabga** kela boshladi. Anvar o'rtoqlarining **mehribonligidan** xursand bo'ldi.

Qo'shma otlar

136-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Ajratib yozilgan otlarga so'roq bering va tagiga chizing.*

1. **Qorako'l** terisidan juda chiroyli qalpoq tikildi.
2. Onam ajoyib **gulko'rpa** tikdilar. 3. **Bolari** qanday hasharot?
4. **Boychechak** – bahor elchisi.

137-mashq. Berilgan qo'shma otlardan to'rtta gap tuzing va yozing.

Qo'shtut, Yangiyo'l, Qoratosh, Kattaqo'rg'on, Beshariq, O'rta Chirchiq.

Bilib oling.

Otlar birdan ortiq so'zdan tuzilishi ham mumkin: *kungaboqar, mingoyoq*. Bunday otlar **qo'shma otlar** deyiladi. Qo'shma otlar, odatda, ikki otdan (*otquloq*); sifat bilan otdan (*ko'ksulton, oqqush*) yoki ot bilan fe'ldan (*otboqar*) yasaladi.

138-mashq. Chiziqchalar o'rniga qo'shma otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Kimningdir hovlisida _____ chiranib qichqirdi.
2. _____ bilan _____ bir-biridan chiroyli.
3. _____ darsga sira kech qolmaydi.
4. Hovlimizda _____ bor.

Qo'yish uchun so'zlar: *nomozshomgul, sadarayhon, gultojixo'roz, Toshpo'lat, jo'jaxo'roz*.

139-mashq. O'qing. Qo'shma otlarning yozilishiga e'tibor berib ko'chiring.

1. Otquloq ko'pgina dardlarga davo.
2. Mirzacho'l bog'rog'larga aylangan.
3. Eski qo'lyozmalarga e'tibor kuchaymoqda.
4. Sadarayhon xushbo'y isli o'simlikdir.

Bilib oling.

Ikki turdosh otdan iborat bo'lgan narsa nomlari (*gulko'rpa, ko'zoynak, o'qilon*), ikkinchi qismi turdosh ot bo'lgan geografik nomlar (*Sirdaryo, Oltinsoy*), ot

bilan **-ar** qo'shimchali fe'ldan yasalgan qo'shma otlar (*otboqar, o'rinbosar*) qo'shib yoziladi. Sifat va atoqli otdan tuzilgan geografik nomlar (*Yuqori Chirchiq, Markaziy Osiyo*) ajratib yoziladi.

140-mashq. *Qo'shma otlarni ko'chirib yozing va ularning yozilishini izohlang.*

Paxtaobod, bedapoya, molboqar, ko'zoynak, O'rta Osiyo, oybolta, toshbaqa, yeryong'oq, makkajo'xori, gultojixo'roz.

Berilgan qo'shma otlar ishtirokida uchta gap tuzing.

141-mashq. *Qavs ichidagi so'zlarni qoidaga asosan yozing.*

N a m u n a: *Yunus (obod) – Yunusobod, O'rta (Chirchiq) – O'rta Chirchiq.*

O'rta (ovul), temir (yo'l), Shimoliy (Amerika), Paxta (obod), Yuqori (Chirchiq), ko'z (oynak), bilak (uzuk), ish (boshi), ish (haqi).

142-mashq. *Birinchi ustundagi so'zlarga ikkinchi ustundagi so'zlardan mosini topib, qo'shma otlar yasang va yozing.*

Katta	quloq
g'o'za	yo'zma
ot	soy
qo'l	qo'rg'on
ko'z	poya
Koson	tut
Qo'sh	oynak

Hosil bo'lgan qo'shma otlar ishtirokida gaplar tuzing.

143-mashq. *Mustaqil ravishda oltita qo'shma ot topib yozing.*

Juft otlar

144-mashq. *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan otlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

1. **Ota-onani** aziz tutmoq kerak. 2. **Gazeta-jurnallarga** obuna bo'lish esingizdan chiqmasin. 3. **O'rin-ko'rpa**, kiyim-kechaklarni toza tuting!

145-mashq. *O'qing. Juft otlarning yozilishiga diqqat qilib, gaplarni ko'chiring. Juft otlarning tagiga chizing.*

1. Qo'ni-qo'shnilar bu qizni juda ko'p eslab yurdilar. 2. Aka-uka doim ahillikda yashadilar. 3. Urf-odatni yaxshi bilmoq kerak. 4. Ona-yu bola, gul-u lola.

Bilib oling.

Ikki so'zning qo'shilib kelishidan hosil bo'lgan otlar **juft otlar** deyiladi. Juft otlar chiziqcha (-) bilan yoziladi (*og'a-ini, uy-joy*).

Juft otlar o'rtasida **-u** yoki **-yu** bog'lovchisi ishlatilsa, bu otlar orasiga chiziqcha qo'yilmaydi (*ona-bola, ona-yu bola*).

146-mashq. *Quyidagi so'zlardan juft otlar yasang va ularning ma'nosini ayting.*

Namuna: choynak va piyola – choynak-piyola.

Aka va uka, tovoq va qoshiq, yig'im va terim, yer va suv, ko'z va quloq, ota va bola, oshna va og'ayni, kitob va daftar.

147-mashq. *Chiziqalar o'rniga mos so'zlar qo'yib, juft otlar yasang va ko'chirib yozing.*

Opa-_____, ota-_____, yosh-_____,
o'yin-_____, to'y-_____, oziq-_____,
olma-_____, qovun-_____.

148-mashq. *Juft otlarning yozilishiga diqqat qiling va ko'chirib yozing.*

Aka-yu uka, yor-u do'st, bog'-u bo'ston, xavf-u xatar.

Shu otlardan qatnashtirib ikkita gap tuzib yozing.

Qisqartma otlar

Nutqimizda qisqartma otlar ham qo'llaniladi. Ular so'zlarni qisqartirib qo'shish yo'li bilan quyidagi usullarda hosil qilinadi:

1. So'zlarning birinchi harflari olinib, bosh harf bilan yoziladi va harflar o'z nomi bilan aytiladi: *Amerika Qo'shma Shtatlari – AQSH.*

2. Birinchi so'zning bosh qismi, boshqa so'zlarning birinchi harfini olish bilan yasaladi. Bunda bosh qismining birinchi harfi va qolgan so'zlardan olingan birinchi harflar bosh harf bilan yoziladi: *O'zbekiston Respublikasi – O'zR. Samarqand Davlat Universiteti – SamDU.*

3. Birinchi so'zning bosh qismi, keyingi so'z esa to'liq olinadi: *pedagogik kollej – pedkollej.*

Eslatma: Kishi ismi va otasining ismini qisqartirib yozish hollari ham bo'ladi. Bunda ulardan keyin nuqta

qo'yiladi. Ammo ular qisqartirib emas, to'liq o'qiladi:
T. Murodov – To'lqin Murodov, A. Oripov – Abdulla Oripov.

149-mashq. *O'qing. Qisqartma otlarni topib, ularning qanday yasalganligini aytib bering.*

1. Ko'z oldimga katta GES keldi. 2. Maktabimizda EHM xonasi bor. 3. Opam TDPUDA o'qiyapti. 4. Umarning akasi SamDUDA o'qiydi. 5. Nodirning otasi – O'zMEDa bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi.

150-mashq. *O'qing. Qisqartma otlarni kengaytirib ko'chiring.*

1. O'zdonmahsulot konserni. 2. Toshkentga AQSHdan sayyohlar kelishdi. 3. Umid avtosaroyda ishlayapti. 4. Dars EHM xonasida bo'ladi. Aziza SamDUDA o'qimoqda.

151-mashq. *Quyidagi so'zlardan qisqartma otlar yasab yozing.*

1. Toshkent traktor zavodi. 2. Toshkent motor zavodi.
3. Birlashgan millatlar tashkiloti.

Topshiriq va savollar

1. Qanday so'zlar ot deyiladi?
2. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday otlar bosh harf bilan yoziladi?
4. Kitob so'zini egalik qo'shimchalari bilan tuslab bering.

SIFAT – SO‘Z TURKUMI

152-mashq. *Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering.*

Havo ochiq. Quyosh erta tongdan boshlab **yarqirab** nur sochmoqda. Bog‘larda **oq, sariq, qizil** gullar quyosh nurida tovlanadi. **Mayin** shabada **xushbo‘y** hid taratadi. Qushlarning **yoqimli** ovozi kishiga zavq bag‘ishlaydi. «Eh, bahor qanday **ko‘rkam** fasl».

153-mashq. *Predmetning qanday belgilari borligiga diqqat qiling va ko‘chiring.*

Q a n d a y? yumshoq, mayin, oq, qora – yung.

Q a n d a y? sho‘r, mayda, oq – tuz.

Q a n d a y? qizil, katta, kichik, dumaloq, shirin – olma.

Q a n d a y? keng, tor, uzoq, tekis – yo‘l.

Q a n d a y? yorug‘, uzun, issiq, sovuq, quyoshli – kun.

Q a n d a y? baland, katta, past, kichik, chiroyli – uy.

Predmetning belgisini bildirgan so‘z **sifat** deyiladi. Sifatlar **qanday?** yoki **qanaqa?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Sifatlar gapda otlarga bog‘lanib keladi. Masalan: *zangori osmon, mevali bog‘, ko‘rkam bino, shirin gilos, toza havo.* Sifat gapda **ikkinchi darajali bo‘lak** bo‘lib keladi.

154-mashq. *She‘rdagi belgisini bildiruvchi so‘zlarni aniqlang.*

Q. Muhammadiy

Lo‘ppi, do‘ndiq qo‘zichoq,

Erkinga qalin o‘rtoq.

Ikki ko‘zi quralay,

Qora munchoq tugmaday.

Sifatlarga so‘roq berib, tagiga chizing.

155-mashq. *O'qing. She'rni yodlang.*

Toza navo, toza suv,
Ozod Vatan seniki,
Yop-yorug' maktablarda,
Ilm va fan seniki.

Sifatlarni aniqlang.

156-mashq. *Chiziqlar o'rniga mos so'zlar qo'yib, ularni birgalikda ko'chiring.*

_____ kun, _____ qog'oz, _____ ot, _____
stol, _____ yo'l, _____ kitob, _____ tog', _____
yoshlar.

Qo'yish uchun so'zlar: *katta, qiziq, uzoq, uzun issiq, baland, oq, baxtli.*

157-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan sifatlarga mos otlar qo'yib, birgalikda ko'chiring.*

Katta _____, keng _____, baland _____, nordon _____,
sersuv _____, qizil _____, qora _____,
sariq _____.

Tuzilgan so'z birikmalaridan ikkita gap tuzing va tahlil qiling.

158-mashq. *O'qing. Predmetlarning belgisiga ko'ra topishmoqning javobini toping.*

Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil.
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.

(A...).

Dala to'la oppoq qush,
Pati yo'g'-u momiq qush,
U tufayli elimiz,
To'q yashaydi yoz-u qish.

(P...).

159-mashq. *Gaplarni o'qing. Ko'chiring. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

Qahraton qish keldi. Mana chiroyli yulduzchalar shaklida qor yog'moqda. Dala va o'tloqlar oppoq chodir bilan qoplandi. Daraxtlar oppoq kiyim kiydilar. Quyosh nurida qor yaltirab ko'rinadi. Archaning ko'm-ko'k igna barglari qor ostidan chiroyli ko'rinadi.

160-mashq. *Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlang.*

1. Mevali daraxtga tosh otma. 2. Oz so'z – soz so'z. 3. Shirin so'z – jon ozig'i. 4. Odobli bola – elga manzur. 5. Bahorgi harakat – kuzgi barokat. 6. Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

161-mashq. *Berilgan so'z birikmalarini qatnashtirib, gap tuzing.*

Hushchaqchaq qiz, yorug' sinf, nordon limon, keng ko'cha.

Sifatlarni aniqlang va tahlil qiling.

162-mashq. *Otlarning belgilarini savollar yordamida toping va yozing.*

1. Gilam (qanday?) ____, ____, ____, _____. 2. Ko'cha (qanday?) ____, ____, ____, _____. 3. Ovqat (qanday?) ____, ____, ____, _____. 4. Gilos (qanday?) ____, ____, ____, _____. 5. O'quvchi (qanday?) ____, ____, ____, _____. 6. Uy (qanday?) ____, ____, ____, _____.

163-mashq. *She'rni o'qing, sifatlarni aniqlang.*

Po'lat Mo'min

Ekdik talay ko'chatlar,
Yangi-yangi bog' bo'ldi.
Salqin tortib ko'chalar,
Do'stlar dili chog' bo'ldi.

Bizlar boqqan qo'zichoq,
O'sib katta qo'y bo'ldi.
Bizlar quygan g'ishtga boq,
Dang'illama uy bo'ldi.

164-mashq. *O'qing. Berilgan sifatlarga mos otlar tanlab yozing.*

1. Keng, katta, chuqur _____. 2. Ko'm-ko'k, sershox, pastkina _____. 3. Oppoq, qalin, toza _____. 4. Sof, yoqimli, toza _____. 5. Quyuq, ko'm-ko'k, qalin _____. 6. Shirin, sariq, mayda _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *nok, havo, daryo, qor, daraxt, o'rmon.*

daraxt

165-mashq. Berilgan gaplardagi sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda namunadagidek ko'chirib yozing.

N a m u n a: kuchsiz o'quvchilarga.

1. Biz kuchsiz o'quvchilarga yordam beramiz.
2. Bolalar, kitobni yorug' joyda o'qing! 3. Bog'imizga bahorgi ko'chatlar o'tqazdik. 4. Samolyot qalin daraxtlar ustidan uchib o'tdi. 5. Sof havoda dam olish kerak. 6. Yaqinda qishki ta'til boshlanadi. 7. Oppoq paxtadek qor yog'moqda.

166-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan sifatlarga mos otlarni qo'yib, so'z birikmalari hosil qiling.

Baxtli _____, oq _____, yorug' _____, baland _____, sovuq _____, ilg'or _____, qora _____, keng _____, qizil _____, mevali _____, muhim _____.


Qo'yish uchun so'zlar: yulduz, suv, o'quvchi, tog', oila, daraxt, qalam, olma, topshiriq, dala, paxta.

167-mashq. Berilgan gaplardagi sifatlarni so'roqlar yordamida aniqlang va ularning tagiga chizing.

1. Shahrimizda ko'rkam binolar ko'p. 2. Gulchehra opasiga chiroyli guldasta taqdim qildi. 3. Ulug' shoir Alisher Navoiy asarlarini sevib o'qiymiz. 4. Erkin qushchalarga kichkina in yasadi. 5. Mehribon tarbiyachi jajji bolalarni o'ynatmoqda. 6. Hilola bog'chadagi oq, qizil, sariq gullarga suv quyimoqda.

taqdim,
jajji

168-mashq. Rasmda berilgan predmetlarning nomi, belgilarini ayting va yozing.



169-mashq. O'qing, so'roqlar yordamida sifatlarni aniqlang.

ONA SHAHRIM

Toshkent – katta va chiroyli shahar. Ko'chalari keng. Toshkentning har bir tumanidagi ko'p qavatli va zamonaviy binolar shahar husniga husn qo'shmoqda. Bu yerda ko'plab dam olish bog'lari bor. Bog'da xushmanzara daraxtlar



o'sadi. Bular shahar havosining toza bo'lishiga yordam beradi. Shaharda ajoyib joylar bor. Shahar markazidagi Mustaqillik maydoni shaharga ko'rk berib turadi.

Sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chiring.

tuman,
Toshkent

170-mashq. *She'rlarni ifodali o'qib, sifatlarni aniqlang. So'roq yordamida o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

Ko'kni quchgan uylarga,
Baxt keltirgan to'ylarga,
Quvnoq va sho'x kuylarga
Boydir go'zal Vatanim.

Toza, tiniq, kumush suv,
Orom berar barchaga,
Tanlarimiz g'uborsiz,
O'xshar tetik archaga.

171--mashq. *Berilgan sifatlarni boshqacha nomlang va yozing.*

N a m u n a: *Chiroyli – ko'rkam, kelishgan, husndor.*

Polvon – _____, _____, _____.

Inoq – _____, _____, _____.

Ko'p – _____, _____, _____.

Ishchan – _____, _____, _____.

Quvnoq – _____, _____, _____.

Toza – _____, _____, _____.

Sifatlardan foydalanib uchta gap tuzing, ularni tahlil qiling.

172-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzing, ko'chiring, sifatlarning tagiga chizing.

1. Kirdi, Aziza, katta, bog'ga. 2. Oq, ochilgan, sariq, bog'da, qizil, gullar. 3. Daraxtlarda, sayrayapti, qushlar, sayroqi. 4. Aziza, maysalar, o'ynadi, ustida, ko'm-ko'k. 5. Tingladi, sayrashini, yoqimli, qushlarning, Gulnora.

173-mashq. Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli sifatlarni toping va yozing.

Katta – kichik, achchiq – _____, yorug' – _____, baland – _____, yupqa – _____, dangasa – _____, sovuq – _____, keng – _____, uzoq – _____.

Ajratib ko'rsatilgan sifatlarni qatnashtirib gaplar tuzing va ularni tahlil qiling.

174-mashq. Matnni ko'chiring. Sifatlarni toping va tagiga chizing.

BOG'DA



Shinam bog'. Ariqlarda zilol suv shildiraydi. Hiyobonlarda xushbo'y gullar ochilib yotibdi. Pushti, oq, sariq va boshqa

rangdagi kapalaklar nozik qanotlarini silkib, guldan-gulga qo'nmoqda. Arg'imchoqlarda quvnoq bolalarni ko'ramiz. Ko'm-ko'k chamanzor yonidagi bog'da o'quvchilar turli mevali daraxt ko'chatlarini parvarish qilmoqdalar.

Bilib oling.

Predmetning belgilari turli guruhlarga bo'linadi:

Rang-tus	Hajm-shakl	Maza-ta'm	Xil-xususiyat
qizil	yapaloq	shirin	chaqqon
yashil	uzun	taxir	chiroyli
havorang	keng	achchiq	zehnli
ko'm-ko'k	ingichka	nordon	sho'x
qora	qalin	chuchuk	xushchaqchaq

175-mashq. Berilgan predmetlarning turli belgilarini namunadagidek guruhlar bo'yicha yozing.

N a m u n a: nok – sariq, uzunchoq, shirin, mayda, sersuv.

Nok	Ot
Karam	Sigir
Shaftoli	Tovuq
Piyoz	It
Anor	Tuya
Bodring	Tulki

176-mashq. Rasmdagi predmetlarning nomini, belgilarini guruhlar bo'yicha yozing. Sifatlarni qatnashtirib uchta gap tuzing.



177-mashq. *Topishmoqlarning javobini toping. Predmetlarning belgilarini ayting.*

O'zi jajji oq tosh,
Pishirsang-chi shirin osh.

Rangi oppoq, pardek yumshoq.
Quyosh ko'rsa, erir shu choq.

178-mashq. *Berilgan sifatlarni qatnashtirib, gaplar tuzing.*

Zangori, baland, keng, shirin, chaqqon, yorug', yumshoq, nordon.

179-mashq. *Quyidagi sifatlarni turli belgini bildirishiga ko'ra guruhlarga ajratib, ustun qilib yozing.*

Qizil, katta, sho'x, ko'p, achchiq, botir, yumshoq, tor, oq, keng, shirin, uzun, taxir, sariq, toza, qora, yashil, sof, yangi, qalin, pushti, ingichka.

180-mashq. *O'qing, so'roqlar yordamida sifatlarni aniqlang va ko'chirib yozing.*

Har tomonda oppoq qor,
Sovuq hukm suradi,
Daraxtlar oq kiyimda
Xayol surib turadi.

Osmon tiniq, ko'k shohi,
Oq bulut kezar gohi,
Gullarga ko'miladi,
Qandak o'rikning shoxi.

181-mashq. O'qing. Chiziqalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

Maktabimiz oldida _____ gulzor bor. U yerda _____, _____, _____ gullar o'sadi. Ular chamandek ochilgan. Biz gullardan _____ guldasta tayyorladik. _____ ashulalar aytdik, _____ hikoyalar o'qidik, _____ o'yinlar o'ynadik.

Qo'yish uchun so'zlar: qizil, sariq, oq, katta, qiziq, chiroyli, yoqimli, turli.

182-mashq. O'qing. Matndagi sifatarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chiring.

KUTUBXONA

Maktabimizda katta kutubxona bor. Kutubxonada qiziq kitoblar ko'p. Biz mehribon kutubxonachi opamizga yordam beramiz. Ular kutubxonaga ko'plab yangi kitoblar olib keladilar. Bu kitoblardan qiziqarli narsalarni o'qib o'rganamiz.

kutubxona

183-mashq. O'qing. Ko'chiring.

Oq ipak.

Yumshoq qor.

Ko'k chit.

Chaqqon qiz.

Oqish ipak.

Yumshoqqina qor.

Ko'kimtir chit.

Chaqqongina qiz.

184-mashq. O'qing. Chiziqalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. _____, _____ qog'ozlardan turli o'yinchoqlar yasadik. 2. _____ chang asta-sekin osmonga ko'tarildi. 3. Ko'lning suvi _____ ko'rinadi. 4. O'ktamning mehnatda chiniqqan _____ yuzida bolalarcha ma'sumlik jilvalanardi. 5. Aziza bayramga _____ ko'ylak kiyib keldi.

Qo'yish uchun so'zlar: *qizg'ish, ko'kimtir, oqish, sarg'imgtir, ko'kish, qoramtir.*

185-mashq. *Berilgan so'z birikmalari ishtirokida gap tuzing.*

Oqish ro'mol, ko'kimtir suv, qizg'ish mato, qoramtir qo'y, sarg'imgtir soch, ko'kish osmon, sarg'ish behi.

186-mashq. *O'ng va chap ustundagi so'z birikmalarini qiyoslab o'qing.*

Oq paxta.

Yashil o'tloq.

Ko'k osmon.

Qizil lola.

Sariq ro'mol.

Oppoq paxta.

Yam-yashil o'tloq.

Ko'm-ko'k osmon.

Qip-qizil lola.

Sap-sariq ro'mol.

O'ng va chapdagi so'z birikmalarini bir-biriga taqqoslang. Belgilarning ortiq yoki kamligini aniqlang.

187-mashq. *O'qing, ko'chiring. Ularning yozilishiga diqqat qiling.*

Yam-yashil, kap-katta, qip-qizil, ko'm-ko'k, qop-qora, oppoq, yap-yangi, yop-yorug', sap-sariq, qop-qorong'i, to'q qizil, liq to'la, g'irt yolg'on, jiqqa ho'l, ship-shirin, top-toza.

SIFAT DARAJALARI

188-mashq. Rasmlarni kuzating. Ularni bir-biri bilan solishtirib, belgilarini qiyoslab yozing.

Qanday archa?

Qanday bino?



Katta archa.
Kattaroq archa.
Eng katta archa.

Baland bino.
Balandroq bino.
Eng baland bino.

Bilib oling.

Predmetlardagi belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajalari** deyiladi. Masalan: *baland uy, balandroq uy, juda baland uy.*

Sifat darajalari uch xil bo'ladi.

1. Oddiy daraja: *shirin qovun.*
2. Qiyosiy daraja: *shirinroq qovun.*
3. Orttirma daraja: *juda shirin qovun.*

189-mashq. Matnni o'qing. Sifatlarni o'zi bog'langan otlar bilan birgalikda ko'chiring va darajalarini aniqlang.

TOSHKENT



Toshkent juda katta va obod shahar. Uning ko'chalari keng va chiroyli. Toshkentdagi eng katta ko'chalardan biri Navoiy ko'chasidir. Bu ko'chadan Mustaqillik maydoniga boriladi. Bu maydon juda chiroyli. Bu yerda ko'm-ko'k o'tloq va dam olish joylari bor. Har yili bu maydonda bolalar uchun ulkan archa o'rnatiladi. Bolalarimizning ertangi kuni bugunidan baxtliroqdir.

190-mashq. *O'qing. Sifat darajalarini aniqlang.*

1. Issiq quchog'ingda ungan paxtazor,
Eng baland hosil bilan topdi e'tibor.
Daryolar mazmuni mazmuningga zar,
Shu obro', shu viqor – bari seniki!

G'afur G'ulom

2. Zokir odobli bola. U oiladagi eng katta o'g'il.
Zokirning katta-kichik aka-ukalari bor. Zokir ota-onasini
va aka-ukalarini juda hurmat qiladi. Ukalariga turli

chiroyli o'yinchoqlar yasab beradi. Zokir maktabda a'lochi o'quvchi hisoblanadi. Ukasi ham yaxshi o'qiydi. Oiladagi hamma bolalar bundan ham yaxshiroq o'qishga harakat qiladilar.

Sifatlarni o'zi bog'langan otlar bilan birga ko'chiring.

Oddiy daraja

191-mashq. *O'qing. Berilgan so'z birikmalaridan gap tuzib yozing. Sifatlarning darajasini aniqlang.*

Yaxshi bola, oq paxta, katta bino, sariq qalam, go'zal Vatan, shirin meva, nordon olma, toza havo.

192-mashq. *O'qing. Bu belgilar yordamida so'z birikmalari tuzing. Bunday belgilar nimalarda bo'lishi mumkin? Istagan so'z birikmasini qatnashtirib gap tuzing.*

Qizil nima? – olma, anor, gilos, ro'mol.

Uzun nima? – _____, _____, _____.

Sariq nima? – _____, _____, _____.

Keng nima? – _____, _____, _____.

Qalin nima? – _____, _____, _____.

Katta nima? – _____, _____, _____.

Yumshoq nima? – _____, _____, _____.

Esda tuting.

Oddiy daraja predmetning belgisini to'g'ridan-to'g'ri bildiradi. Masalan: qizil, qora, aqlli, qari, yosh, katta.

193-mashq. *O'qing. Berilgan otlarning belgilarini yozing.*

Limon qanday? – sariq, nordon, suvli, katta.

Anor qanday? – _____, _____, _____.

Uy qanday? – _____, _____, _____.

Bog' qanday? – _____, _____, _____.

O'quvchi qanday? – _____, _____, _____.

Sinf qanday? – _____, _____, _____.

Kitob qanday? – _____, _____, _____.

Suv qanday? – _____, _____, _____.

194-mashq. *Topishmoq va maqolni o'qing. Ko'chiring, sifatlarning tagiga chizing.*

1. Ko'k beqasam to'nim bor,
Ichim baxmal lolazor,
Mazam shirin, go'yo qand,
Meni yegan tortmas dard.
2. Kengashganga keng maydon,
Talashganga tor maydon.

195-mashq. *O'qing. Quyidagi sifatlarni ko'chirib yozing. Predmetning qanday belgisini bildirishiga ko'ra ularni guruhlarga ajrating.*

Baland, shirin, qattiq, chaqqon, qora, uzun, yumshoq, nordon, xushchaqchaq, oq, tor, toshdek, taxir, epchil, qizil, achchiq, mayin, bo'sh, eski, chiroyli, yaqin, keng, katta, uzoq, go'zal, ko'k, zangori, kulrang, jigarrang, havorang, qalin, obod, qoloq, issiq, yorug', nurli, suvli.

196-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga sifatlardan mosini qo'yib matnni ko'chiring.*

ARCHA

... tog'ning o'rta qismida archalar o'sadi. Archalar ko'pincha ... joylarda uchraydi. Archa xo'jalikning... tarmoqlarida ishlatiladi. Archadan ... hid anqib turadi. Hozirda archa ... holda ming yillab yashab kelmoqda. Archani... dala va bog'larga ekilsa, juda yaxshi bo'ladi.

Qo'yish uchun so'zlar: *manzarali, yuksak, turli, keng, tabiiy, xushbo'y.*

197-mashq. O'qing. Quyidagi predmetlarning barcha belgilarini yozing. Ular haqida topishmoqlar ayting.



198-mashq. Berilgan sifatlarga ma'no jihatdan o'xshash sifatlarni topib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing va ularni tahlil qiling.

N a m u n a: *Toza – tiniq, sof.*

siyrak –	shod –
chiroyli –	ulkan –
dangasa –	ozg'in –
go'zal –	dag'al –

199-mashq. Berilgan sifatlarga ma'no jihatdan qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni yozing.

Jasur – qo'rqqoq
mehnatkash –

qotma –
baland –

ravshan –
qizil –
guldor –

keng –
qalin –
ko'rkam –

200-mashq. Birdan ortiq so'zdan tuzilgan sifatlarning yasalishiga e'tibor bering.

Qimmatbaho yodgorlik, ertapishar shaftoli, oltinrang xazon, katta-kichik bolalar, ola-bula quyon.

201-mashq. Berilgan savollarga javob yozing. Javobingizda albatta sifat qatnashsin.

1. Qanday fasl keldi? 2. Bahor faslining belgilari qanday? 3. Dehqonlar qanday ishlaydilar? 4. Bahorda o'quvchilar nima qiladilar? 5. Bahorda bog'lar qanday bo'ladi? 6. Mevalar qanday rangda gullaydi? 7. Bahordan siz qanday taassurot olasiz?

taassurot

Qiyosiy daraja

Rasmlarni kuzating. Predmetlarning belgilarini bir-biri bilan taqqoslang.




1. Bu sigir.
Bu buzoq.
Sigir buzoqdan kattaroq.



2. Qirda tipratikan yurar edi.
Uning yoniga kichikroq tipratikan kelib qoldi.



3. Karim bilan Rustam bir sinfda o'qiydi. Karim Rustamdan balandroq Rustam Karimdan pastroq.



4. Hovlida jajji jo'jalar donlab yurardi. Jo'jalar oldiga kattaroq jo'ja kelib qo'shildi.

202-mashq. *Ko'chirib, sifatlarning tagiga chizing. Ularning darajasini ayting.*

1. Vatanimizning bu kuni chiroyli, ertasi yana ham chiroyliroq bo'ladi.
2. Musicha kaptardan kichikroq.
3. Toshkent Samarqanddan kattaroq shahar.

Bilib oling.

Qiyosiy daraja bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiq ekanligini ifodalaydi. U solishtirish, taqqoslash yo'li bilan yasaladi. Masalan: *Bu xona narigi xonadan kattaroq. Oltin kumushdan og'irroq.*

Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga **-roq** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *yaxshi – yashiroq, katta – kattaroq.* **-roq** qo'shimchasi ba'zan **-rog'** tarzida aytiladi, ammo har vaqt **-roq** yoziladi. Masalan: *yorqinroq, go'zalroq.*

203-mashq. Berilgan qiyosiy darajadagi sifatlarni qatnashtirib gap tuzing va yozing.

Odobliroq, osonroq, yangiroq, sovuqroq, sho'xroq, oppoqroq.

N a m u n a: Shimolda qish janubdagidan sovuqroq bo'ladi.

204-mashq. Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlarni topib yozing.

Eskiroq – yangiroq

Qo'rqoqroq –

Kichikroq –

Yaqinroq –

Shirinroq –

Balandroq –

Sovuqroq –

Uzunroq –

Dangasaroq –

Chaqqonroq –

Go'zalroq –

Qalinroq –

205-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib, matnni o'qing va ko'chiring.

G'azalkent qishlog'i shahardan anchagina ... joylashgan. Qishloq o'rtasidan ... anhor oqib o'tadi. G'azalkentda ... uylar ham qurilmoqda. Qishloqning ... joylari ham elektr chiroqlari bilan yoritilgan. Bu yerda yashayotgan insonlar turmushi ... ko'rinadi. Hali qishloqda ... maktablar mavjuddir.

Qo'yish uchun so'zlar: farovonroq, eskiroq, kichikroq, yaqinroq, balandroq, uzoqroq.

206-mashq. Berilgan qiyosiy darajadagi sifatlarga mos otlar toping va yozing.

Kattaroq nima? – olma, uy, maktab, hovli.

Ingichkaroq nima? –

Kichikroq nima? –
Qisqaroq nima? –
Sovuqroq nima? –
Kengroq nima? –
Shirinroq nima? –
Dangasaroq nima? –
Balandroq nima? –
Yangiroq nima? –

207-mashq. *Rasmlarni kuzating. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Hosil bo'lgan gaplar va rasmlardan foydalanib kichik hikoya yozing.*

Kichikroq ariq,
ensizroq ko'prik,
biri oq, biri
qoraroq echki.

Qaysarroq echki,
urishqoqroq echki,
muzdekroq suv.



Hikoyadagi sifatlarni aniqlang va tahlil qiling.

208-mashq. *Berilgan predmetlarga mos belgilarni yozib chiqing. Ular ishtirokida 4 ta gap tuzing.*

Nok qanday? – kattaroq, shirinroq, maydaroq, xomroq.
Yo'l qanday? –
Uy qanday? –
Tog' qanday? –

Ot qanday? –
Tarvuz qanday? –
Kitob qanday? –
Qaychi qanday? –

209-mashq. *Juft holda berilgan predmetlarni bir-biriga qiyoslab chiqing.*

Namuna: Sigir buzoqdan kattaroq, balandroq. Buzoq sigirdan kichikroq, pastroq.

Sigir-buzoq, kuchuk-mushuk, ayiq-bo'ri, shahar-qishloq, kitob-daftar, kosa-piyola, echki-qo'y, behi-olma, olcha-gilos, o'rik-shaftoli, olma-anor.

210-mashq. *She'rni o'qing, sifatlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

Ilm yoritdi yo'limizni,
Baland qildi qo'limizni,
Obod qildi elimizni,
Biling baxtli avlodlarim.

Orttirma daraja

211-mashq. *Rasmlarni kuzating.*



1. Baliqchining qarmog'iga juda katta baliq ilindi.
2. Bog'imizdagi olmalar ichida eng shirini oq olmadir.
3. O'tloqdagi eng katta ona qo'y bolalarini boshlab, podadan ajralib qoldi.

Gaplarni o'qing, sifatlarni ajratib, rasmlarga solishtiring. Gaplarni ko'chirib, sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Bilib oling.

Orttirma daraja predmetdagi biror belgining boshqa predmetdagi shu belgidan o'ta ortiqligini, ko'pligini ko'rsatadi. Orttirma daraja oddiy darajadagi sifatlardan oldidan **eng, juda, g'oyat(da), nihoyat(da)** so'zlarini keltirish bilan yasaladi: *eng yaxshi, g'oyat zo'r, juda shirin, nihoyatda baland.*

212-mashq. *Berilgan sifatlardan orttirma darajali sifat yasang.*

Baland uy – eng baland uy, juda baland uy.

Kichik shahar –

Go'zal qiz –

Keng dala –

Tor ko'cha –

Shirin tarvuz –

Sariq behi –

Qiziq kitob –

213-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Orttirma darajadagi sifatlarning tagiga chizing.*

Samarqand eng katta va chiroyli shaharlardan biri. U juda qadimiy shahar. U yerda juda katta tarixiy obidalar

bor. Samarqandda mashhur allomalar, olimlar ko'p. Bu shaharga juda ko'plab mehmonlar tashrif buyuradi.

214-mashq. *She'rni ifodali o'qing. Undagi sifatlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

A. Ko'chimov

TEZROQ YANGRA, QO'NG'IROQ!

Biz dunyoda eng quvnoq,	O'qiymiz faqat beshga,
Eng baxtiyor bolalarmiz.	O'ynaymiz quvnab, kulib,
Tezroq yangra, qo'ng'iroq,	Va o'samiz Vatanga
Biz maktabga boramiz.	Munosib farzand bo'lib.

215-mashq. *O'qing. Berilgan orttirma darajadagi sifatlarga mos otlar toping.*

Juda baland nima? – tog', cho'qqi, terak, uy, devor.

Eng kichkina nima? –

Juda shirin nima? –

Eng mazali nima? –

G'oyat go'zal nima? –

Nihoyatda ozoda nima? –

Juda katta nima? –

Eng katta nima? –

216-mashq. *Topishmoqlarni o'qing. Ularni belgilariga ko'ra toping.*

1. Tumshug'i juda kuchli,
Tirnog'i o'tkir, uchli,
Teshib daraxt po'stini,
Qirar uning qurtini.

2. Qushimning bo'yi g'oyat novcha,
Tumshug'i-chi tarnovcha,
Juda uzun oyog'i,
Ola-bula har yog'i.

217-mashq. O'qing. Berilgan sifatlardan orttirma darajali sifatlar yasab, ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Katta, qizil, yaqin, yashil, xom, qora, ko'k, qisqa.

218-mashq. O'qing. Berilgan so'zlardan gap tuzib yozing va tahlil qiling.

1. Xiva, Buxoro, Samarqand, shaharlardandir, qadimgi, eng.
2. Tabiati, juda, rang-barang, Vatanimizning, ham.
3. Tog'larida, muzliklar, nihoyatda, bahaybat, bor.
4. Eng katta, kuchli, daraxtlarni, tebratadi, shamol, ham.

Sifatlarning yasalishi.

Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning yozilishi

Bilib oling.

Sifatlar quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi va turli ma'nolarni bildiradi.

Sifat yasovchi qo'shimchalar	Ma'nosi	Misollar
-li	1. O'zakdan anglashilgan narsaga egalikni bildiradi.	<i>Kuchli, bilimli, tikanli.</i>

-siz	Bu qo'shimcha o'zakdan anglashilgan predmetga ega emaslikni bildiradi.	<i>Bilimsiz, kuchsiz</i>
-gi, -ki, -qi	Bu qo'shimchalar predmetning payt yoki o'ringa munosabatini, xosligini bildiradi.	<i>Yozgi, kuzgi, qadimgi, tashqi, ichki.</i>
-k, -q, -iq, -uq	Predmetning biror tusga kirganini bildiradi.	<i>Quyuyq, suyuq.</i>
-iy, -viy	O'zakdan anglashilgan predmetga aloqadorlikni bildiradi.	<i>Ilmiy, hayotiy, ommaviy, zamonaviy, tarbiyaviy.</i>
-chan, -dor	Biror ish-harakat yo xususiyatning ortiqqligini bildiradi.	<i>Ishchan, kurashchan, sezuvchan, guldor.</i>
ser-, be-, ba-, bo-	O'zakdan anglashilgan narsa va holatning ortiqqligini bildiradi.	<i>Serhosil, bebaho.</i>
-chaq, -chak	Holat, harakat va xususiyatning ortiqqligini bildiradi.	<i>Maqtanchoq, tortinchoq, yalinchoq, erinchoq.</i>
-qir, -kir, -gir, -g'ir	O'zakdan anglashilgan harakat yoki holatning ortiqqligini bildiradi.	<i>Chopqir, olg'ir, keskir, sezgir.</i>

219-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Oy qop-qorong'i kechani yoritmoqda. 2. Sharofatda to'q zangori va to'q qizil ip bor. 3. Bahorda ko'm-ko'k dalalar juda orombaxsh bo'ladi. 4. Sap-sariq bug'doylarning yirik

boshoqlari tebranib turadi. 5. Jarning har ikkala tomoni qip-qizil lolalar bilan qoplangan.

orombaxsh

220-mashq. *O'qing. Sifatlarni tahlil qiling. Har bir so'zning o'zak va qo'shimchalariga e'tibor bering.*

Oq paxta – oppoq paxta.

Ko'k barg – ko'm-ko'k barg.

Qora ip, – qop-qora ip.

Yashil o'tloq – yam-yashil o'tloq.

Ishchan bola – mehnatsevar qiz.

Bulutli osmon – bulutsiz osmon.

Suvli olma – suvsiz behi.

Qorli tog' – qorsiz qish.

Qishki ta'til – yozgi ta'til.

Serhosil yer – unumdor tuproq.

Bilib oling.

Boshqa so'z turkumlaridan sifat yasaydigan qo'shimchalar sifat yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Masalan: *aql – aqlli bola, ish – ishchan qiz, kuz – kuzgi bug'doy.*

Bu so'zlarda **-li, -chan, -gi** yasovchi qo'shimchalar ot (*aql, kuz, ish*)larga qo'shilib, sifat yasaydi.

221-mashq. *Quyidagi gaplardan sifatlarni aniqlab, ularni ko'chiring. O'zak va qo'shimchalarning tagiga chizing.*

1. Shu qadar serma'no ona tilimsan. 2. Toshkentning keng ko'chalari atrofidagi ko'p qavatli binolar unga ko'rk bag'ishlab turadi. 3. Odamlar qizg'in mehnat va ijod bilan

mashg'ul edilar. 4. Uzunchoq naqshdor derazalardan oy o'z nurini sochib turibdi. 5. Ertalab yog'a boshlagan yomg'ir shiddatli jalaga aylandi. 6. Sirdaryo viloyatidagi suvsiz yerlarga suv chiqarildi.

222-mashq. *Nuqtalar o'rniga sifat yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.*

N a m u n a: aql... bola – aqli bola.

Kuz... ishlar, o't... pichoq, sez... ot, buz... ko'prik, och... eshik, sez... bola, bahor... ko'chat, baxt... bolalik, harakat... qiz, ...davlat kishi, muvaffaqiyat... yil, aql... odam.

223-mashq. *-oq, -qoq, -chak, -choq, -chiq, -iq, -uk, -uq qo'shimchalari yordamida quyidagi so'zlardan sifatlarni yasang.*

Yut..., yet..., titr..., yaltir..., tirish..., tuz..., erin..., qizg'an..., suyan..., bos..., ovun..., urish..., yopin... .

224-mashq. *Maqollarni o'qing. Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring, o'zak va qo'shimchalarni aniqlang.*

Aqli do'st – rohat,
Aqlsiz do'st – ofat.

Bevafo do'stdan tayoq yaxshi,
Bebahra guldan – tuproq.

Ginali do'st – adovatli dushman.

Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

Betashvish bosh qayda,
Mehnatsiz osh qayda.

Yozgi harakat – kuzgi barakat.

Bahorgi mehnat – qishki rohat.

225-mashq. *O'qing. Berilgan otlarga mos belgilarni ayting. Bunda faqat -li qo'shimchali sifatlardan toping.*

Olma qanday? – mazali, suvli.

Gul qanday? –

Kitob qanday? –

O'quvchi qanday? –

Qalam qanday? –

Quyosh qanday? –

226-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chirib, sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing. Sifat yasovchi qo'shimchani va so'rog'ini aniqlang.*

1. Intizomli lashkar yengilmas. 2. Odobli farzand – oila ko'rki. 3. Ilmli kishi xor bo'lmaydi. 4. Bahorda yoqimli shabada esadi. 5. Toza yurish yuqumli kasallikdan saqlaydi. 6. Maktabimiz bog'iga mevali daraxtlar o'tqazdik.

227-mashq. *O'qing. Berilgan sifatlarga mos so'zlar toping va yozing.*

Mevali ...

Sevikli ...

Vijdonli ...

Achinarli ...

Kuchli ...

Sezilarli ...

Gavdali ...

Yoqimli ...

Hurmatli ...

Ko'rimli ...

228-mashq. *Quyidagi savollarga javob yozing. Javobingizda -li qo'shimchali sifat bo'lsin.*

1. Siz qanday uyda yashaysiz? 2. Onangiz ovqatni qanday tayyorlaydi? 3. Qanday ovqat yaxshi bo'ladi? 4. Otalaringiz sizning qanday bo'lishingizni xohlashadi?

Qo'yish uchun so'zlar: *odob, maza, ko'p qavat, go'sht.*

229-mashq. *-siz qo'shimchali 6 ta sifat toping. Ulardan avval so'z birikmalari, keyin gaplar tuzing.*

Namuna: *tikansiz – tikansiz gul. Atirgul tikansiz bo'lmaydi.*

230-mashq. *O'qing. Berilgan sifatlarga mos so'zlar toping va yozing.*

Suvsiz ...

Odobsiz ...

Ko'priksiz ...

Intizomsiz ...

Daraxtsiz ...

Mevasiz ...

Quvvatsiz ...

Ekansiz ...

Ishsiz ...

Kuchsiz ...

Ovqatsiz ...

Ilmsiz ...

Baxtsiz ...

Unumsiz ...

231-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring. Sifatlarni aniqlab, o'zak va qo'shimchalarning tagiga chizing.*

1. Tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar bo'lmas. 2. Osmon g'uborsiz, bir parcha bulut yo'q. 3. Qo'l-oyoqsiz chopib tolmas, suvsiz aslo yashay olmas. (*Topishmoq*). 4. Bog'dagi zararli hasharotlarni yo'q qilish kerak.

232-mashq. *Topishmoqlar va maqolni o'qing. Ulardagi sifatlarni aniqlab, so'roq bering. Ko'chirib, sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
2. Olovsiz qaynab turar,
Qo'ling tiqsang kuymaydi,
Qishda ham qaynashini
Yozdagidek qo'ymaydi.
3. Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat.

Topishmoqlarning javobini toping.

233-mashq. *Berilgan sifatlarga mos otlar toping. Hosil bo'lgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzib, sifatlarni tahlil qiling.*

Yozgi nima? – ta'til, ko'ylak, oromgoh, vaqt.

Kuzgi nima? –

Qadimgi nima? –

Tashqi nima? –

Ichki nima? –

Tonggi nima? –

Kechki nima? –

Bahorgi nima? –

Ustki nima? –

Sirtqi nima? –

234-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring. -gi, -ki, -qi qo'shimchali sifatlarning tagiga chizing. Ularning yasalishiga e'tibor bering.*

1. Tonggi shabada esib turgan dalada dehqonlar paxta termoqdalar. 2. Hozir kechki qovunlarning ayni g'arq

pishgan payti. 3. Bahorgi harakat – kuzgi barokat. 4. Ko'm-ko'k tok barglari ertalabki quyosh nurida jilvalanadi. 5. Qishki ta'til kunlari o'quvchilar Samarqandga sayohatga bordilar.

235-mashq. *Qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring.*

1. Bizning bog'imizda kech (-gi, -ki, -qi) mevalar ham, erta (-gi, -ki, -qi) mevalar ham bor. 2. Bayram oldidan maktabning ich (-gi, -ki, -qi) yo'lagini bezatdik. 3. Ertalab (-gi, -ki, -qi) nonushtaga stolni yaxshilab bezatdik. 4. Bobom kechqurun qadim (-gi, -ki, -qi) rivoyatlardan so'zlab berdilar.

236-mashq. *-gi, -ki, -qi sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida 6 ta so'z toping. Ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing. So'ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.*

N a m u n a: qish – qishki ta'til. Biz qishki ta'tilga chiqdik.

237-mashq. *Berilgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.*

Adabiy kecha, ilmiy ish, zamonaviy kiyim, tarixiy yodgorlik.

238-mashq. *Quyida berilgan sifat va otlardan bir-biriga mosini tanlab, so'z birikmalari hosil qiling.*

Ilmiy, hayotiy, ommaviy, zamonaviy, tarixiy, badiiy, qadimiy, tarbiyaviy, madaniy, moviy.

Kitob, voqea, teatr, bino, so'z, shahar, ish, odam, osmon.

239-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Alisher Navoiy bizga boy _____ meros qoldirdi.
2. Har bir kishi o'z _____ taraqqiyoti uchun jamiyatdan minnatdor bo'lishi kerak.
3. _____ kitoblarni o'qish hayotni yanada chuqurroq bilishga undaydi.
4. Ra'no opamiz _____ ishlarni boshqaradilar.
5. Bizdagi olimlar har bir yangilikni _____ asosda isbotlab beradilar.
6. Biz qishki ta'til kunlarida _____ yodgorliklarni ko'rdik.

Qo'yish uchun so'zlar: *aqliy, tarbiyaviy, ilmiy, qadimiy, badiiy, adabiy.*

240-mashq. *-chan, -dor* qo'shimchali 6 ta sifat toping. Ulardan so'z birikmalari va gap tuzib yozing.

Namuna: *ish – ishchan bola. Karim sinfimizdagi eng ishchan bola.*

241-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Sifatlarni aniqlang. Ularning yasalishiga e'tibor bering.*

1. Mening ukam juda uyatchan bola.
2. Singlimga onam guldor gazlamadan yangi ko'ylak tikib berdilar.
3. Elmurod harakatchan o'quvchilardan biri.
4. Ko'p qavatli uylarning devorlariga guldor qog'oz yopishtiriladi.
5. Quyvon juda sezgir jonivor.

242-mashq. *Sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida sifat yasang. Ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing va yozing.*

Ilm, ko'klam, hosil, uyat, unum, ish, gul, meva, harakat, bilim, suv.

Istagan soʻz birikmasini qatnashtirib, toʻrtta gap tuzing va tahlil qiling.

243-mashq. *Oʻqing. Berilgan sifatlarga mos soʻzlar topib yozing.*

Ishchan kim? nima? – bola, qiz, ot, chumoli, chol.

Harakatchan kim? nima? –

Sezuvchan kim? nima? –

Uyatchan kim? –

Naqshdor nima? –

Guldor nima? –

Unumdor nima? –

Hosildor nima? –

244-mashq. *Oʻqing. Berilgan sifatlarga mos otlar topib, namunadagidek soʻz birikmalari tuzing.*

N a m u n a: sershox daraxt.

Sershox, bepoyon, nomaʼlum, serharakat, bexato, nohaq, begʻubor, notinch, betoqat, bebahra, noiloj, nooʻrin.

245-mashq. *Savollarni oʻqing javob bering. Javobingizda ser-, ba- be-, no- qoʻshimchali sifatlar qatnashsin.*

1. Siz qaysi respublikada yashaysiz? 2. Oʻqiyotgan maktabingizning atrofi qanday? 3. Siz yashayotgan joyingizning havosi qanday? 4. Sizning sinfingiz oʻquvchilari diktantni qanday yozishadi? 5. Hovlimizdagi ekin ekiladigan yer qanday? 6. Oʻzbekiston qanday oʻlka?

246-mashq. *Topishmoqlar va maqolni oʻqing. Koʻchiring. Belgilariga koʻra topishmoqlarni toping. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Erta-yu kech tinmaydi,
Qaynar, jo'shar beuyqu.
Ona yerning bag'ridan
Salom olib chiqar u.
2. Quvvatlari behisob,
Ichi juda sermazmun.
Uni o'qib, uqib ol,
Ko'rsatadi yo'l-yo'riq.
3. Bevafo do'stdan tayoq yaxshi,
Bebahra guldan yaproq yaxshi.

(Maqol)

Maqolning mazmunini aytib bering.

247-mashq. Berilgan so'zlarga mos sifat yasovchi qo'shimcha qo'shib, sifat yasang. Ulardan so'z birikmasi tuzing.

Qoch, top, sez, ol, chop, o't, uch, quv, kes.

Namuna: chopqir, chopqir ot.

248-mashq. -gir, -g'ir, -kir, -qir, yasovchi qo'shimchalar yordamida sifat yasab, shu sifatlar ishtirokida gap tuzing. Tuzgan gapingizni tahlil qiling.

249-mashq. Berilgan sifatlarga mos so'zlar topib yozing.

Topqir kim? – bola, qiz, o'g'il.

Sezgir nima? kim? –

O'tkir nima? –

Keskir nima? –

Og'ir nima? –

Uchqur nima? –

250-mashq. *Gaplarni o'qing, chiziqalar o'rniga mos sifatlarni qo'yib, ko'chiring.*

1. _____ chegarachilar o'z joylarida doim hushyor turadilar. 2. Otxonalarda _____ otlar alohida xonalarda boqiladi. 3. _____ yerlarda qolgan qor bahor quyoshida eriy boshladi. 4. Zamiraning _____ zehni Alisherni lol qoldirardi. 5. Lolaning mushukchasi kattalashib _____ bo'lib qoldi.

Qo'yish uchun so'zlar: *olg'ir, o'tkir, o'nqir-cho'nqir, sezgir, chopqir.*

251-mashq. *Nuqtalar o'rniga sifat yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring. So'z birikmalari hosil qiling.*

Kuz... _____, o't... _____, och... _____, sez... _____, bahor... _____, baxt... _____, tong... _____, harakat... _____, davlat... _____, muvaffaqiyat... _____, aql... _____, meva... _____.

252-mashq. *Ko'chiring, sifat yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

Baquvvat, ommaviy, ishchan, tuzsiz, xalqchil, harakatchan, serhosil, kuzgi.

Sifatlarga mos so'zlar topib, so'z birikmasi tuzing. Ikkita gap tuzib, tahlil qiling.

253-mashq. *-oq, -qoq, -choq, -chiq, -uk, -uq qo'shimchalari yordamida quyidagi so'zlardan sifatlarni yasang.*

Yut, yot, yaltir, tirish, tuz, erin, qizg'an, och, suyan.

254-mashq. *Quyidagi qo'shimchalarning har biri yordamida bittadan sifatlar yasang.*

ba-, be-, no-, ser-, bo-, -siz, -chan, -li.

255-mashq. *Quyida berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar topib ko'chiring.*

N a m u n a: *ishchan – dangasa.*

Bilimsiz, kuchsiz, kechki, unumsiz, badavlat, maqtanchoq, baquvvat, rahmsiz, sezgir, olg'ir, orli, erinchoq, katta, suvli, yaxshi, kuchli, baland, ertangi.

256-mashq. *Berilgan so'zlardan sifatlar yasang. Ularga mos otlar topib, so'z birikmalari tuzing. So'z birikmalari ishtirokida 3 ta gap tuzing va tahlil qiling.*

N a m u n a: *devor – devoriy – devoriy gazeta. Bizning sinf yangi yilga atab devoriy gazeta chiqardi.*

Devor, ilm, ko'ylak, ish, uyat, sabr, quvvat, hosil, sut, suv, meva, daraxt, aql, savlat.

257-mashq. *Berilgan sifatlarning o'zak va sifat yasovchi qo'shimchalarini ajratib yozing.*

N a m u n a: *aqlli – aql-li.*

Burma, chopqir, yaltiroq, ag'darma, olg'ir, qovurma, qochqoq, badavlat, erinchoq, besabr, serhosil, tarbiyaviy, maqtanchoq, tonggi, ilmiy, tortinchoq.

258-mashq. *O'qing. Matndagi sifatlarni so'roq orqali aniqlab, o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chiring.*

MAKTAB HOVLISI

Namuna: *katta (qanda y?) hovli*

Mana katta hovli. Bu hovli – maktab hovlisi. Maktab hovlisi keng, toza, chiroyli. Hovli atrofida ko‘m-ko‘k teraklar va mevali daraxtlar ko‘p. Hovlida sariq, qizil gullar ochilib turibdi. Maktabning kattagina sport maydonchasi bor. Tanaffusda quvnoq o‘quvchilar miriqib dam oladilar.

259-mashq. *Sifatlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.*

Badavlat, kuzgi, tim, katta-kichik, xushchaqchaq, yaltiroq, sezuvchan, baland, uzun, bebaho, bilimdon, yuksak, xalqaro, quvnoq, yoqimli, tor, qiziq, havaskor, serharakat.

260-mashq. *Topishmoqlarni o‘qing, belgilariga ko‘ra javobini toping. Ko‘chirib, sifatlarning tagiga chizing va tahlil qiling.*

1. Nima o‘ylab boq,
Qishda u oppoq,
Yoz bo‘yi kulrang,
Qulog‘i dakang.



2. Guli avval oq bo‘lar,
So‘ngra ko‘k rangga to‘lar.
Bora-bora qizarar,
Yaxshi ko‘rar bolalar.



3. Nimadir u tinmay yurar,
Biroq hech siljimag turar.



4. O'zi ildam va jimit,
Yungi bor qo'ng'ir, mayin,
Shoxdan-shoxga sakraydi
Ko'rinib milt-milt,
Chaqqon shundayin.



261-mashq. *O'qing. Berilgan sifatlarga yaqin ma'noli sifatlar tanlab, yonma-yon yozing.*

Namuna: *Ko'rkam, go'zal, ..., Ko'rkam bino, ko'rkam xiyobon. Shahrimizda ko'rkam binolar ko'p. Shahrimizda go'zal xiyobonlar ham juda ko'p.*

1. Ko'rkam, katta, kuchli, xushbo'y, ziyrak, shirin, sog'lom, orasta.

2. Hidli, toza, baquvvat, sezgir, ulug', mazali.

Sifatlarga mos otlar tanlab, so'z birikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

262-mashq. *Quyida berilgan predmet belgilarini guruhlarga ajratib yozing.*

Zilol, toza, issiq, yoqimli, baland, shifobaxsh, nordon, tor, chiroyli, yumshoq, ko'm-ko'k, qizil, keng, oq, shirin, chaqqon, havorang, ko'rkam, sezgir, qalin, uzun, mazali, kalta, qora.

263-mashq. *Gaplarni o'qing. Chiziqlar o'rniga tegishli sifatlarni qo'yib, ko'chiring.*

1. _____ bola elga manzur. (*Maqol*). 2. Biz _____ ertak o'qidik. 3. Men _____ asarlarni ko'p o'qiyman. 4. Dilshod _____ o'quvchi bo'lishni orzu qiladi. 5. Maktabimiz yonida _____ va _____ bog'imiz bor. 6. Ona Vatanimiz _____ va _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *obod, katta, qiziq, badiiy, odobli, namunali, keng, bepoyon.*

264-mashq. *Quyidagi so'z birikmalari ishtirok etgan gaplar tuzib, tahlil qiling.*

Namuna: *O'quvchilar faol o'qituvchini bayram bilan tabrikladilar.*

Keksa o'qituvchi, aqlli o'quvchi, chiroyli guldasta, ulug' shoir, kichkina in, mehribon tarbiyachi, jajji bolalar, katta sport zali, oq, qizil, sariq gullar.

265-mashq. *O'qing. Berilgan sifatlarni imlo qoidasiga muvofiq ko'chiring.*

Katta (katta), (ola) chipor, (och) sariq, egri (bugri), havo (rang), katta (kichik), ola (bula), (qo'y) ko'z, qing'ir (qiyshiq), (och) pushti, (tim) qora, ko'm (ko'k), mehmon (do'st), (to'q) qizil, kul (rang), (yam) yashil, (dum) dumaloq, vatan (parvar), bir (so'zli), kam (hosilli), rahm (dil), mayda (chuyda), tez (pishar), (shirin) so'z.

266-mashq. *O'qing. Chiziqlar o'rniga sifatlarning tushirilgan qismini topib qo'yib, imlo qoidasiga muvofiq yozing.*

Kul _____, tim _____, och _____, xalq _____, ola _____, katta _____, havo _____, qing'ir _____, parcha _____, xush _____, past _____, egri, _____ yelpi, turli _____, to'q _____, nim _____, _____ manzara.

267-mashq. Berilgan oddiy darajadagi sifatlarni qiyosiy va orttirma darajalarga qo'yib, so'z birikmalari tuzing.

Shirin, nordon, uzun, qalin, yoqimli, ishchan, quvnoq, hushyor, vijdonli, ziyrak, chaqqon, katta.

268-mashq. Namunadan foydalanib, daraxt, xalq, kitob, bino, do'st, dushman so'zlariga mos sifatlarni topib yozing.

N a m u n a: Vatan qanday? – jonajon, bepoyon, go'zal, mustaqil.

269-mashq. Topishmoqlarni o'qing va javobini toping. Ko'chiring, sifatlarning tagiga chizing. Ularni tahlil qiling.

1. Tog'dan tushsa shaldirar,
Oyna kabi yaltirar,
O'zi juda ham suyuq,
Sovuqda bo'lar quyuc.
2. Issiqdan uchar, qochar,
Ariqdan tez-tez chopar,
Oyoqlari sap-sariq,
Uning sevgani ariq.
Sho'ng'ib-sho'ng'ib suzadi
Xoh qorong'u, xoh yorug'.

270-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarning tuzilishiga e'tibor bering. Sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chirib yozing.

1. **Mayin** shamol esdi. 2. Qishlog'imizda **katta** tokzor bor. 3. **Suvsiz** yerlarga suv chiqarildi. 4. Uzoqdan **quvnoq** bolalarning ovozi eshitildi. 5. Biz **serquyosh** O'zbekistonda yashaymiz. 6. Nilufarning onasi **guldor yangi** ko'ylak olib keldi. 7. Onam stolga **gulli** dasturxon yozdi. 8. Sinfimizda **a'lochi** o'quvchilar ko'p. 9. Hamma o'quvchilar maktabga **havorang** ko'ylakda keladilar. 10. Karimning quyonlari **kulrang** va **momiq**.

271-mashq. *O'qing va ko'chirib yozing. Shu sifatlar ishtirok etgan ikkita gap tuzing va yozing.*

Sharafli, kuchsiz, tashqi, shirin, kuzgi, uzoq, chaqqon, sezuvchan, sariq, serdaraxt, taxir, begunoh, baland, qora, dumaloq, noaniq, bebaho, yumshoq, ilmiy.

272-mashq. *Berilgan otlardan sifatlar yasang. Ulardan so'z birikmalari tuzib yozing.*

N a m u n a: Bilim – bilimli kishi.

Bilim, hosil, ov, gul, baliq, ish, temir, puch, meva, darvoza, tuz.

273-mashq. *Ko'chiring. Sifatlarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Yoz issiq, qish sovuq. 2. Paxta yumshoq, taxta qattiq. 3. Sut suyuq, qaymoq quyuk. 4. Suv tiniq, havo sof.

274-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan otlarga mos sifatlar topib, yozing.*

_____ bino

_____ kitob

_____ televizor

_____ bog'

_____ gul

_____ o'yinchoq

_____ bulut

_____ olma

_____ ovqat

_____ o'quvchi

275-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni yozing. Sifatlarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Bugun _____ yilni qutlamoqdamiz. 2. Bolalar _____ bo'lmoqdalar. 3. Maktabimizda _____ archa yasatilgan. 4. Archada _____ o'yinchoqlar osilib turibdi. 5. Bayramga _____ qorbobo, _____ qorqiz keldi. 6. Ular bolalar bilan _____ ashula aytib, _____ o'yinga tushdilar.

Qo'yish uchun so'zlar: *yangi, xursand, katta, rangli, keksa, sho'x, chiroyli.*

276-mashq. *Berilgan sifatlarga yaqin ma'noli sifatlarni topib yozing.*

Xursand – shod, xushchaqchaq.

Qahramon –

Tiniq –

Dangasa –

Epchil –

Qotma –

277-mashq. *O'qing. Ko'chiring va sifatlarni aniqlang.*

P. Mo'min

GUL KO'TARGAN QIZALOQ

Gul ko'tarib boradi

Uyi tomon qizaloq,

Guldastasi rang-barang,

Yashil, pushti, qizil, oq.

Bir olam zavq dilida,

Shoshilib-shoshilib boradi.

Boshqa yo'lovchilardan,

Oshib-oshib boradi.

278-mashq. *Berilgan sifatlar ishtirokida gap tuzing.*

Chiroyli, sutli, toza, yangi, sershox.

279-mashq. *O'qing. Topishmoqlardan sifatlarni aniqlang va mazmunini tushuntiring.*

1. Birlashtirib kiyimni,
Issiq tutadi sizni.
2. O'zim silliq tayoqman,
Keksalarga yoqaman.
3. Tanga-tanga to'ni bor
Mittigina ko'zi bor,
Yursa suvlar jimirlar.
Qamishlar ham qimirlar.
4. Bo'lar sariq yo qizil,
Yer tagida yetilar.
Tupida yakka hosil,
Sochi yashil selkillar.

(Topishmoqlarning javobi: *tugma, hassa, baliq, sabzi*)

280-mashq. *Berilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib gap tuzing. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Qizdirdi, kuchli, quyosh, yerni.
2. Yoqimli, sayradi, bulbul, bog'larda.
3. Gullardan, yasadik, guldasta, katta.
4. Fabrikadagi, ilg'or, ishchi, onam.
5. Qizil, sariq, oq, ochildi, bahorda, gullar.
6. Sof, shahar, havosi, kishilar, bo'lsa, bo'ladi, sog'lom.

281-mashq. Rasmdagi narsa-buyum nomlarining belgilarini guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: Olma – qizil, dumaloq, shirin, suvli.



282-mashq. Berilgan so'z birikmalaridan gap tuzing. Sifatlarni aniqlang.

Odobli o'quvchi, qorli tog', serquyosh o'lka, qiziqarli kitob, yorug' sinf, keng ko'cha.

283-mashq. Berilgan so'z birikmalaridagi sifatlarni aniqlang. Ularning tuzilishiga e'tibor bering.

Oq ko'ylak	Qizil ko'ylak	Och pushti ro'mol
Oq ip	Qizil ruchka	Och pushti gul
Oq qog'oz	Qizil olcha	Och pushti qalam
Oq gazlama	Qizil gilos	Och pushti ko'ylak
Oq choynak	Qizil olma	Kulrang palto
Oq bo'r	Qizil ro'mol	Kulrang etik

284-mashq. Berilgan sifatlarning qanday yozilishini bilib oling.

Och sariq, och ko'k, och pushti, ko'p xonali, pushtirang, moshrang, teng tomonli, xushchaqchaq, ochiq ko'ngil, xushbo'y, nim pushti, liq to'la.

Shu sifatlarga mos otlar topib, ko'chiring.

285-mashq. *O'qing. Berilgan gaplardagi sifatlarni aniqlang va ularni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.*

1. G'o'za shoxlari oqish, pushtirang gullar bilan bezangan.
2. Bizni 15–16 yoshli qorako'z qiz kutib oldi.
3. Asalxon boshiga havorang durrasini o'rab oldi.
4. Bog'imizga och pushti va novvotrang atirgul ko'chatlari o'tgazdik.
5. Moviy osmonda kulrang bulutlar sayr qilmoqda.

durra

286-mashq. *Chiziqalar o'rniga sifatlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. O'rmonda _____ bo'ri ko'rindi.
2. Hovlimizdagi _____ shaftoli hosilga kirdi.
3. Rustam _____ musobaqaga qatnashdi.
4. Men buvimning uylariga _____ yo'l bilan bordim.
5. Elmurod _____ bola.

Qo'yish uchun so'zlar: *sofdil, ertapishar, yolg'iz-oyoq, kulrang, tumanlararo.*

287-mashq. *Qavslarni ochib, sifatlarni qoidaga muvofiq ko'chirib yozing.*

Kul (rang), oyoq (yalang), chala (savod), qimmat (baho), xush (fe'l), qora (ko'z), xush (bichim), erk (sevar), omma (bop), mosh (rang), yolg'iz (oyoq), sof (dil), bug'doy (rang).

288-mashq. Quyida berilgan sifatlarni qatnashtirib gap tuzing va yozing.

Mehnatsevar, oliyjanob, rahmdil, oqko'ngil.

289-mashq. Berilgan so'zlarni o'z o'rnida qo'llab, gaplar tuzing.


1. Bulutlar, qoplangan, bilan, osmon, kulrang.
2. Tingladik, biz, salomatlik, tuman, boylik, haqida, ma'ruza. 3. Xalqimiz, tinchliksevar, kuchlar, uchun, g'alabasi, intilmoqda. 4. Mashina, binafsharang, to'xtadi, bino, oldida.

Sifatlarning tagiga chizing.

290-mashq. Berilgan sifatlarni ishtirokida gaplar tuzing.

Shalpangquloq, diqqinapas, qattiqqo'l, uzunquloq.

291-mashq. Rasmlarni kuzating. Ularning nomini va barcha belgilarini yozib chiqing. Sifat turlarini aniqlang.



292-mashq. *She'rni o'qing, yod oling. She'rdagi sifatlarni aniqlang.*

P. Mo'min

NON AZIZ – ENG HALOL

Non aziz – eng halol.
Non serob – bermalol,
Bo'lmagil xomxayol,
Bo'lmasin non uvol,
Uvog'in terib ol!

Dasturxon bezagi,
Eng zurur – keragi,
Dehqonning yuragi,
Bo'lmasin non uvol,
Uvog'in terib ol!

Bug'doydir onasi,
Oltin har donasi,
Oftobning bolasi.
Bo'lmasin non uvol,
Uvog'in terib ol!

Non rizqu ro'zimiz,
Non obro'-yuzimiz,
Asli chin so'zimiz:
Bo'lmasin non uvol,
Uvog'in terib ol!

293-mashq. *O'qing, sifatlarni ko'chirib yozing. Ularning qanday yozilishini esda tuting.*

Mayda-chuyda, achchiq-chuchuk, egri-bugri, madaniy-maishiy, ola-bula, lo'ppi-lo'ppi, marjon-marjon, katta-yu kichik, yakka-yu yagona, shod-u xurram, yirik-yirik.

294-mashq. *Gaplarni ko'chirib yozing, sifatlarning tagiga chizing.*

1. Uzoq-uzoqlardan terimchi yigit-qizlarning sho'x-sho'x yallasi yangraydi. 2. Ekskavator past-baland yerlarni tekisladi. 3. Chiroyli, rang-barang gullar gulzorning husniga husn qo'shib turibdi. 4. Erta bahorda iliq-issiq kunlar boshlanadi. 5. Sinfimizga katta-katta derazalardan yorug'lik tushib turadi. 6. Zalning eshigi ochilishi bilan katta-yu kichik bolalar kirib kelishdi.

295-mashq. *O'qing, sifatlar ishtirok etgan quyidagi so'z birikmalaridan gaplar tuzing.*

Baland-baland tog'lar, lo'ppi-lo'ppi paxtalar, bilinar-bilinmas izlar, sho'x-shodon bolalar.

ekskavator

296-mashq. *She'rni o'qing, sifatlarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.*

1. Yangi-yangi orzular
Bilan tepar yuragim,
Ulkan-ulkan ishlarni
Qilmoq mening tilagim.

H. Rahmat

2. Keldi yana yangi yil,
Yozildi keng dasturxon,
Bolalar totuv-ahil,
O'tirishar shod-xandon.

Ilyos Muslim

297-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib ko'chiring.*

1. Biz hayvonot bog'ida _____ hayvonlarni tomosha qildik.
2. _____ kuz fasli boshlandi.
3. Bahorda – devorlar tagida _____ qumursqalar o'rmalaydi.
4. Zarqishloqning – ko'chalarida, bog'larida _____ ko'klam namoyishi kezadi.
5. Bog'lar _____ gullarga burkangan.

Qo'yish uchun so'zlar: *turli-tuman, to'kin-sochin, baland-baland, katta-kichik, rang-barang.*

qumursqa

298-mashq. O'qing. Matndagi sifatlarni toping. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

OLMA DARAXTI

Bog'imizda katta olma daraxti bor. Uning ildizlari yer tagiga chuqur kirgan. Olmaning yashil barglari bir-biri bilan so'zlashayotgandek shitirlab turadi. Qishda katta-kichik olma daraxtlari yalang'ochlanadi. Uning uzun-kalta shoxlarida jigarrang kurtakchalar paydo bo'ladi. Bahor kelishi bilan ildizchalar asta-sekin nam yerdan oziqlana boshlaydi. Bu oziq tanadan yugurib, shox va shoxchalarga tarqaladi. Ba'zi bir kurtaklarda yashil barglar, ba'zilarida esa nim pushti gullar ko'rinadi. Ular asta-sekin to'kilib, o'rnida kichik g'o'ralar paydo bo'ladi.



299-mashq. *She'rni ifodali o'qing, ko'chiring. Sifatlarni aniqlang.*

P. Mo'min

YAXSHI BO'LING

Kim, falonchi, to'polonchi
Demasinlar,
Yaxshi bo'ling, yomon baho
Bermasinlar,
Yaxshilarning yo'lin tuting
Hozirdanoq.
Yaxshi bola do'stlari-la
Doim inoq,
Yurish-turishi, so'zlarida
Odob bo'lar,
Odoblilar elga manzur
Odam bo'lar.

300-mashq. *O'qing. Sifatlarni toping va ularni tegishlicha belgilang.*

1. Men o'g'limning ongli, pok vijdonli va or-nomusli bo'lishini istardim. 2. Har bir inson mehr-shafqatli, haqiqatparvar, odamshavanda, quvnoq, sho'x bo'lishi kerak. 3. Maktab bog'iga katta-kichik ertapishar olma daraxtlari ekdik. 4. Baland tog'dan tiniq suv mayda toshlarni shaqirshuqur qilib oqizib keldi.

301-mashq. *O'qing. So'zlarni ko'chiring. 2 ta gap tuzing.*

Yoqimli, toza, sersuv, shirinso'z, olis-yaqin, kamquvvat, shirin, tuzsiz, oqko'ngil, yaqin-yiroq, kuzgi, sof, uzun tolali, tiniq, tanish-notanish, katta, vijdonli, o'rta yosh, yetar-yetmas, o'tkir, tezoqar, diqqinafas, toshbag'ir.

Sifatni tahlil qilish tartibi

1. Qaysi so'roqqa javob bo'ladi?
2. Gapdagi qaysi so'z bilan bog'langan?
3. Gapdagi vazifasi.
4. Sifatning qaysi darajasi?
5. Qaysi qo'shimcha yordamida yasalgan?

Tahlil namunasi.

Alpinistlar eng baland cho'qqiga chiqdilar. – eng baland – sifat, qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, ikkinchi darajali bo'lak, orttirma daraja.

Topshiriq

1. Qanday so'z turkumiga sifat deyiladi?
2. Sifatning gapdagi vazifasini aytib bering.
3. Sifat darajasi deganda nimani tushunasiz? Sifat darajalarini misollar bilan tushuntiring.
4. Sifat otdan nimalar bilan farqlanadi?

SON – SO‘Z TURKUMI

302-mashq. *O‘qing. So‘roqlar yordamida predmetning sanog‘ini bildirgan so‘zlarni aniqlang.*

MUSICHA

Musicha – beozor qush. U uylarning bo‘g‘otiga, otxona, saroy va daraxtlarga in qo‘yadi. Tuxumini o‘n besh kun bosib yotadi. Jo‘jalari yigirma kundan keyin uchirma bo‘ladi. Musicha bir yilda to‘rt yoki besh marta bola ochadi. U erta tongdan kechgacha ovqat qidirib yuradi. Musicha qishda ham bizning sharoitda yashayveradi.

Sonlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birgalikda yozing va tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

303-mashq. *O‘qing. Avval qancha? yoki nechta? so‘rog‘iga, keyin nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan sonlarni aniqlang.*

BIZNING SINFIMIZ

Biz oltinchi sinfda o‘qiymiz. Sinfimiz keng va yorug‘. Sinfimizda o‘nta parta, bitta stol va bitta stul bor. Sinfimizning burchagida bitta shkaf bor. Bu shkafda daftar, kitob, ruchka va boshqa o‘quv qurollari saqlanadi. Biz o‘quv qurollarini tartib bilan saqlaymiz.

Har bir partada ikkitadan bola o‘tiradi. Men o‘rtog‘im Habibulla bilan to‘rtinchi partada o‘tiramani. Biz sinfimizni doim ozoda tutamiz. Sinfimizda o‘n ikkita o‘quvchi bo‘lib, ikki guruhga bo‘lingan. Men ikkinchi guruhdaman. Bizning sinfimiz o‘quvchilari ahil va do‘stdir.

Bilib oling.

Shaxs va narsalarning sanog'ini bildirgan so'zlar **son** deyiladi. Sonlar *necha?*, *nechta?*, *qancha?* so'roqlariga javob bo'ladi: *nechta?* (daftar) – *o'nta daftar*, *necha?* (kun) – *uch kun*. *Uch*, *besh*, *o'n* sonlari **sanoq sonlardir**.

Sonlar predmetlarning joylashish tartibini ham bildirib, *nechanchi?* so'rog'iga javob bo'ladi: *nechanchi?* (sinf) – *beshinchii sinf*, *nechanchi?* (qavat) – *ikkinchi qavat*. *Beshinchi*, *ikkinchi*, *sakkizinchi* sonlari **tartib sonlardir**.

Sanoq sonlarga *-inchi* (*-nchi*) qo'shimchalarini qo'shish bilan tartib sonlar hosil qilinadi: *oltmish* – *oltmishinchi*, *to'qqiz* – *to'qqizinchi*.

304-mashq. *So'roqlar o'rniga berilgan sonlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Namuna: Men kutubxonadan ikkita kitob oldim.

1. Men kutubxonadan (nechta?) kitob oldim. 2. Bir yilda (nechta?) fasl bor. 3. Saida (nechta?) varaq daftarga yozilgan arizani ko'zdan kechirdi. 4. Ukamning maktabidan (nechta?) o'quvchi teatrqa borishdi.

Qo'yish uchun so'zlar: *ikkita*, *to'rtta*, *bitta*, *o'ttiz uchta*.

305-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan sonlarning so'rog'ini yozing.*

Bir – ? Sakkizinchi – ? Yettinchi – ? Oltita – ? To'qqiz – ?
Uchinchi – ? O'n bir – ? Ellik yetti – ?

306-mashq. *Quyidagi sonlarni tartib sonlarga aylantiring va soʻz bilan yozing.*

2, 4, 7, 8, 3, 1, 9, 10

Esda tuting.

Sonlar aytiladi va yoziladi. Sonlar ikki xil yoziladi: harf bilan: *uch soat, besh kishi*; raqam bilan: *3 soat, 5 kishi*.

Tartib sonlar raqam bilan yozilganda **-inchi, -nchi** qoʻshimchasi oʻrnida chiziqcha (-) ishlatiladi:

Sakkizinchi sinf, 9-sinf, qirqinchi xonadon, 40-maktab.

307-mashq. *Sonlarni raqam bilan yozib koʻchiring.*

Birinchi maktab, ikkinchi guruh, uchinchi sinf, yigirmanchi asr, oltinchi qator.

308-mashq. *Nuqtalar oʻrniga berilgan otlarga mos tartib sonlar topib, qoidaga muvofiq yozing.*

... sinf, ... guruh, ... qavat, ... oʻrin, ... uy, ... maktab, ... doʻkon, ... sahifa, ... qator, ... darvoza.

309-mashq. *Oʻqing. Tartib sonlarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda yozing.*

TARJIMAYI HOL

Men, Rustam Kamolov, 2002-yil 12-avgustda Andijon shahrida tugʻildim. Otam shahrimizdagi 18-maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlaydilar. Onam 8-bolalar kasalxonasida hamshira boʻlib ishlaydilar.

Men 2009-yil 4-maktabning 1-sinfiga o'qishga bordim. Hozir 6-sinfda o'qiyapman. Sinfirmizdagi hamma o'quvchilar – a'lochi.

310-mashq. *Tartib sonlarni raqam bilan yozib ko'chiring.*

1. Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari gullarni parvarish qilmoqdalar. 2. Maktabimizda o'nta devoriy gazeta muntazam chiqib turibdi. 3. Jismoniy tarbiya darsida uchtadan bo'lib yugurdik. 4. Mening do'stim musobaqada birinchi o'rinni egalladi. 5. Singlim uchinchi sinfda o'qiydi. 6. Dugonam Forobiy ko'chasidagi sakkizinchi uyda turadi.

Qo'shma sonlar

311-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan sonlar nechta so'zdan tuzilganini ayting.*

1. Men Toshkentdagi **o'n oltinchi** maktabda o'qiyman. Bizning sinfirmizda **o'n sakkizta** o'quvchi bor. 2. Mart oyi **o'ttiz bir** kun. 3. Bahorgi ta'til **yigirma birinchi** martdan boshlanadi. 4. Bir yil – **uch yuz oltmish besh** yoki **uch yuz oltmish olti** kun.

Bilib oling.

Birdan ortiq so'zlardan tuzilgan sonlar **qo'shma sonlar** deyiladi. Qo'shma sonlar alohida yoziladi. Masalan: **o'n ikki, qirq besh, to'rt yuz ellik**. Qo'shma sonlar, odatda raqamlar bilan yoziladi: *Navoiy nomli 11-maktab, 2001-yil, 5-oilaviy shifoxona.*

312-mashq. *O'qing. Sonlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chirib, qo'shma sonlar tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. O'n beshta o'quvchi tabiat o'qituvchisi rahbarligida sayohatga jo'nashdi. 2. Abu Rayhon Beruniy yetmish besh yil yashagan. 3. Birinchi sentabr – Mustaqillik bayrami. 4. Yigirma birinchi oktabrda beshinchi sinf o'quvchilari teatrga boradilar. 5. Bizning maktabimizda bir ming ikki yuz ellik o'quvchi bilim olmoqda. 6. Nazira Qo'qon shahridagi o'n uchinchi maktabning oltinchi sinfida o'qiydi.

313-mashq. *Savollarga javob yozing.*

1. Bir yilda necha oy bor? 2. Yanvar oyi necha kundan iborat? 3. Bir kecha-kunduz necha soat bo'ladi? 4. Bir soat necha daqiqa bo'ladi. 5. Bir daqiqa necha soniya bo'ladi?

314-mashq. *Ko'chiring. Sonlarni raqam bilan yozing va ularning yozilishiga diqqat qiling.*

Namuna: Abu Rayhon Beruniy to'qqiz yuz yetmish uchinchi yil to'rtinchi sentabrda tug'ilib, bir ming qirq sakkizinchi yilda vafot etgan. – Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentabrda tug'ilib, 1048-yilda vafot etgan.

1. Alisher Navoiy bir ming to'rt yuz qirq birinchi yil, to'qqizinchi fevralda tug'ilib, bir ming besh yuz birinchi yil uchinchi yanvarda vafot etgan. 2. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi bir ming to'qqiz yuz to'qson ikkinchi yil ikkinchi iyul kuni tasdiqlandi. 3. To'qqizinchi may – Xotira va Qadrlash kuni.

315-mashq. *Quyidagi savollarga yozma javob qaytaring.*

1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishgan?
2. Maktabingizda qancha o'quvchi bor?
3. Oilangiz necha kishidan iborat?

Sonni tahlil qilish tartibi

1. Son qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Son qapda qaysi so'z bilan bog'langan?
3. Sonning gapdagi vazifasi.

Tahlil namunasi: O'quvchilar maktab bog'iga 30 tup mevali ko'chat o'tqazdilar. 30 tup – son, nechta? so'rog'iga javob bo'ladi, ko'chat so'zi bilan bog'langan (30 tup ko'chat) ikkinchi darajali bo'lak.

316-mashq. O'qing. Sonlarni aniqlang.

1. Yig'ilishda sakson besh o'quvchi qatnashdi.
2. Komilani yetti-sakkiz yoshida Toshkentlik tog'asi olib ketdi.
3. Boshqarmamiz yana uch yuz tonna go'sht topshirishga so'z berdi.
4. Bu yil bizning maktabni oltmish beshta o'quvchi bitiradi.

Topshiriq va savollar

1. Qanday so'z turkumiga son deyiladi?
2. Qancha? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar nimani bildiradi?
3. Nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar-chi?
4. Sonlarning yozilishi haqida nimalarni bilasiz?

OLMOSH – SO‘Z TURKUMI

Kishilik olmoshlari

317-mashq. *O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qiling, ularga so‘roq bering.*

1. Qishki ta'tilda **men**, Ahmad, Murod oromgohda bo'ldik. Biz tabiat qo'ynida mazza qilib dam oldik. 2. Solijon, **sen** qayerda dam olding? 3. Alijon shaxmatni sevadi. Shuning uchun **u** shaxmat musobaqasida qatnashdi. 4. Dilshod, Komil, Fotimalar maktab oromgohiga qatnadilar. Ular oromgohda sport musobaqasida ishtirok etdilar. 5. **Siz** qishki ta'tilda qayerlarga bordingiz?

Otlarni va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ikki ustun shaklida yozing. Bu so‘zlarning o‘xshash va farqli tomonlarini ayting.

318-mashq. *O‘qing. Kishilik olmoshlarini topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Kishilik olmoshlarining tagiga bir to‘g‘ri chiziq chizing.*

1. Men rassomlik to‘garagiga a‘zoman. Hilola ham bu to‘garakka a‘zo bo‘ldi. U rasm chizishga qiziqadi. 2. Biz maktabda yosh rassomlar ijodi bilan tanishdik. 3. Sen musobaqada g‘olib bo‘lding. 4. Ular tabiat muzeyiga borishdi. 5. Siz tabiat muzeyida bo‘lganmisiz?

Bilib oling.

Men, sen, u, biz, siz, ular so‘zlari **olmoshlardir**. Bu so‘zlar kishilarni ko‘rsatadi. Shuning uchun bu olmoshlar **kishilik olmoshlari** deyiladi. Kishilik olmoshlari kim?, kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ana shu xususiyati bilan kishilik olmoshlari otlarga o‘xshaydi.

319-mashq. Chiziqlar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chring.


1. _____ kitob o'qidi.
2. _____ dalaga chiqdim.
3. _____ qanday baho olding?
4. _____ tarix darsida Avesto tarixi bilan tanishdik.
5. _____ nechta nihol o'tqazdilar?
6. _____ Amir Temur haqida nimalarni bilasiz?

Qo'yish uchun so'zlar: *ular, biz, men, siz, u, sen.*

320-mashq. O'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlab, avval birlikdagi, so'ng ko'plikdagi olmoshlarni yozing.

AMUDARYO

– Men sizlarga Amudaryo haqida gapirib beray, – dedi o'qituvchimiz. Amudaryo juda katta bo'lib, tog' daryosidan ko'ra sekinroq oqadi.



– Amudaryoning suvi qaysi vaqtda ko‘payadi? – deb so‘radik biz.

– Yozda, eng issiq vaqtlarda, – dedilar o‘qituvchimiz. – Sen yana qaysi daryolarni bilasan? – deb so‘radilar o‘qituvchimiz Akromdan.

U Sirdaryo, Zarafshon daryolari haqida gapirib berdi.

Esda tuting.

Men, sen, u olmoshlari birlikni (yakka shaxsni); **biz, siz, ular** olmoshlari ko‘plikni (ko‘p shaxsni) bildiradi.

Men, biz – birinchi shaxsni;

Sen, siz – ikkinchi shaxsni;

U, ular – uchinchi shaxsni ko‘rsatadigan kishilik olmoshlaridir.

321-mashq. *O‘qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang.*

1. Men kitob sotib oldim. U qushlar haqida ekan.
2. Ular murakkab masalani yechdilar.
3. Non ushatsang ushoqlarni
To‘kib, sochma,
Ko‘ra turib nobudga hech
Sen yo‘l ochma!

T. Yo‘ldosh

4. Biz o‘z tilimizni, o‘z Vatanimizni sevamiz.
5. Siz qanday she‘rlarni yoddan bilasiz?

Kishilik olmoshlarini quyidagi jadvalga joylang.

Shaxslar	Son	
	Birlik	Ko'phk
I shaxs
II shaxs
III shaxs

322-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan kishilik olmoshi bilan birgalikda ko'chiring.*

1. U hamma savollarga yaxshi javob berdi. 2. Biz barcha shoirlarning asarlarini sevib o'qiymiz. 3. Men o'rtoqlarim bilan Amir Temur muzeyiga bordim. 4. Ular uylariga xursand qaytdilar. 5. Sen Alisher Navoiyning qaysi ruboyilarini yoddan bilasan?

323-mashq. *Men, sen, u, biz, siz, ular kishilik olmoshlarini ishtirok ettirib, «Darsda» mavzusida to'rtta gap tuzib yozing.*

Chuchmoma

Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi

324-mashq. *So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanini ayting.*

1. Men sport bilan shug'ullanaman. Sport mening yanada baquvvat, dovyurak bo'lishimga yordam beryapti. 2. Elda bori – senda bori. (Maqol). 3. Idorada odamlar sizni kutib o'tirishibdi. 4. Biz sizdan minnatdormiz, onajon.

Bilib oling.

Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi.

Kelishik qo'shimchalari bilan turlangan kishilik olmoshlari (*men, sen, u, biz, siz, ular*) kim?, kimning?, kimni?, kimga?, kimda?, kimdan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Bosh kelishikdagi *men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlari gapda ega vazifasini bajaradi: ***Biz*** kitobni sevamiz. Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigida qo'llangan kishilik olmoshlari **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasini bajaradi: ***Bizni*** bayramga taklif etishdi.

325-mashq. O'qing. Kishilik olmoshlarini topib, ularning yozilishiga diqqat qiling va ko'chiring.

1. Mening bu ishimga xalaqit berma. 2. Bizning maktabimiz qishloq markazida joylashgan. 3. Ozoda kitobni undan oldi. 4. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin.

Esda tuting.

Men, sen olmoshlari qaratqich va tushum kelishigida kelganda *mening, sening, meni, seni* shaklida yoziladi.

U olmoshi jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchasini olganda *unga, unda, undan* tarzida yoziladi.

326-mashq. Qavs ichida berilgan olmoshlarni gapning mazmuniga mos holda kelishiklar bilan turlab, gaplarni o'qing.

1. Gulchehra darslarini doim puxta tayyorlaydi. Shuning uchun (u) a'lo baholarga o'qiydi. 2. (Biz) jamoa xo'jaligimizda qishloq xo'jalik mashinalari ko'p. 3. O'qituvchi (u) yaxshi biladi. 4. Rahbarimiz (biz) xursand bo'ldi. 5. Do'stim, (sen) chin yurakdan rahmat.

Kelishik qo'shimchalarini olgan kishilik olmoshlarini o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

327-mashq. *Gaplarni ko'chiring, ega va kesimning tagiga tegishlicha chizing.*

1. Biz ozod va obod zamonda yayrab o'smoqdamiz. 2. Ular sholidan yuqori hosil oldilar. 3. U kitob va jurnallarni ko'p o'qiydi. 4. Siz ilm va hunar egasi bo'lishga harakat qiling.

Topshiriq va savollar

1. Olmosh haqida nimalarni bilasiz?
2. *Men, sen, u* olmoshlarini kelishiklar bilan turlang, yozilishini tushuntiring.

FE'L – SO'Z TURKUMI

328-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan so'zlarga so'roq bering.*

1. Musicha tarnovga **qo'ndi**. 2. Tovuqlar hovlida **donlayapti**. 3. Sodiq do'stiga xat **yozayapti**. 4. Men akamga **yordamlashdim**. 5. Biz yozgi ta'tilda Buxoroga **bormoqchimiz**.

Bilib oling.

Predmetning harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'llar **nima qildi?**, **nima qilyapti?**,

nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda kesim vazifasida keladi. Masalan: *O'quvchi vazifani bajardi. Izg'irin shamol esyapti. O'tkir she'rni yodlamoqchi.*

329-mashq. *O'qing. Chiziqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Fe'llarni aniqlab, tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.*

1. Bolalar kitobni _____. 2. O'quvchilar g'ayrat bilan _____. 3. Inson sog'lom bo'lishi uchun ertalab badantarbiya _____. 4. Barcha xalqlar tinchlikni _____. 5. Mehnat kishini _____. 6. Singlim kashtachilik to'garagiga _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *istaydi, qatnashmoqchi, qiladi, sevadilar, ishlayaptilar, chiniqtiradi.*

330-mashq. *Berilgan predmetga xos barcha harakatlarni yozing va uchta gap tuzing.*

Quyosh (nima qildi?) ko'rindi, _____, _____.

Qush (nima qilyapti?) uchyapti, _____, _____.

O'quvchi (nima qilmoqchi?) o'qimoqchi, _____, _____.

Tuzgan gapingizning kesimini aniqlab, tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.

331-mashq. *O'qing. Og'zaki so'roq berib fe'llarni aniqlang, ularning gapda qanday vazifada kelganini ayting.*

1. Qushlar daraxtga qo'ndilar. 2. O'quvchilar kecha muzeyga bordilar. 3. Akam zavodda ishlayapti. 4. Men

6-sinfda o'qiyapman. 5. Tikuvchi tikadi. 6. Oshpaz pishiradi.

Ko'chiring, fe'llarning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.

Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

332-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini ayting. Gaplarni ko'chirib, bo'lishsiz fe'llar tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.*

Kitobni yotib **o'qimang**. Xira chiroqda **o'qimang** va **yozmang**. Quyoshga va kuchli elektr yorug'iga **qaramang**. Ko'zingizni qo'lingiz bilan **ishqalamang**. Ko'zingiz og'risa tezda shifokorga ko'rsating.

Bilib oling.

Fe'llar **bo'lishli** va **bo'lishsiz** shaklda qo'llaniladi. Bo'lishli fe'llar harakatning bajarilishini, bo'lishsiz fe'llar esa harakatning bajarilmasligini bildiradi. Masalan: *Ma'ruf kitob o'qidi. U xat yozmadi.*

333-mashq. *Chiziqlar o'rniga gapning mazmuniga mos fe'llarni qo'yib yozing. Har bir fe'l qanday ma'no anglatayotganini ayting.*

O'rdak daryoda kun bo'yi baliq _____. Lekin bitta ham baliq _____. U kechasi suvda oyning aksini ko'rib qoldi va baliq bo'lsa kerak deb _____. O'rdak uni tutib olish uchun suvga _____. Boshqa o'rdaklar buni _____ va uni masxara qilib _____. O'sha vaqtdan boshlab o'rdak suvning tagida baliq ko'rganda ham, uni _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *kuldilar, o'yladi, tutmadi, ko'rdilar, ovladi, sho'ng'idi, ovlamaydi.*

334-mashq. O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Avval bo'lishli, so'ng bo'lishsiz fe'lli gaplarni ko'chirib, kesimning tagiga chizing.

Odobli bola insonning ko'ngliga qattiq tegadigan so'zlarni so'zlamaydi. U uchragan odamlarga salom beradi. Har vaqt erta bilan kelib darsni takrorlaydi. Hech qachon sababsiz maktabdan qolmaydi.

335-mashq. Chiziqlar o'rniga bo'lishli va bo'lishsiz fe'llardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Dasturxon atrofiga birinchi bo'lib o'tirishga _____.
2. Ovqatlanish vaqtida _____.
3. Shirin so'z ilonni inidan _____, muloyim so'z vahshiylarni ulfatga _____.
- (Maqol).
4. So'zlayotgan kishining gapini _____.
5. Do'stlar kulfatda _____.
6. Yaxshilarni barcha do'st _____.
7. O'z aybingni do'stlardan _____.

Qo'yish uchun so'zlar: so'rama, chiqaradi, bilinadi, tutadi, oshiqma, bo'lma, aylantiradi, so'zlashma.

336-mashq. O'qing. Har bir qatordagi so'zlarni bir-biriga bog'lab gap tuzing.

1. Yecha olmadi, O'tkir, masalani.
2. Obod, yana ham, bo'lmoqda, qishlog'imiz.
3. Bo'lmaydi, osonlik, non, bilan, tayyor.
4. Biz, bilan, Vatanimiz, faxrlanamiz.
5. Qoldirma, bugungi, ertaga, ishni.

Gaplarning kesimini aniqlab, tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.

337-mashq. *O'qing. Har bir qatordagi gapni davom ettirib yozing. Fe'llarni aniqlang.*

Biz qishloqda _____.

Qishlog'imiz yana ham obod _____.

Yangi binolar _____.

Men o'z qishlog'im bilan _____.

Hosil bo'lgan matnga sarlavha toping.

338-mashq. *Berilgan matnni diqqat bilan o'qing. Fe'llarni aniqlang va ko'chiring.*

Odobli bola nihoyatda ziyrak, aqlli va to'g'ri so'zli bo'lur, bir so'zni so'zlaganda avval fikr birla o'ylab, so'ngra so'zlar. O'ylamasdan so'zlab, so'ngida hayron bo'lib qolmas. Ammo so'zi to'g'ri kelmasa, undog'-bundog' bo'lay deb ont ichmas, balki: «Jon birodar, meni fikrimcha shundoq bo'lsa yaxshi bo'larmikan, deb o'ylagandim», – deya muloyimlik bilan javob berur.

339-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chirib yozing. Fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Ko'kda asta-sekin qoramtir bulut to'plana boshladi. 2. Dalalardan sarg'ish gullar terib qaytdik. 3. Uylarning mo'risidan ko'kimtir tutun chiqardi. 4. Mening ukam kattagina bo'lib qoldi. 5. Lolaning singlisi yoshligida sariqqina qizcha edi. 6. Mahallarnizda shinamgina bolalar klubi qurildi. 7. Lobar yig'ilishga qizg'ish ko'ylakda keldi.

340-mashq. Rasmlarni kuzating. Ulardan foydalanib 3–4 ta gap tuzing. Tuzgan gaplaringizdan hikoya hosil bo'lsin.



Foydalanish uchun so'zlar: *Sayohatga, bolalar, bahor, o'rtoq, daraxt, yo'l yurishdi, keldilar, Rustam, Nasima, Bahodir.*

341-mashq. O'qing. Fe'llarning tagiga chizing.

1. Ko'm-ko'k tok barglari ertalabki quyoshda jilvalanadi.
2. Pushti, sariq, qip-qizil gullarga qarab, kishining ko'ngli quvonadi. 3. Tollar tagidagi ariqchalarda tip-tiniq suvlar shildirab oqib yotibdi. 4. Bir o'lkaki butun tog'i kon, tuproqlari sap-sariq oltin.

342-mashq. O'qing. Gaplarni ko'chirib, fe'llarni aniqlang, ularning yozilishiga diqqat qiling.

1. Mehnatga chinakam mehr qo'ygan inson doimo baxtli bo'ladi. 2. Bugun yig'ilishda hayotiy mavzularda suhbatlashildi. 3. Maktabimizda tarbiyaviy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. 4. Hozirgi kunda barcha o'quv yurtlari

zamonaviy qilib jihozlanmoqda. 5. Shahar istirohat bog'larida ommaviy sayillar o'tkazilmoqda.

343-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarni topib, tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Yuvosh bulut ko'rinar go'yo bexavf va bexatar. 2. Sertuproq yo'llar quyosh nuridan yiltiraydi. 3. Yoz kechasi beg'ubor osmonga qarab zavqlanar edim. 4. Sezgir chegarachi notanish kishini qo'lga tushirdi. 5. So'nggi yillarda bolalar uchun sermazmun asarlar yaratilmoqda. 6. Farg'ona viloyatining bahavo joylarida dam olib qaytdik.

344-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring, fe'llarni aniqlang.*

1. Chavandozlar chopqir otlariga mindilar. 2. Naqshlarni o'tkir, uchqir kichik pichoqcha bilan o'yish kerak. 3. Ochko'z burgut o'tkir tirnoqlari bilan quyunchani ushlab oldi. 4. Tamagir odam qilmishidan afsuslandi. 5. Yoshlarimiz ancha topqir chiqib qoldilar.

345-mashq. *O'qing. Quyidagi so'zlarni bir-biriga bog'lab, gaplar tuzing. Fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Quyosh, orasidan, baland, nur, tog'lar, ko'tarildi, sochib. 2. Esdi, shamol, mayin. 3. Ariqlar, jildiradi, suv, zilol. 4. Kapalaklar, qanotlarini, nozik, uchmoqda, silkib. 5. Do'st, yaxshi, yaqin, shuningdek, doimo, bo'ladi, yoningda. 6. Havoda, kishi, yurish, sof, uchun, foydali, salomatligi.

346-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chirib, fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.*

Dala va bog'larimizda turli-tuman mevali daraxtlar ko'p. Ular kishi sog'lig'i uchun foydali. Mevali daraxtlarni parvarish qilish va qondirib sug'orish lozim. Mehnatsevar bolalar mo'l hosilni yig'ib oladilar. Hosil chiroyli yashiklarga joylanadi. Ketma-ket mashinalarda kerakli joylarga yetkaziladi. Odobli o'quvchilar tabiat boyliklarini asrashga o'z hissalarini qo'shadilar.

347-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing.*

1. G'o'zaning oq, qizil, pushti rangli gullari bo'ladi.
2. Bolalar, serqatnov ko'chada o'ynamang!
3. Dam olish vaqtida toza havoda yurish kerak.
4. Kishilar suvsiz yerlarga suv chiqarmoqda.
5. Mevali daraxt ko'chatlari ko'plab ekiladi.
6. Bog'imizdagi shirin anor pishdi.

348-mashq. *O'qing. Savollarga javob bering. Javobingizda fe'l qatnashsin.*

1. Maktabingiz qanday? 2. Maktab hovlisi kattami?
3. Maktab hovlisida qanday sport maydonchasi bor?
4. Sport maydonchasida kimlar o'ynaydi? 5. Maydonchada qanday o'yinlar o'ynaysizlar?
6. Kim qanday sport turlariga qiziqadi?
7. Sinfmgizda qanday musobaqalar o'tkazasiz?
8. Musobaqa g'oliblari nima bilan mukofotlanadi?

mukofot

349-mashq. *Fe'llarni topib, tagiga chizing.*

MEVAZORDA

Mana katta bog'. Bog'da mevali daraxtlar ko'p. Bog'ga keksa bog'bon Rizamat ota qaraydilar. Mehnatkash ota har

bir daraxtga mehr qo'yg'an. Qattiq yerlar yumshatiladi. Suvsiz joylarga suv chiqariladi. Mehnatning natijasi erta kuzda ko'rinadi, shirin-shakar mevalar yig'ishtirib olinadi.



Topshiriq va savollar

1. Qanday so'z turkumiga fe'l deyiladi? Fe'llar gapda qaysi so'z turkumi bilan bog'lanadi?
2. Fe'l gapda qanday bo'lak vazifasida kelishini ayting.

NUTQ VA GAP

Bog'lovchilar

1-mashq. *O'qing. Ajratilgan so'zlarga diqqat qiling. Ular nimalarni o'zaro bog'layapti va ular nima uchun qo'llanilganini tushuntiring.*

Namuna: Turg'un tez o'qiydi va chiroyli yozadi.

1. Bolalar ko'chat va qalamchalarni mehr bilan parvarish qilmoqdalar. 2. Mening ukam kichkina, **lekin** juda ham ziyrak bola. 3. Osmonni bulut qopladi, **biroq** yomg'ir yog'madi. 4. Oy yoritadi, **ammo** isitmaydi.

Gaplarni ko'chiring.

2-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini ayting. Ularni o'zaro bog'lash uchun qo'llangan so'zni aniqlab, namunadagidek yozing.*

Namuna: Yomg'ir tingan, lekin havo sovuq edi. – Tingan, lekin sovuq.

Xalq do'stonlarida **g'ayratli** va **jasoratli** odamlar sherga o'xshatiladi. Sher – yirtqich hayvonlar ichida **eng chiroyli** va **eng kuchli** jonivor. Gavdasi ancha **qo'pol**, lekin u **juda chaqqon**. Sher **rahmsiz**, ammo o'z bolalariga **mehribon**.



3-mashq. *O'qing. Bog'lovchilarni aniqlang. Tinish belgilarining qo'llanishiga diqqat qiling.*

1. Maktabimizda yosh rassomlar va yosh tabiatshunoslar to'garagi tashkil qilingan. Rustam yosh rassomlar to'garagiga qatnashadi, ammo men tabiatshunos bo'lmoqchiman. 2. Osmonni quyuk bulut qopladi, biroq yomg'ir yog'madi. 3. Nosirning darsxonasi kichkina, lekin bejirim.

Bilib oling.

Va, lekin, ammo, biroq bog'lovchilardir. Bog'lovchilar so'zlarni (gap bo'laklarini) yoki gaplarni o'zaro bog'laydi. Masalan: *Said va Tolib a'lochi o'quvchi. Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.*

gavda

Esda tuting.

Va bog'lovchisi qo'llanilganda, yozuvda vergul ishlatilmaydi.

Ammo, lekin, biroq bog'lovchilaridan oldin yozuvda vergul qo'yiladi.

4-mashq. *Kerakli o'ringa vergul qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Qaldirg'och bir necha bor uchmoqchi bo'ldi lekin ucholmadi.
2. Tog'lardagi qor va muz asta-sekin eriydi.
3. Qor yog'gani yo'q ammo qalin qirov tushgan.

Gapning uyushiq bo'laklari

5-mashq. *Ajratib ko'rsatilgan bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qing. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.*

1. Dalalarda **kombaynlar, traktorlar, seyalkalar** ishlaydi.
2. Kombayn bug'doyni **o'radi, yig'adi, yanchadi, tozalaydi.**
3. **Shaharlar, qishloqlar** yashnamoqda.
4. Biz darsda **o'qiymiz, yozamiz, so'zlaymiz.**

Bilib oling.

Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapda bir xil vazifani bajaradigan so'zlar **uyushiq bo'laklar** deyiladi. *Laylak, zag'cha bir oyoqda turib uxlaydi.*

Gapning uyushiq bo'laklari orasiga **vergul** qo'yiladi.

6-mashq. *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qing. Qaysi bo'laklar uyushganini ayting. Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Zavodlarda avtomobil mashina va stanoklar tayyorlanadi. 2. Mebel fabrikasida stollar stullar shkaflar javonlar tayyorlanadi. 3. Daraxtlar kurtak chiqaradi barg yozadi. 4. Uzoqdan yaylovlar qirlar daryolar tog'lar ko'rinardi.

Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.

7-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Gapning bosh bo'laklari tagiga chizing.*

N a m u n a: Sigirlar, qo'ylar yaylovda o'tlashmoqda.

1. Yozda olma olxo'ri uzum pishadi. 2. Ergash Anvar Ikrom darsdan keyin futbol o'ynadilar. 3. Shaharlar qishloqlar obod bo'lmoqda. 4. Binafsha chuchmoma lolaqizg'aldoqlar chaman bo'lib ochildi. 5. Bog'da bulbul sa'va yoqimli sayradi.

8-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring, ega va kesimning tagiga chizing.*

1. Biz jismoniy tarbiya darsida yuguramiz, sakraymiz. 2. Dehqonlar yerni haydaydilar, chigit ekadilar. 3. Bolalar archa atrofida ashula aytdilar, o'ynadilar. 4. Dilshoda qiyg'os ochilgan gullar ustiga egildi, to'yib-to'yib hidladi. 5. Habiba xat yozdi va konvertga soldi.

9-mashq. *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qing. Gapning qaysi bo'lagi uyushganini ayting.*

1. Bahorda tog'lar yaylovlar bolalarni o'ziga chorlaydi.
2. Turna laylak qaldirg'ochlar biz tomonga uchib keladi.
3. Bog'imizda boychechaklar chuchmomalar, lolaqizg'aldoqlar ochiladi.
4. Dalalarga ertangi karam pomidor ko'chatlari o'tqazildi.

Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

10-mashq. *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan ajratib gaplarni o'qing va qaysi bo'lak uyushib kelganini ayting.*

N a m u n a: (Qanday?) toza, tiniq, kumush suv.

1. Toza, tiniq, kumush suv, orom berar barchaga.
2. Biz ertaklarni, hikoyalarni, she'rlarni sevib o'qiymiz.
3. Ko'chatlarga jon berar suv, havo, quyosh.
4. Bahorda gulzor oq, pushti, qizil, sariq gullarga burkanadi.
5. Bog'bon Karimdan, G'ofirdan xursand bo'ldi.

Uyushiq bo'lakni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda namunadagidek ko'chiring, nima uchun vergul qo'yilganini ayting.

11-mashq. *O'qing. Gapning uyushiq bo'laklarini aniqlang. Kerakli o'rinlarga vergul qo'yib, matnni ko'chiring, uyushiq bo'laklarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Murod rangdor qafaslardagi to'tini maynani tomosha qildi.
2. Keng chiroyli maydon bayramga yasangan xalq bilan to'ldi.
3. Bog'lardan tokzorlardan polizlardan xushbo'y hid anqir edi.
4. Dalaga qishloqqa kechki salqin tushdi.
5. O'quvchi ko'chada uyda maktabda barchaga o'rnak bo'lishi kerak.

12-mashq. *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan ajratib gaplarni o'qing.*

1. Biz hayvonot bog'ida filni, yo'lbarsni, bo'rini ko'rdik.
2. Daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chir-qillashdi. 3. Baliqlar dengizda, daryoda, ko'lda yashaydi.
4. Anhorlarda, ariqlarda suv to'lib oqmoqda. 5. Biz Vatanimizning tog'larini, daryolarini shaharlarini, qishloqlarini sevamiz.

13-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlab, gaplarni ko'chiring. Qaysi bo'lak uyushganini ayting.*

1. Kumushday daraxtlar, tepaliklar ravshan ko'rinib turadi. 2. Oqil kishi dono, oliyjanob, rostgo'y odamlarga do'st bo'ladi. 3. Bulbul butazorlarga, tog' yon bag'irlaridagi daraxtzorlarga uya quradi. 4. Vohidni hamma o'rtoqlari sevardilar, hurmat qilardilar. 5. Quyosh, havo, suv bizga kuch bag'ishlaydi.

Uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.

14-mashq. *Berilgan so'zlardan uyushiq bo'lakli gaplar tuzing va yozing.*

1. O'rik, bog'imizda, olma, gulladi, shaftoli.
2. Bodring, ekish, uchun, handalak olindi, ariq.
3. Ko'chatlari, karam, ertaki o'tqazildi, pomidor.
4. Ilonga, burgutlar, bo'ladi, lochinlar, o'ch.

15-mashq. *Savollarga uyushiq bo'lakli gap tuzib javob bering.*

1. Siz O'zbekistondagi qanday shaharlarni bilasiz?
2. O'zbekistonda qanday ekinlar ekiladi?

3. Paxtadan nimalar olinadi?
4. Siz o'zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz?

Uyushiq bo'laklarning bog'lovchilar yordamida bog'lanishiga e'tibor bering.

16-mashq. *O'qing. Gapning uyushiq bo'laklarini ayting.*

1. Boboqul ota uni kimgadir o'xshatdi, ammo tanimadi.
2. Vatanimizda bolalar uchun maktablar va oromgohlar ko'p.
3. Men Yo'ldoshni ko'rdim, lekin so'zlasha olmadim.
4. Salim va Zokir ko'chaga otildilar.

Ko'chiring, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lagan bog'lovchilarning tagiga chizing.

Bilib oling.

Uyushiq bo'laklar **va, ammo, lekin, biroq** bog'lovchilari bilan o'zaro bog'lanadi.

Uyushiq bo'laklarni bog'lagan **ammo, lekin, biroq** bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Oy yoritadi, ammo isitmaydi.*

Uyushiq bo'laklar **va** bog'lovchisi bilan bog'lansa, vergul qo'yilmaydi. Masalan: *Quyosh yoritadi va isitadi.*

17-mashq. *O'qing. Va, ammo, lekin, biroq bog'lovchilari bilan bog'langan uyushiq bo'laklarning aytilish ohangiga diqqat qiling.*

1. Bog'da bulbul va sa'va yoqimli sayradi.
2. Yo'lchi boshini qimirlatdi, biroq jim o'tiraverdi.
3. Kaptar ko'zlarini javdiratib uchishga harakat qildi, lekin ucha olmadi.
4. Lola rasmni chizdi, ammo bo'yay olmadi.


18-mashq. Chiziqlar o'rniga va, ammo, lekin bog'lovchilaridan mosini va zarur o'rinlarga vergul qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Inson non go'sht sut _____ mevalar bilan ovqatlanadi.
2. Ahmadjonning darsxonasi kichkina _____ tartibli.
3. Oy yoritadi _____ isitmaydi.
4. Sinfimizda Rasul Rahim _____ Rahbar a'lochi bo'ldi.
5. Bizning shahrimiz kichkina _____ juda chiroyli.

Uyushgan eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq va uyushgan ikkinchi darajali bo'lakning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

19-mashq. O'qing, uyushiq bo'laklarni aniqlang. Uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chirib, uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.

Insonlar qo'y, echki, sigir va boshqa hayvonlarni boqadilar. Ulardan go'sht, sut, yog' va boshqa mahsulotlar olinadi.



Bulardan tashqari, O'zbekistonda ov qilinadigan tog' takasi, jayra kabi hayvonlar ham juda ko'p. Lekin bu hayvonlarning aniq soni ma'lum emas. Shu sababli ov qilinadigan hayvonlarning turi va sonini aniqlash maqsadida, kunlar isishi bilan Vatanimizdagi ovchilik va o'rmon xo'jaliklarida yuzlab kishilar ishga kirishadilar. Ular yil davomida hayvon va parrandalarni, qimmatbaho jonivorlarni ro'yxatga olishadi. Yashaydigan joylarini aniqlashadi.

20-mashq. *Har bir qatordagi so'zlar bilan uyushiq bo'lakli gaplar tuzib yozing.*

1. Bog'larda, qirlarda, ko'karadi, dalalarda, va, o'tlar bahorda.

2. Olma, gulladi, va olcha, gilos, mevalar, boshqa.

3. O'qiydi, ammo, tez, yozadi, Odiljon, sekin.

4. Biz, har doim, qilib, badantarbiya, bardam, yuramiz, va sog'.

5. Zebo, aytmaydi, ashula, chaladi, dutorni, yaxshi, ammo.

Sodda va qo'shma gaplar

21-mashq. *Chap tomonda sodda gaplar, o'ng tomonda esa shu sodda gaplardan va, ammo, shuning uchun bog'lovchilari bilan va bog'lovchilarsiz tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar berilgan.*

Qo'shma gaplarni ko'chiring, vergulning qo'yilish sabablarini tushuntiring. Har bir gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.

Sodda gaplar

1. Bahor keldi.
Ariqlarda to'lib suv oqa boshladi.
2. Binafshalar ochildi.
Hali lolalar ochilmagan.
3. Nosir darsni doim puxta tayyorlaydi.
U a'lo baholarga o'qiydi.
4. Yomg'ir tindi. Mayin shabada g'ir-g'ir esdi.

Qo'shma gaplar

1. Bahor keldi va ariqlarda suvlar to'lib oqa boshladi.
2. Binafshalar ochildi, ammo hali lolalar ochilmagan.
3. Nosir darsni doim puxta tayyorlaydi, shuning uchun u a'lo baholarga o'qiydi.
4. Yomg'ir tindi, mayin shabada g'ir-g'ir esdi.

Bilib oling.

Ikki va undan ortiq sodda gapni **va, ammo, lekin, shuning uchun** bog'lovchilari bilan bog'lab yoki bog'lovchilarsiz **qo'shma gaplar** tuziladi.

Qo'shma gapdagi sodda gaplar **va** bog'lovchisi yordamida bog'lansa, sodda gaplar orasiga vergul qo'yilmaydi. Masalan: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.*

Qo'shma gapdagi sodda gaplar bir-biri bilan **ammo, lekin, biroq, shuning uchun** bog'lovchilari yordamida yoki bog'lovchilarsiz bog'lansa, sodda gaplar biri ikkinchisidan vergul bilan ajratiladi. Masalan: *Havo bulut bo'ldi, biroq yomg'ir yog'madi. Tong otdi, quyosh borliqqa nur sochdi.*

22-mashq. O'qing. Qo'shma gaplar qaysi sodda gaplardan tuzilganini ayting, vergulning qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi. 2. Bahor keldi va ariqlarda suv to'lib oqa boshladi. 3. Tong hali yorishmagan, lekin yulduzlar ancha siyraklashgan edi. 4. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir. (*Maqol*).

5. Qushlar odamlarni yaxshi ko'radi, lekin odamlarning o'zlari ularni cho'chitishadi.

Ko'chiring. Har bir sodda gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.

23-mashq. *Qo'shma gaplarni ko'chiring, vergulning qo'yilish sababini tushuntiring.*

1. Bahorda o'tlar ko'karadi, har xil gullar ochila boshlaydi. 2. Bog'ning eshigi ochiq, ammo uyning eshiklari berkitilgan. 3. Eshik yana taqilladi, lekin hech kim ovoz bermadi. 4. Bodom juda barvaqt gullaydi, shuning uchun ham u ba'zan sovuqdan nobud bo'ladi. 5. Tilingni botir qilma, o'zingni botir qil. (*Maqol*).

24-mashq. *Kerakli o'rinlarga vergul qo'yib, qo'shma gaplarni ko'chiring. Har bir sodda gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.*

1. Daryo tiniq osmon beg'ubor. 2. Uydagi ko'p ishlarni Halima bajaradi ammo u shoshib qolmaydi. 3. Shokir endi maktabga boradi biroq o'qish va yozishni biladi. 4. Hammamiz yig'ildik biroq Karim kelmadi.

25-mashq. *Maqollarni o'qing, avval sodda gaplarni, keyin qo'shma gaplarni ko'chiring. Zarur o'rinlarga vergul qo'ying, ega va kesimning tagiga chizing.*

1. Yer – xazina suv – oltin. 2. Ko'p gapdan oz bo'lsa ham ish yaxshi. 3. Ish seni yengmasin sen ishni yeng. 4. Ish ishtaha ochar. 5. Yomg'ir bilan yer ko'karar tinchlik bilan el ko'karar. 6. Quyosh havo – tanga davo.

26-mashq. *Berilgan sodda gaplardan lekin, ammo, biroq, shuning uchun bog'lovchilari yordamida qo'shma gap tuzing.*

1. Osmonni bulut qopladi. Yomg'ir quya boshladi.
2. Yog'ingarchilik bo'lmadi. Biz sayohatni davom ettirdik.
3. Tolibjon musobaqada g'olib chiqdi. Hamma uni olqishladi.
4. Rahima sinfimizdagi eng yaxshi o'quvchilardan hisoblanadi. Uni hamma hurmat qiladi.

27-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Kerakli o'ringa vergul qo'ying.*

1. Quyosh botgan lekin hali yorug'. 2. Quyosh yoritadi va isitadi. 3. Oy yoritadi ammo isitmaydi. 4. Dalalarda traktorlar ishlaydi va dehqonlar mehnatini yengillashtiradi. 5. Bahor eng go'zal fasl shuning uchun hamma bahor kelishini orziqib kutadi.

28-mashq. *Chiziqlar o'rniga va, shuning uchun, biroq, lekin, ammo bog'lovchilaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Pomir _____ Kavkaz tog'larida juda baland cho'qqilar bor. 2. Osmonni quyuq bulut qopladi, _____ yomg'ir yog'madi. 3. Salima juda odobli qiz, _____ uni hamma hurmat qiladi. 4. O'zbekistondagi qushlarning ko'pi kuzda issiq tomonlarga uchib ketadi, _____ ular bahorda yana qaytadilar. 5. Kun tikka kelgan, _____ issiq badanni kuydirmas edi.

29-mashq. *So'zlarni o'qing, avval gullarni, so'ng daraxtlarni yozing.*

Atirgul, archa, terak, rayhon, chuchmoma, boychechak, chinor, tut, olma, shaftoli, gulxayri, nastarin.

Gullar:

Daraxtlar:

30-mashq. *Maqollarni o'qing. Gaplar qanday mazmun bildiriyapti. Gaplarni ko'chiring.*

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

Hunarmandning noni butun.

Hunar va ilmning o'g'risi yo'q.

Hunari borning davlati bor,

Hunari yo'qning hayoti xor.

31-mashq. *Savollarni o'qing. Berilgan so'zlar yordamida savollarga javob bering va yozing.*

1. Kimlar sayohatga boradilar? (O'quvchilar)

2. Qachon sayohatga boradilar? (Ertaga)

3. O'quvchilar qayerga boradilar? (Sayohatga)

4. O'quvchilar ertaga nima qiladilar? (Boradilar).

32-mashq *O'qing. Har bir qatordagi ajratilgan so'zlardan boshlab gap tuzib yozing. Hosil bo'lgan gapning mazmunini tushuntiring.*

husnda

Go'zallik

emas

mehnatda .

kulfatda

do'stni

Do'st

sinar ,

odamni

mehnatda

Odam .

mehnat

Yozgi

rohat

qishki .

33-mashq. *O'qing. Gaplarning maqsadga ko'ra turini ayting va ko'chiring.*

Non qachon paydo bo'lgan? Olimlar non bundan o'n besh ming yil ilgari paydo bo'lgan deyishadi. Ular nonni ona sutiga tenglashtiradilar. Bolalar, nonni isrof qilmangiz!



34-mashq. *O'qing. Har bir gapning oxiriga tinish belgilarini qo'yib, matnni ko'chiring.*

OROMGOHDA

Men o'rtog'im Rasul bilan yozgi ta'tilda oromgohga bordim oromgoh bizga juda yoqdi oromgohda har kuni ertalab badantarbiya qildik turli qiziq kitoblar o'qidik yangi o'yinlar organdik biz oromgohdan juda yaxshi dam olib qaytdik.

35-mashq. *O'qing, har qaysi bo'limga sarlavha toping. Matnni ko'chiring.*

1. Havo isiy boshlaydi. Qorlar eriydi. Yerni ko'm-ko'k o't qoplaydi. Daraxtlar gullaydi, barg chiqaradi. Dalalarda mehnat qaynaydi. Chigit ekiladi. Janubdan qushlar uchib kela boshlaydi.

2. Kunlar isidi. Ekinlar yetildi. Har xil mevalar pishdi. Bolalar ta'tilga chiqdilar.

36-mashq. *Berilgan so'zlardan foydalanib gap tuzing va yozing.*

1. Qushlarni, bolalar, asrang. 2. Rioya, qiling, svetofor, doimo, bolalar, chiroqlariga. 3. Hurmat, bolalar, kattalarni, qiling. 4. Esadi, yoqimli, shabada.

Savollar

1. Qanday bo'laklar uyushiq bo'laklar deyiladi?
2. Bog'lovchilar gap bo'lagi bo'la oladimi?
3. Qanday gaplar qo'shma gap deyiladi?

O'QUV YILI DAVOMIDA O'TGANLARNI TAKRORLASH

1-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga kerakli undosh harflardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring.*

Mahmu... bilan Ahma... makta...dan kelayotgan edi. Ular yo'lda ko'zi ojiz cholni ko'ri... qoldilar. Ular chol bilan salomlash...ilar. Mahmu... cholning qo'lidan ushla... oldi. Chol quvoni... ketdi. Chol ularga minna...dorchilik bildirdi.

Matnga sarlavha toping.

2-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi d undoshining aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.*

1. Qirdagi past-baland yerlar tekislandi. 2. Umid olchaga gilosni payvand qildi. Olcha yaxshi hosil berdi. Biz xursand bo'ldik.

3-mashq. *Nuqtalar o'rniga kerakli undoshlarni qo'yib, so'zlarni ko'chiring.*

Balan..., darax..., poytax..., go'sh..., bax..., g'ish..., qan..., do's..., farzan... .

4-mashq. *Nuqtalar o'rniga kerakli undoshlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Yom...ir, yo...di. Suv shildirab o...di. Ol...in kuz keldi. 2. Yunus masalani hammadan ol...in yechdi. 3. Onam me... monlarni kuti... ol...i. 4. Omon ol...i marta g'olib bo'ldi.

Jarangli undoshlar tagiga bir chiziq, jarangsiz undoshlar tagiga ikki chiziq chizing.

5-mashq. *So'zlarning oxiriga i unlisini qo'shib yozing.*

Zavod, tarvuz, oftob, piyoz, qiz, kuz, yuz, qand, javob, muz, poyezd, hisob.

Shu so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.

6-mashq. *Jarangsiz undoshli so'zlarga quyida berilgan jarangli undoshli so'zlardan mosini tanlab yozing.*

Choy – _____	bol –
chang – _____	dars –
parcha _____	qars –

Qo'yish uchun so'zlar: darz, jang, qarz, barcha, pol, joy.

Jarangli va jarangsiz undoshlarning farqini ayting. So'zlarning ma'nosini tushuntiring.

7-mashq. *Jarangli undoshli so'zlarga quyida berilgan jarangsiz undoshli so'zlardan mosini qo'yib yozing.*

Mard – _____	eg –
sig'moq – _____	vahm –
gul – _____	zina –

Qo'yish uchun so'zlar: fahm, kul, sina, siqmoq, mart, ek.

So'zlarning ma'nosidagi farqni ayting.

8-mashq. *So'zlarni o'qing, bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga ajratib yozing.*

Ittifoq, millat, g'alla, pilla, tilla, katta, tonna, issiq, tashakkur, tanaffus, achchiq.

Pilla, millat so'zlari ishtirokida ikkita gap tuzing va yozing.

9-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib, so'zlarni yozing.

Ma...ajo'xori, o....oq, pi...a, di...at, a...al, a...a, i...at.

Shu so'zlar ishtirokida ikkita so'roq gap tuzing.

10-mashq. Gaplarni o'qing va ko'chiring. Ketma-ket kelgan bir xil undoshlarning tagiga chizing.

1. Sinfimiz devori oppoq. 2. Tanaffusda hovlida o'ynadik. 3. Muyassar – odobli qiz. 4. Abbosning akasi Abdulla – a'lochi. 5. Darsni diqqat bilan tingladim. 6. Pashsha – zararli hasharot. 7. Men onamni izzat qilaman. 8. Allakim ashula aytdi. 9. Asqar murakkab masalani yechdi.

11-mashq. O'zingiz ikkita bir xil undoshli so'zlar topib yozing. Ular ishtirokida gap tuzing.

12-mashq. Nuqtalar o'rniga o yoki a unlisini qo'yib ko'chiring.

P...zanda, telef...n, sh...mol, S...odat, lim...n, b...yroq, xirm...n, r...ssom, j...hon, t...m, b...ho, trakt...r, l...viya.

So'zlardagi o va a unlilarining aytilishi va yozilishini tushuntiring, ularni ko'chiring.

13-mashq. Nuqtalar o'rniga i yoki u unlilaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Burg...t, sup...rgi, gug...rt, uz...m, kechqur...n, kut...bxona, ko'pr...k, o'q...tuvchi, o't...n, q...shloq, to'qq...z, qo'ng'...roq.

14-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli unlilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Kech k....z. H...vo b...gun ochiq bo'ldi. Q...yosh charaqlab chiqdi. Yerlar qizg'ish, sar...q yaproqlar bilan to'ldi. Bolalar keng m...ydonda yayrab o'ynadilar.

15-mashq. So'zlarni o'qing. Tutuq belgisi nima uchun ishlatilayotganini aniqlang.

A'lo, ma'no, ta'zim, da'vo, she'r, ta'lim, ba'zan, sur'at, qal'a, sa'va, sun'iy, e'lon, ta'sir.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring, shu so'zlarni qatnashtirib, so'z birikmalari tuzing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tutuq belgisisiz ishlatilsa, qanday ma'no bildiradi.

16-mashq. Maqollarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chiring.

Bulbul chamanni sevar,
Odam Vatanni.

Bo'l Vatanga posbon,
Vatan sendan minnatdor.

17-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib, matnni ko'chiring.

Maktabning **bog'i** bor. **Bog'da** mevali daraxtlar ko'p. **Bog'bonlar** mevali daraxtlarni parvarish qiladilar. Men ham **bog'bon** bo'lmoqchiman.

Matnda nechta gap borligini ayting.

18-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni og'zaki bo'g'inga bo'lib, ko'chiring.*

Latofatning Ma'mura ismli singlisi bor. **Latofat** singlisiga juda mehribon. Ma'mura **Latofatni** yaxshi ko'radi. Ma'mura **Latofatga** ergashadi. **Latofatdan** sira ajralgisi kelmaydi.

19-mashq. *Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib, matnni ko'chiring.*

Atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor 1907-yilda **Qo'qon shahrida** tug'ilgan. Uning otasi **temirchi** edi. **O'tkir zehni Abdulla** otasining yordami bilan Navoiy, Fuzuliy asarlarini qiziqib o'qirdi. Bu unda adabiyotga **zo'r havas** uyg'otdi.

Bosh harf bilan yozilgan so'zlarning imlosini tushuntiring.

20-mashq. *Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chirib, matnni ko'chiring.*

MAKTAB USTAXONASIDA

Maktabimiz ustaxonasi **katta, toza va yorug'**. Ustaxonada **bolg'a, dastarra, randa** va boshqa har xil asboblari bor. **O'quvchilar** ustaxonada ishlayaptilar. **Sobir taxta** arralayapti. **Bahodir randa** layapti. **Shuhrat taxtaga** mix qoqyapti. Ular juda yaxshi ishlayaptilar.

21-mashq. *Suvsiz, gulchi, bilimdon, ovchi soʻzlariga oʻzakdosh soʻzlar tanlab yonma-yon yozing va oʻzaklarni belgilang.*

22-mashq. *Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qiling. Oʻzak va qoʻshimchalarni belgilang.*

Tursunboy Adashboyev

NASIBANING OLMASI

Nasibaning olmasi
Tushib ketdi ariqqa
Tutqich bermay oʻynaydi,
Oʻxshab oltin baliqqa...

Sodiqjon koʻrib qolib,
Olmani ushlab berdi.
Rahmat aytib Nasiba,
Yarmini tishlab berdi...

23-mashq. *Rasmlarni kuzating. «Oʻqishga muhabbat» sarlavhali hikoya yozing.*

Unda quyidagi rejadan foydalaning.

Reja:

1. Kutubxonaga tashrif.
2. Kutubxonachi bilan suhbat.
3. Kitob tanlash.
4. Oʻqishga havas.



24-mashq. Hikoya matnini qismlarga bo'ling. Har bir qismga sarlavha toping.

KARIMJONNING QALDIRG'OCHLARI

Bahor kunlari edi. Karimjonlarning ayvoniga qaldirg'och uchib keldi. Uning tumshug'ida chigirtka bor edi. Qaldirg'ochning bolalari baravariga ovqatga intilib, uyaning og'ziga tiqilib qolishdi.

Birdan uya, ko'chib ketib, yerga tushdi. Karimjon qo'rqib ketdi. Shu payt Karimjonning akasi kelib qoldi. Ular tezda eski chelakka poxol soldilar. Ustiga ona qaldirg'och yasagan uyani avaylab qo'ydilar. So'ngra chelakni bo'g'otga ildilar. Tez kunda ona qaldirg'och bolalarini uchirma qildi. Har yili bahorda qaldirg'ochlar kelib turadigan bo'ldi. Har kelganda yoqimli sayrab, Karimjonga va akasiga minnatdorchilik bildiradilar.

Hikoya rejasini tuzing. Tuzgan rejangsiz asosida qayta hikoya qilib bering va bayon yozing.

minnatdor

25-mashq. *O'qing. Matndagi har bir gap qanday mazmunni bildirayotganini ayting.*

1. Bolalar Quddus Muhammadiyning kitoblarini sevib o'qiydilar. 2. Siz Quddus Muhammadiyning «Kitobim – oftobim» kitobini o'qiganmisiz? 3. Quddus Muhammadiyning «Kitobim – oftobim» kitobini albatta o'qing. 4. Menga Quddus Muhammadiyning «Kitobim – oftobim» kitobini berib turing. 5. Oltinsoy ajoyib, go'zal qishloq.

26-mashq. *Tushirib qoldirilgan harflarni, gaplarning oxiriga tegishli tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.*

1. Bizning V... tan qanday go'zal va ko'rkam 2. Men o'z Vatanimni sev...man 3. Biz «5» b...ho bilan o'qiyimiz 4. Siz q...nday o'qiyapsiz 5. Rahmat sizga, mehribon on...jonim.

27-mashq. *Gap oxiriga nuqta, so'roq va undov belgilaridan mosini qo'yib ko'chiring.*

1. Qanday go'zal baxtli yoshlik 2. Siz yozda sayohatga chiqdingizmi 3. Mening onam dongdor terimchi 4. Paxtakorlarga shon-sharaflar 5. Tabiat kuz faslida qanday o'zgaradi.

28-mashq. *O'qing. Gaplarni o'z o'rniga qo'yib, hikoya tuzing.*

Olapar tulkini quvib yubordi. Ona tovuq hushyor edi. U tulkini payqab qaqilladi. Shovqin-suron ko'tarilgan joyga Olapar yetib keldi. Bir tulki ovga chiqdi. Tulkinging qorni och edi. Jo'jalarga ko'zi tushib qoldi. Jo'jalarga tashlanmoq uchun payt poyladi.

Hikoyaga sarlavha topib yozing.

29-mashq. *She'rni ifodali o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni so'z turkumi va gap bo'lagiga ko'ra tahlil qiling.*

Habib Rahmat

QUVONCH

Chamanzorlar yo'lida,
Kitoblarim qo'limda,
Hammaga yod bo'lgan so'z
Tilimda va **dilimda.**
Vatan va ona,
Muqaddas ham yagona.
O'qiyman va o'ynayman
Quvona-yu quvona
Yangrar qo'shiq, sho'x kuyim,
Kamol topar orzuyim.
Hamma fandan **bash, besh, besh**
Bahoyim-u bahoyim.

30-mashq. *Ko'chiring. Ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Paxta mashinada teriladi. 2. Ravshan uy ishlariga ham yordam berdi. 3. Duradgor singan xontaxtani tuzatdi. 4. Zafar mashqlarni to'g'ri bajardi. 5. Ertaga biz sayohatga boramiz. 6. A'lochi Po'lat o'quvchilar yig'ilishida yaxshi gapirdi.

31-mashq. *O'qing va gapning qaysi bo'laklari uyushib kelganini aniqlang. Gaplarni ko'chirib, uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.*

1. Sinfimiz o'quvchilari maktabda, uyda, ko'chada barchaga o'rnak bo'lyaptilar. 2. Bizning Vatanimiz temirga, ko'mirga, neftga boy. 3. Bu yil paxtadan, sholidan, makkajo'xoridan mo'l hosil olindi. 4. Bizda muhandislar, texniklar, agronomlar, o'qituvchilar, shifokorlar, ishchilar ko'p. 5. Biz o'qiyamiz, mehnat qilamiz, dam olamiz.

32-mashq. *Quyidagi savollarga uyushiq bo'lakli gap tuzib javob bering. Javobingizda gapning qaysi bo'lagi uyushib kelganini ayting.*

1. O'quvchi maktabga qaysi o'quv qurollari bilan keladi?
2. Sutdan nimalar olinadi? 3. Polizga qanday sabzavotlar ekiladi?

33-mashq. *Ko'chiring. Bog'lovchilarni aniqlang.*

1. Bahor bayrami hammaning diliga quvonch va sevinch bag'ishlaydi. 2. Mehnat va bilim baxt keltirar. (*Maqol*).
3. Ichkaridan ovoz eshitilar, lekin so'zlari anglashilmas edi. 4. Tolibjon uni kimgadir o'xshatdi, ammo tanimadi.
5. Bizning shahrimiz kichkina, biroq juda chiroyli.

34-mashq. Chiziqlar o'rniga va, ammo bog'lovchilaridan mosini va kerakli o'rinlarga vergul qo'yib ko'chiring.

1. Sinfimizda Rasul Salim _____ Dilorom a'lochi bo'ldi.
2. Nosirning darsxonasi kichkina _____ bejirim.
3. Shahar _____ qishloqlarda maktab _____ mahallalarda bayramga zo'r tayyorgarlik ko'rilmogda.

Gapning qaysi bo'lagi uyushganini aniqlab, tagiga chizing.

35-mashq. Ko'chiring. Uyushiq bo'laklarning o'zaro qanday bog'langanligini, tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.

1. Uning so'zlari sodda, lekin aniq va ravshan edi.
2. Bog'larda, adirlarda, vodiylarda maysalar sabza urdi.
3. Men darsni o'z vaqtida puxta tayyorladim, shuning uchun a'lochi bo'ldim.
4. Erta yog'ib o'tgan yomg'ir changni va g'uborni yuvib ketgan.
5. Yomg'ir tindi, ammo hali shamol esmogda.
6. Hamid tez o'qiydi va chiroyli yozadi.

36-mashq. O'qing. Qo'shma gaplar qaysi sodda gaplardan tuzilganini ayting, vergulning qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Tong otdi, quyosh chiqdi va kun isidi.
2. Majlis tugadi, yosh havaskorlar konsert qo'yib berishdi.
3. Quyosh botgan, lekin kun hali yorug'.
4. Mahkam salomlashib o'tib ketmoqchi bo'ldi, biroq Mirsaid to'xtatdi.
5. Alisher Navoiy Astrobodga jo'nab ketdi, ammo uni xalq hech qachon unutmadi.
6. Yaqinda o'qish tamom bo'ladi, siz yozgi ta'tilga chiqasiz.

Ko'chiring. Har bir sodda gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.

37-mashq. *Sodda va qo'shma gaplarni aniqlab, vergulning nima uchun qo'yilganini tushuntiring. Ikkita sodda va ikkita qo'shma gapning bosh bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.*

BIZNING QISHLOG'IMIZ

Qishlog'imiz yaqinda bunyod etilgan. Qishloqdagi har bir xonadon hovlisi gulzorlarga aylangan. Ko'chaning ikki tomonida chiroyli uylar qad ko'targan, ular oldiga har xil daraxtlar ekilgan.

Qishlog'imiz xonadonlariga vodoprovod va gaz o'tqazilgan, uylarni elektr chiroqlari yoritadi. Qishlog'imizdan tuman markazigacha to'g'ri va tekis yo'l tushgan. Ko'chaning ikki tomoniga teraklar o'tqazilgan, teraklar orasidan poyonsiz paxta dalalari ko'rinadi.

Qishlog'imizda kutubxona, ikki qavatli maktab, kichkintoylar uchun bolalar bog'chasi va yaslilar bor. Yana bir binoga kasalxona joylashgan.

38-mashq. *Va, ammo, lekin bog'lovchilarini qatnashtirib uchta qo'shma gap tuzing va yozing.*

39-mashq. *She'rni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni so'z turkumiga ko'ra tahlil qiling.*

Ahad Po'latov

MUNISA

**Munisaxon kichkina,
Doim kulib boqadi.
Xushfe'l odobi bilan
Hammamizga yoqadi.**

Ulg'ay, o's, jonim qizim,
Gul diyorda bo'l katta.
Ona-Vatanga loyiq
Farzand bo'lgin albatta.

40-mashq. *O'qing, otlarni aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan otlar nima uchun bosh harf bilan yozilganini tushuntiring.*

1. Dilbar Oripova Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi Ahmad Donish ko'chasida turadi.
2. Sirdaryo va Amudaryo O'zbekistonning ko'p tumanlarini sug'oradi.
3. Biz bahorgi ta'tilda Chimyon tog'iga sayohatga chiqdik.
4. Nazira mushugiga Mosh deb nom qo'ygan.

41-mashq. *Ko'chiring, egalik qo'shimchasi qo'llangan otlarni aniqlang.*

1. Maktabimiz – chaman bog', biz uning niholimiz.
2. Sening mehring bilan ulg'ayib, xalqni sevgan bir farzand bo'lsam.
3. Akangiz qayerda ishlaydilar?

42-mashq. *Oxiri k va q undoshlari bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchasini qo'shib yozing.*

Bilak, quduq, eshik, to'garak, tuproq, qarmoq, kaklik, o'rik, ko'sak, qaymoq, tirnoq, butoq, kelajak, ertak, quloq.

Egalik qo'shimchasi qo'shilganda oxirgi undoshi o'zgargan so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzib yozing.

43-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, maqollarni ko'chiring.*

1. Odam... qimmatini qilgan ishi bilan belgilanadi.
2. Birlashgan yov... qaytarar.
3. Dehqon... xazinasi – yer.
4. Mehnating... halol qilsang, huzuri ... ko'p ko'rasan.
5. Tekin ... minnati ko'p, mehnat ... ziynati ko'p.
6. Mard... ishi – mehnat.

44-mashq. Nuqtalar o'rniga jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Kuzimizning go'zalligini, og'aynilar ko'rganmisiz? Tok ... uzum, yer... qirqma, shox ... behi uzganmisiz?
2. Ko'k... boqma, ko'p... boq. (*Maqol*).
3. G'o'za... nur, tuproq ... suv kerak. (*Maqol*).
4. Kattaga hurmat..., kichikka izzat... bo'l. (*Maqol*).
5. Turg'un akamning jamoasi ish... doim ilgari.

45-mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Akam harbiy xizmatda. Men akam... xat yozdim. Akam... tezda javob keldi.
2. Parta... to'g'ri o'tiring.
3. Bu kitob... Zokir ham o'qidi.
4. Paxta... tolasi mayin bo'ladi.

46-mashq. Chiziqlar o'rniga quyida berilgan sifatlarga mos otlarni qo'yib, so'z birikmalari tuzib yozing.

N a m u n a: Baxtli hayot.

Oq _____, sovuq _____, yorug' _____, baland _____, ilg'or _____, qora _____, keng _____, mevali _____, muhim _____.

Qo'yish uchun so'zlar: *dala, paxta, yulduz, suv, o'quvchi, tog', daraxt, qalam, topshiriq.*

muhim

47-mashq. O'qing, sifatlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan otlar bilan birgalikda ko'chiring.

BIZNING SHAHRIMIZ

Biz shaharda yashaymiz. Bizning shahrimiz katta va chiroyli. Unda baland-baland binolar bor. Ularda ko'p kishi yashaydi. Shaharning ko'chalari keng va chiroyli. Ko'chalarda tramvaylar, avtobuslar, avtomobillar to'xtovsiz yurib turadi.

Shaharda teatrlar, kinoteatrlar, maktablar, ko'rkam bog'lar bor. Shahrimizda zavod va fabrikalar ko'p. U yerda minglarcha ishchi va xizmatchilar ishlaydi.

48-mashq. Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlarni tanlab, namunadagidek yozing.

Namuna: *Balandroq – pastroq.*

Kattaroq, uzunroq, yo'g'onroq, issiqroq, torroq, ishchanroq, achchiqroq, eskiroq.


Tekshirish uchun so'zlar: *ingichkaroq, kichikroq, qisqaroq, sovuqroq, yorug'roq, dangasaroq, kengroq, shirinroq, yangiroq.*

Shu sifatlardan qatnashtirib to'rtta gap tuzing.

49-mashq. O'qing. Matndagi sifatlarni o'zi bog'langan otlar bilan birgalikda ko'chiring.

BAHOR

Erta bahorning serzavq kunlari boshlandi. Yashil adirlardagi giyohlardan taralgan xushbo'y hidlar dimoqqa uriladi. Oftob zarrin nurini sochmoqda. Osmon tiniq



shishaga o'xshaydi. Issiq kiyimlar yechildi. Mehnatkash dehqonning daladagi ishi boshlandi. Xushchaqchaq qizlar tolbargakdan sochpopuk yasab, sochlariga taqdilar. O'riklarning sershox novdalarida birin-ketin och pushti gullar ko'rindi. Baland-baland uylarning devorlari tagida qurt-qumursqalar o'rmalaydi. Katta chinorning och yashil kurtakli shoxlari orasida savatdek laylak uyasi ko'rindi.

50-mashq. *Topishmoqlarni belgisiga ko'ra toping va ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Oppoq, oppoq, oppoq tosh,
To'rt tarafi chaqmoq tosh,
Oq bo'lsa ham qattiq tosh,
Suvga solsang totli tosh.
2. Yum-yumaloq, qop-qora,
Nima ekan?
Qo'lga olsang bir hovuch
Igna ekan.

51-mashq. *Topishmoqlarni o'qing. Ularni belgisiga ko'ra toping. Ko'chiring, sifatlarni aniqlang.*

1. Ko'chati ko'm-ko'k, guli sap-sariq. Mevasi qip-qizil. Odam uni yesa, bo'ladi sog'lom.

2. Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.

3. Qat-qat to'nli, qarich bo'yli.

52-mashq. *Quyidagi sifatlardan so'z birikmalari tuzing.*

Ko'm-ko'k nima? – o'tloq, barg, osmon, qog'oz.

Sap-sariq nima? –

Qop-qora nima? –

Yam-yashil nima? –

Up-uzun nima? –

Kap-katta nima? –

Qip-qizil nima? –

Pak-pakana nima? –

Yop-yorug' nima? –

Top-toza nima? –

Ship-shirin nima? –

53-mashq. *Berilgan sifatlarga mos so'zlar topib yozing.*

Ommaviy nima? – sayil, chiqish, kitob.

Zamonaviy nima? – _____, _____, _____.

Adabiy nima? – _____, _____, _____.

Ilmiy nima? – _____, _____, _____.

Tarixiy nima? – _____, _____, _____.

Madaniy nima? – _____, _____, _____.

54-mashq. *Oddiy darajadagi sifatlardan qiyosiy va orttirma daraja hosil qiling.*

N a m u n a: yaxshi, yaxshiroq, eng yaxshi.

Yaxshi, baland, kichik, past, qiziq, achchiq, shirin, yoqimli, baxtli.

Qiyosiy va orttirma darajali sifatlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

55-mashq. *O'qing. Sifatlarni aniqlang, darajasini ayting.*

1. Ota, yurtimizning bu kuni baxtli, chiroyli, ertasi, indini yana baxtliroq, chiroyliroq bo'ladi. 2. To'g'ri odam egri so'zdan or qilar. (*Maqol*). 3. Sayohatchilar tog'ning eng baland cho'qqisiga chiqdilar.

Gaplarni ko'chirib, sifatlarning tagiga chizing.

56-mashq. *O'qing. Sifatlarni aniqlab, darajasini ayting. Shu sifatlardan qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni hosil qiling.*

R. Bobojon

YOSHLIK HAQIDA QO'SHIQ

Yoshlik go'zal, yoshlik bearmon,
Tomirlarda ko'piradi qon.
Yo'limiz oq, istiqbol porloq,
Biznikidir mehnat, sharaf-shon.

57-mashq. *O'qing. Fe'llarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Qushlar daraxtga qo'ndi. 2. Akam zavodda ishlayapti.
3. Men 6-sinfda o'qiyapman. 4. O'quvchilar sayohatga

bordilar. 5. Biz kitobni sevib o'qiyimiz. 6. To'quvchi chiroyli mato to'qidi.

58-mashq. *O'qing. Ko'chirib, fe'llarning tagiga chizing.*

Kecha uyimizga o'rtoqlarim kelishdi. Men ularni mehmon qildim. Dasturxon yozdim. Non va turli mevalar qo'ydim. Ular xursand bo'lishdi. Kech bo'ldi. O'rtoqlarim uylariga qaytishdi.

59-mashq. *O'qing. Fe'llarni aniqlab, og'zaki so'roq bering, gapda qanday bo'lak vazifasida kelganini ayting.*

1. Tongda mayin shamol esadi. 2. Tiniq suv shabadada jimirlaydi. 3. Gulzorda qizil gul ochildi. 4. Shoxda jajji qushcha sayraydi. 5. Xonada yoqimli kuy yangradi. 6. Qiradirlar yashil maysa bilan qoplandi.

Ko'chiring, gap bo'lagiga ko'ra tahlil qiling.

60-mashq. *O'qing. Sonlarni aniqlab, tegishlicha belgilang.*

1. Men 63-maktabda o'qiyman. 2. Biz A. Qodiriy ko'chasidagi 26-uyda yashaymiz. 3. O'quvchilar maktab hovlisiga o'n tup tok ekdilar. 4. Bo'yi teng to'rtta o'rtoq, boshida bitta qalpoq. (*Topishmoq*). 5. Kichkina bir ombor, ichida mingta cho'g'i bor (*Topishmoq*).

61-mashq. *O'qing. Sonlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chirib yozing.*

O'zbekistonda yovvoyi mevali daraxtlarning ellikdan ortiqroq turi, mingga yaqin navi bor. Tog'larning ob-havosi o'zgarib turganligi uchun, bu daraxtlar ba'zan serhosil,

ba'zan kamhosil bo'ladi. Dengiz sathidan bir ming ikki yuz metr balandlikdagi tog'larda yovvoyi mevali daraxtlar yaxshiroq rivojlanib, ko'proq hosil beradi.

62-mashq. *O'qing. Sonlarni raqam bilan yozing.*

Bir yuz yigirma ikkinchi maktab, o'ninchi uy, qirqinchi avtobus, ikkinchi bolalar bog'chasi, yettinchi sinf, o'n oltinchi tramvay.

63-mashq. *O'qing. Sonlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chiring.*

1. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan. 2. Quyosh atrofida to'qqizta planeta aylanadi. 3. 22-iyunda eng uzun kun va eng qisqa tun kuzatiladi. 4. O'lkamizda yoz kunlari havoning harorati +40, +45 darajaga yetadi.

Predmetning tartibini bildirgan sonlarning yozilishini tushuntiring.

64-mashq. *Quyidagi savollarga javob bering va javobingizni yozing.*

Siz nechanchi maktabning nechanchi sinfida o'qiysiz? Maktabga soat nechada kelasiz? Necha soat o'qiysiz? Soat nechada uyga qaytasiz?

65-mashq. *O'qing. Matnni ko'chiring. Olmoshlarni aniqlab, tegishlicha belgilang.*

Bir kuni o'qituvchimiz Xurshida opa:

– Biz hozir qiziq-qiziq narsalar yozamiz. Nimalar haqida yozishni men sizlarga aytib beraman. Yozgi ta'tilni qanday

o'tkazganingiz, yozda qayerlarga borib dam olganingiz esingizda bo'lsa kerak-a, bolalar? – dedilar.

Men shunday hikoya yozdim:

– Fotima – a'lochi qiz, u 8-sinfda o'qiydi. Men 6-sinf o'quvchisiman. Yozda biz Fotima bilan birga sayohatga chiqdik. Dalalarni, tog' yon bag'irlarini tomosha qildik.

Hikoyani birinchi bo'lib men topshirdim.

66-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning o'rniga shu otlarga mos olmoshlarni qo'yib ko'chiring.*

O'qituvchi o'quvchilarga savol berdi. **O'quvchilar** qo'llarini ko'tardilar. O'qituvchi **Salimani** chaqirdi. **Salima** kundalik daftari bilan o'qituvchining oldiga bordi. O'qituvchi **Salimadan** so'radi. Salima juda yaxshi javob berdi. O'qituvchi **Salimadan** xursand bo'ldi. **Salimaga** «5» baho qo'ydi.

67-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan olmoshlarni kelishiklar bilan turlab, matnni ko'chiring.*

IPAKCHILIK XO'JALIGIDA

(Biz) ... maktabda ipakchilik to'garagi tashkil qilindi. Biz dam olish kuni ipakchilik xo'jaligiga sayohatga chiqdik.

(Biz) ... agronom kutib oldi. U (biz) ... ipakchilik xo'jaligi, unda bajariladigan ishlar haqida gapirib berdi. (Biz) ... tut daraxtlarini ko'rsatdi.

Tutzorlarni tomosha qilib bo'lganimizdan so'ng, agronom (biz) ... ipak qurti haqida so'zlab berdi. Biz (u) ... so'zlarini diqqat bilan tingladik.

68-mashq. *O'qing. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va bog'lovchilarni aniqlang.*

BAHORNING BIRINCHI QUSHI

Bahorda biz tomonga birinchi bo'lib uzoqdan kichkina chiroyli bir qushcha uchib keladi. Uning boshi va bo'ynining tagi oq, ko'kragi kulrang, yelkasi, qanotlari va dumi och havorang bo'ladi.


U juda ham sho'x va quvnoq qushchadir. Bu qushcha qishloq xo'jaligi uchun foydali, u yerdagi zararkunanda hasharotlarni yeydi. Bu qush jibljajibondir.

69-mashq. *«Oromgohda» nomli hikoya tuzing. Hikoyangizda ot, sifat, son, olmosh, fe'l va bog'lovchilardan foydalaning.*

70-mashq. *She'rni yoddan yozishga tayyorlaning.*

KAPALAK

Hovlim gulli bir bog'dir,
Men o'ynayman, yayrayman,
G'unchalarga she'r aytib,
Bulbul bo'lib sayrayman.



O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH VA MUSTAQIL ISHLAR UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR

1-mashq. *Hikoyani o'qing.*

Abdulla Avloniy

TAQSIM

Ikki bola ko'chada o'ynar edilar. Tasodifan bir yong'oq topib olishdi. O'rtada janjal chiqdi. «Sendan oldin men ko'rdim, u meniki!» – derdi biri. «– Yo'q, uni yerdan men oldim. U meniki!» – derdi ikkinchisi. Shu asnoda bir yigit kelib qoldi. Voqeadan voqif bo'ldi.

– Sizlarga o'zim yaxshilab taqsimlab beraman, – dedi-da, yong'oqni ularning qo'lidan oldi. Chaqib, ikki pallaga ajratdi. Yarim palla po'chog'ini biriga, qolgan yarmini ikkinchisiga berdi. «Arzimas qoldig'i esa, taqsim qilganim uchun menga» – dedi-da, mag'zini og'ziga solib, yo'lida davom etdi. Bolalar po'choqni ushlaganlaricha hang-u mang bo'lib qolaverdilar.

Topshiriq

I. Hikoyaning mazmunini qayta og'zaki hikoya qilish uchun quyidagi rejadan foydalaning:

1. Bolalar nima topib olishdi?
2. Ular nega janjal qilishdi?
3. Bolalar nega yong'oqdan quruq qoldilar?
4. Yong'oqni taqsimlagan yigit to'g'ri qildimi, siz nima deysiz?

II. Shu reja asosida bayon yozing.

2-mashq. *Ertakni o'qing va sarlavha toping.*

Qadim zamonda aka-uka bor edi. Akasi bola-chaqali ekan. Ukasi yolg'iz ekan. Ular juda ahil yashar ekanlar. Aka-uka dehqonchilik qilishibdi. G'alla ekib, mo'l hosil olishibdi. Hosilni bo'lishayotganda ukasi kamroq olib, akasiga ko'proq bermoqchi bo'libdi. Akasi ko'nmabdi. Hosilni teng bo'lib olishibdi. Kech bo'libdi. Hamma uyquga ketibdi. Ukasi akasining bola-chaqali ekanligini o'ylabdi. O'zining g'allasidan akasining g'allasiga qo'shib qo'yibdi. Ko'ngli tinchib, uyquga ketibdi. Bir vaqt akasining ham uyqusi qochibdi. Ukasining yolg'izligini o'ylabdi. O'zining ulushidan ukasinikiga qo'shib qo'yibdi. Ko'ngli tinchib, uyquga ketibdi. O'sha aka-ukalar hozir ham inoq yashar ekanlar. Hamma ulardan o'rnak olarkan.

Topshiriq

I. Ertak mazmunini qayta og'zaki hikoya qilish uchun quyidagi rejadan foydalaning:

Reja:

1. Qadim zamonda aka-uka bor ekan.
2. Aka-ukaning dehqonchilik qilishi.
3. Ukasining akasiga mehribonligi.
4. Akasining ukasiga g'amxo'rliqi.

II. Shu reja asosida bayon yozing.

3-mashq. *Matnni o'qing.*

HASHARCHI QUYONLAR

Gollandiyada ajoyib tajriba o'tkazildi. Pomidor o'stirilayotgan maydonlarga quyonlar qo'yib yuborildi. Quyonlar begona o'tlarni ship-shiydam qilib tashlashdi, pomidor poyasiga esa tegishmadi. Chunki bunday poya quyonlarga yoqmas ekan.

Shunday qilib, pomidor ekiladigan maydonlarda uzunquloq «yordamchi»lar «hashar» qiladigan bo'lib qolishdi.

Topshiriqlar

1. Matnning rejasini tuzing va shu reja asosida mazmunini qayta og'zaki hikoya qiling.
2. Tuzgan rejangiz asosida bayon yozing.

4-mashq. *She'rni o'qing va yodlang.*


Meli Boboqulov

TINCHLIK BO'LSIN

Tinchlik bo'lsin jahonda,
Istamaymiz urushni.
Bas qiling, yovuz kuchlar,
Odam zotin qirishni!
Bog'lar bo'lmasin payhon,
G'anim yayrab kulmasin.
Ochilsin gul-u rayhon,
G'unchalar hech so'lmasin!

She'rni yoddan yozishga tayyorlaning.

5-mashq. Rasmlarni kuzating. «Kitobga muhabbat» sarlavhali hikoya tuzing.



Quyida berilgan rejadan foydalanib, «Kitobga muhabbat» sarlavhali hikoya yozing.


Reja:

1. Kutubxonada.
2. O'qish.
3. Suhbat.
4. O'qishga havas.

6-mashq. *Rasmni diqqat bilan kuzating. Rasmdagi qizlarga ism qo'yib, «Mohir chevarlar» sarlavhali hikoya tuzing.*




7-mashq. *Rasmni kuzating. «Mustaqillik bayrami» sarlavhali uch-to'rt gapdan iborat hikoya tuzing.*



Tuzgan gaplaringizning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.

8-mashq. Rasmlarni kuzating. «O'quvchi qanday bo'lishi kerak?» mavzusida uyushiq bo'lakli gaplar tuzing. Gap tuzishda bog'lovchilardan ham foydalaning.



9-mashq. Rasmlarni kuzating va to'rtta gap tuzib yozing.
Fe'llarning tagiga chizing.



TESTLAR

- O'zakni belgilang.*
 - Paxta
 - Suvchi.
 - Paxtadan.
- O'zakdoshlarni belgilang.*
 - Gulchi, gulla, gulli.
 - Tuz, tuzsiz, paxtakor.
 - A'lochi, paxtadan, suvchi.
- So'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*
 - la, -kor, -ga.
 - chi, -don, -siz.
 - da, -dan, -ni.
- So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarini belgilang.*
 - ni, -da, -dan.
 - siz, -kor, -la.
 - ning, -don, -chi.
- Qo'shimcha olgan so'zni belgilang.*
 - Paxtakor.
 - Kitob.
 - Qizil.

6. *Qo'shimcha olmagan so'zni belgilang.*
- A. Qalamdon.
 - B. Suvchi.
 - D. Paxta.
7. *Nazira gul... suv quydi. Qo'shimchalardan mosini qo'yib so'zni va keyin gapni o'qing.*
- A. -ning.
 - B. -ni.
 - D. -ga.
8. *Nazira gulni parvarish qildi. Otni to'g'ri belgilang.*
- A. Parvarish qildi.
 - B. Gulni.
 - D. Nazira.
9. *Atoqli otni belgilang.*
- A. qatnashdi.
 - B. O'zbekiston.
 - D. bepoyon.
10. *Turdosh otlarni belgilang.*
- A. qalam, sindi, kitob.
 - B. keng, chiroyli, Sobir.
 - D. qalam, daftar, kitob.
11. *Sifatni belgilang.*
- A. besh, o'n besh, yigirma.
 - B. Bino, maktab, saroy.
 - D. chiroyli, yorug', baland.

12. Dildora _____ ko'ylak kiydi. So'zlardan mosini qo'yib gapni o'qing.

- A. uzun.
- B. chiroyli.
- D. keng.

13. Soat... so'ziga mos qo'shimcha qo'yib so'zni o'qing.

- A. -kor.
- B. -chi.
- D. -soz.

14. Futbol... so'ziga mos qo'shimcha qo'yib so'zni o'qing.

- A. -chi.
- B. -kor.
- D. -don.

15. Maqolga mos so'zni topib, o'qing. Vaqting ketdi – baxting

_____ .

- A. ketdi.
- B. bordi.
- D. keldi.

16. Hunari borning _____ bor. Maqolga mos so'zni topib, o'qing.

- A. davlati.
- B. boyligi.
- D. zari.

17. Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying va gapni o'qing.

Men maktab... bordim.

A. -ga.

B. -da.

D. -ni.

18. *Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying va gapni o'qing.*

Anvar... ertak kitoblar bor.

A. -ni.

B. -ning.

D. -da.

19. *Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying va gapni o'qing.*

Odob bozor... sotilmas.

A. -da.

B. -dan.

D. -ga.

20. *Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, maqolni o'qing.*

Uy ... tor bo'lsa ham,

Ko'ngl... keng bo'lsin.

A. -ing.

B. -m.

D. -si.

ISH QOG'OZLARI NAMUNALARI

Devoriy gazeta uchun maqola namunasi

ULARNING NOMI O'CHMAYDI

Tarixda o'tmishga nazar tashlasak, o'zbek xalqining boshiga og'ir kunlar tushganining va xalqimizning mard o'g'lonlari qahramonliklar ko'rsatganining guvohi bo'lamiz.

Mustaqil O'zbekistonimizda 9-may Xotira va Qadrlash kuni deb e'lon qilindi. Bu ko'hna dunyo tarixiga nazar solar ekanmiz, tinchlik –ilohiy ne'mat ekanligiga, uning qadriga yetmoqlik, uni asrash – biz insonlar uchun muhim vazifa ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Bugun mustaqil yurtimizda Xotira va Qadrlash kunini keng nishonlayapmiz. O'tganlar ruhini shod etish – muqaddas qadriyatlarimizdan sanaladi. Ikkinchi jahon urushi zahmatlarini yelkasida ko'targan otalarimiz, bobolarimiz, momolarimiz sabot irodasi, el-yurtga bo'lgan muhabbati, sadoqatiga tahsin aytamiz. Bugungi tinch kunlarimizga shukrona aytar ekanmiz, urushni ko'rgan otalarimiz, onalarimizga mehr-muruvvat ko'rsatishga harakat qilamiz. Ko'ngillariga dalda, bellariga quvvat bo'lamiz. Ularning nomini hech qachon esdan chiqarmaymiz.

E'lon namunasi

E'LON

Hurmatli 7-«A» va 7-«B» sinf o'quvchilari!

Sizlarni 10 noyabr kuni soat 14⁰⁰ da faollar zaliga taklif etamiz. «Sog' tanda – sog'lom aql» mavzusida ma'ruza, bahs munozarasi bo'lib o'tadi. Faollik bilan qatnashishingizni so'raymiz.

Maktab «Kamolot» tashkilotining a'zolari.

Xat namunasi

XAT

Assalomu alaykum, hurmatli bobo. Bizga yozgan xatingizni oldik. Salomatligingizni bilib xursand bo'ldik, biz ham salomatmiz. Mening o'qishlarim yaxshi. Hamma fanlardan a'lo baho olyapman. O'rtoqlarim bilan ko'chalar chetiga, ariqlar bo'yiga nihol o'tqazdik.

Bobojon, men Sizni juda sog'indim. Bizlarnikiga qachon kelasiz?

Salom bilan nabirangiz Ravshan.

LUG'AT

A

akvarium
andaza
anhor
antenna
anvoyi
arslon
atirgul
avgust
avtomobil
avtonazoratchi
achchiq
a'lo
an'ana

B

baho
bahor
baland
behi
bir zum
biroz
bodring
boychechak

D

daftar
dahshat
daraxt
daromad
darmondori
daryo
darz
dastyor
dastlab
davlat
dasht
dekabr
dehqon
direktor
doim
dorixona
duo qilmoq
do'kon
do'st

E

ehtiyoj
ehtiyot
ekskavator
elak

e'zoz
e'lon

F

fabrika
faoliyat
farzand
farrosh
fasl
faxr
fevral
fil
firma
foiz
fojia
foyda
futbol

G

garmdori
gavjum
giyoh
gramm
gripp
gulsapsar

H

hadya
hammayoq
hammom
hamroh

handalak
harbiy
harf
havas
havo
hayvonot
hazil
hasharot
hissa
horg'in
hudud
hushyor

I

ikki
insof
in'om
iste'dod
istirohat bog'i
iyul
iyun

J

jahon
jajji
jamoat
jarroh
javon
jangovar
josus

K

kanal
 karam
 kollej
 kolleksiya
 kompyuter
 kosmonavt
 ko'hna (qadimgi)
 kutubxona

L

lavlagi
 leytenant
 loysuvoq
 loviya

M

madhiya
 mart
 masjid
 matn
 may
 ma'no
 mebel
 medal
 metall
 metro
 me'mor
 me'yor
 minnatdor

muallif
 mukofot
 musicha
 muhim
 muhofaza
 mushuk
 mo'jiza

N

naqsh
 nota
 noyabr
 no'xot

O

ob-havo
 oila
 omad
 oqshom
 olxo'ri
 ohak
 orombahsh

P

palto
 parashut
 parta
 payvand
 pirpirak
 piyola
 pomidor

poytaxt
pochta

Q

qadrli
qahramon
qimmat
qorbo'ron
quduq
qulupnay
qo'ng'iroq

R

radio
rahmdil
raketa
rasm
respublika
rost
ruxsat
ro'yxat

S

sabzavot
sabzi
samolyot
samovar
sentabr
sehr
sinf
sirk

sport
supurgi
sutchoy
so'qmoq

T

taassurot
tabiat
taqdim
tamom
tanaffus
ta'til
ta'zim
tennis
televizor
termos
timsoh
Toshkent
traktor
tramvay
transport
tutun
tuxum
tuman

X

xabar
xayol
xashak
xiyobon
xodim

xokkey
xotira
xursand
xo'roz
xayr
xavf
xazon

Y

yantoq
yanvar
yaxmalak
yelpig'ich
yetti
yengil
yig'lamoq
yomg'ir
yong'oq
yorug'
yovvoyi

Z

zavod
zehn
ziyrak
zog'orabaliq

O'

O'zbekiston
o'chirg'ich
o'qituvchi
o'quvchi

G'

g'ijjak
g'ilof
g'isht
g'o'za
g'o'zapoya

Sh

shabada
shaftoli
shahar
shamol
shaxmat
she'r
shirguruch

Ch

charm
chiyabo'ri
choyshab


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar ensiklopediyasi. – T.: «Sharq» NMAK, 2009.
2. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 1996.
3. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2002.
4. Z. Valiyeva, Y. Muhibov. – T.: Iqtisod alifbosi, 1996.
5. «G'uncha» davriy jurnallari.
6. S. Rizoyev. «Qaldirg'och». – T.: Kamalak, 1994.
7. «Gulxan» davriy jurnallari.
8. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2014, 144 b.
9. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2013, 192 b.
10. Б. Мамбет. Али ва айиқ. – Т.: «Ёш гвардия», 1985. 24 б.
11. О. Хасанбойева ва б. О'zing yasa. – Т.: «Камалак», 1991.
12. О. Фармонов. Шалпанқулнинг саргузаштлари. – Т.: «Юлдузча», 1988. 48 б.
13. С. Ғозиева ва бошқ. Бадиий терма китоб. – Т.: «Ўқитувчи», 1993. 192 б.
14. Olmos botir ertaklar. Muharrir M. Daminov. – T.: «Yangi asr avlodi», 2001, 64 b.
15. К. Коблов, А. Далимов. Картинный словарь русского языка. – Т.: «Ўқитувчи», 1986, 80 с.

MUNDARIJA

TAKRORLASH	4
Nutq va gap	4
Gaplarning fikr bildirish maqsadiga ko'ra turlari.....	4
Gap bo'laklari.....	6
Gapning bosh bo'laklari.....	6
Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	8
Gapda so'zlarning bog'lanishi.....	10
Tovush va harflar.....	12
Undosh tovushlar	12
Unli tovushlar. Bo'g'in	12
Tutuq (') belgisi.....	14
Jarangli va jarangsiz undoshlar, ularning imlosi	16
Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar, ularning imlosi.....	18
SO'Z	21
So'z tarkibi	21
O'zak va o'zakdosh so'zlar	21
So'z yasovchi qo'shimchalar.....	25
So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar	30
So'z turkumlari	38
Ot- so'z turkumi.....	41
Atoqli va turdosh otlar	43
Otlarda birlik va ko'plik	47
Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi	51
Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi	55
Bosh kelishik.....	57
Qaratqich kelishigi.....	59
Tushum kelishigi.....	61
Jo'nalish kelishigi.....	63
O'rin-payt kelishigi	66
Chiqish kelishigi.....	68

Qo'shma otlar.....	71
Juft otlar	74
Qisqartma otlar.....	75
Sifat – so'z turkumi	77
Sifat darajalari.....	89
Oddiy daraja.....	91
Qiyosiy daraja.....	94
Orttirma daraja.....	98
Sifatlarning yasalishi. Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning yozilishi	101
Son – so'z turkumi.....	129
Qo'shma sonlar.....	132
Olmosh – so'z turkumi.....	135
Kishilik olmoshlari.....	135
Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi.....	138
Fe'l – so'z turkumi.....	140
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	142
NUTQ VA GAP	149
Bog'lovchilar	149
Gapning uyushiq bo'laklari	151
Sodda va qo'shma gaplar	157
O'QUV YILI DAVOMIDA O'TGANLARNI TAKRORLASH	164
O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH VA MUSTAQIL ISHLAR UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR.....	186
TESTLAR	194
ISH QOG'OZLARI NAMUNALARI.....	198
Devoriy gazeta uchun maqola namunasi.....	198
E'lon namunasi.....	199
Xat namunasi	199
LUG'AT.....	200
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	205



**Z. Mo'minjonova, K. Ziyayeva,
Sh. Karimova, G. Halilova**

ONA TILI

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab
va maktab-internatlarning 6-sinfi uchun darslik
(Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)*

2-nashr

Muharrir T. Nazarov
Texnik muharrir S. Salixova
Badiiy muharrir J. Gurova
Musahhih Sh. Ilhombekova
Kompyuterda tayyorlovchi E. Kim

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.
Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.

Bosishga 2015 yil 27 iyulda ruxsat etildi. Bichimi 70×90^{1/16}.
Ofset qog'oz. «SHKOLNAYA» garniturasida. Kegli 14.
Shartli bosma tabog'i 13,0. Nashr tabog'i 10,4. Adadi 962 nusxa.
Buyurtma №15-539.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

РАССЫЛКА

Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



ISBN 978-9943-45-



9 789943 454361